

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RAT MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

R. RASULOV, A. MIRAZIZOV

O‘ZBEK TILI

*O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi muassasalarining
ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan
guruhlar uchun o‘quv qo‘llanma*

«FAN VA TEXNOLOGIYA»

«TURON-IQBOL»

2013

UO‘K 811.512.133(075)

KBK 81.20‘zb

R-24

Taqrizchilar: **H. ISMOILOV** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
S. ADILOVA – pedagogika fanlari nomzodi.

Mas‘ul muharrir: **H. Jamolxonov** – filologiya fanlari nomzodi,
professor

Rasulov R.

R-24 O‘zbek tili : o‘quv qo‘llanma / R. Rasulov, A. Mirazizov;
O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi;
O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi. - Toshkent: «Turon-
Iqbol», 2013. - 240 b.

ISBN 978-9943-10-000-8

© «FAN VA TEXNOLOGIYA», 2011.

© «TURON-IQBOL», 2013.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

*A. Oripov so'zi,
M. Burhonov musiqasi*

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot.
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon.
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod.
Shuhrating porlasin toki bor jahon.

Naqorat:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor.
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas imoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot.
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona-yurt, mangu bo'l obod.

Naqorat:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor.
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.

SO‘ZBOSHI

O‘zbek tili – O‘zbekiston Respublikasining davlat tili. Tilga hurmat – elga hurmat, tilga e‘tibor – elga e‘tibordir. Chunki til xalq tarixi, hayot ko‘zqusidir.

Qo‘lingizdagi «O‘zbek tili» darsligi Oliy va o‘rta maxsus hamda Xalq ta‘limi vazirliklarining 2003-yil 16-oktabrdagi 256/251-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan dastur (A. R. Rafiyev, M. T. To‘xtamirzayev, 2004) asosida yaratilgan va o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi muassasalarining ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun mo‘ljallangan.

Darslikda nazariy bilimlar bilan amaliy bilimlar uyg‘unlikda berildi.

Darslikda asosiy diqqat-e‘tibor amaliyotga – so‘zlashuv nutqiga, nutq o‘stirish muammosiga qaratildi.

Shunga ko‘ra, darslikdan ijodiy topshiriqlar, matnlar, tarjimalar va lug‘atlar asosiy o‘rin egalladi. Shuningdek, darslikda o‘zga til vakili bo‘lgan o‘quvchilarga amaliyotda erkin foydalanishlari uchun faol qo‘llanadigan ish qog‘ozlarini rasmiylashtirish tartibi keltiriladi.

Har bir mashg‘ulot 2 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, zarur hollarda o‘qituvchi berilgan matnni litsey (kollej) yo‘nalishidan kelib chiqib almashtirishi mumkin.

O‘ZBEK VA RUS TILLARI (узбекский и русский языки)

Вам хорошо известно, что узбекский язык относится к тюркской группе алтайских языков, а русский язык относится к восточнославянским языкам. С типологической же точки зрения, узбекский относят к агглютинативным языкам, а русский к флективным.

Этим и определяются некоторые различия в выше-названных языках.

Прежде всего, необходимо подчеркнуть, в узбекском языке полностью отсутствует категория рода, нет также категории вида глагола.

В узбекском языке имеется ряд специфических звуков речи: (Н, Q, O‘, G‘). Нет звуков: Ы, Щ, Ц.

Хотя и количество частей речи одинаковое, в узбекском языке, в отличие от русского, где употребляют предлоги употребляются послелогии: *singari* (как), *tufayli* (благодаря), *bo‘ulab* (по) и т.д.

В узбекском языке формобразование происходит прибавлением специальных аффиксов и в основном один аффикс имеет одно лишь значение. К примеру, **daftaringa -im** – аффикс принадлежности, **-ga** – аффикс (направительного) падежа.

И в русском и в узбекском языках имена существительные имеют по три грамматических категорий. Однако, как сказано выше, в узбекском отсутствует категория рода и существительное имеет категорию принадлежности.

В узбекском языке прилагательное имеет лишь категорию степени сравнения, практически не меняет своей отличительной формы: *katta uy* (большой дом), *katta xona* (большая комната), *katta maydon* (большая площадь). Прилагательное примыкает к существительному. В русском же языке прилагательное согласуется с существительным в роде, числе и падеже, а также, имеет краткую форму: *умный — умен*.

Числительное в узбекском языке не имеет грамматических категорий.

В узбекском языке 7 разрядов местоимений, в русском их 9. В узбекском отсутствуют притяжательные и относительные местоимения.

Как говорилось выше, глагол в узбекском языке не имеет категории вида. Хотя времен глагола, как и в русском три, форм времени больше – девять.

В обоих языках по три служебных частей речи. Но, как отмечалось выше, в узбекском нет предлогов и употребляются так называемые послелого.

Несколько иной в узбекском языке и порядок слов в предложении. Так, сказуемое чаще находится в конце предложения, определение всегда перед определяемым словом и т.д.

В большинстве случаев факты в двух языках совпадают, что способствует изучению языка. И авторы искренне желают Вам успехов в изучении древнего и красивого языка — государственного языка Республики Узбекистан, на котором творил великий Навои.

O'ZBEKISTON – VATANIM MANIM!

1-mashg'ulot

O'ZBEK ALIFBOSI

Aa	Hh	Nn	Tt	O'o'
Bb	Ii	Oo	Uu	G'g'
Dd	Jj	Pp	Vv	Sh sh
Ee	Kk	Qq	Xx	Ch ch
Ff	Ll	Rr	Yy	ng
Gg	Mm	Ss	Zz	'(tutuq)

1-topshiriq. O'qing va yozilishiga e'tibor bering.

A'zo (член), qal'a (крепость), ma'dan (минерал), ko'ngil (душа), achchiq (острый), sirkul, transkripsiya, sitrus, sitologiya, ssenariy, navigatsiya, sement, koeffitsiyent, iyun, salut, sentabr, noyabr.

2-topshiriq. So'zlarni o'zbekcha tarjimasini yozing:

Семь, светлый, смысл, самый, зеленый, лицо, стихотворение, хлопок.

3-topshiriq. So'zlarni o'zbek imlosi qoidalariga amal qilib yozing:

Девиация, дикция, февраль, Моцарт, Щетинина, кварц, циркуляция, география, федерация, градация.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Poytaxti – Toshkent shahri.

Hududi – 447,4 ming kv km.

Respublika tarkibida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi,

12 ta viloyat; 156 ta tuman;

123 ta shahar, jumladan, 60 ta respublika va viloyat bo'ysunishi-dagi shahar;

104 ta shahar tipidagi posyolka mavjud.

Lug'at ishi

asriy	вековой
endilikda	нынче
jahon hamjamiyati	мировое сообщество
jadal	интенсивно
sanoat	промышленность
rivojlangan	развитый
asosli	обоснованный, обоснованно
dalolat	свидетельство
manfaat	интерес
ravnaq	процветание
band	занят

4-topshiriq. Matnni o'qing.

OZOD O'ZBEKISTON

1991-yili O'zbekiston xalqining asriy orzusi amalga oshdi - Vatanimiz o'z mustaqilligini e'lon qildi. Endilikda O'zbekiston jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylangan. U o'z davlat bayrog'i, madhiyasi, gerbi, qolaversa, o'z milliy valutasiga ega. O'zbekiston jadal rivojlanish yo'lidan bormoqda. Qisqa muddatlarda u agrar respublikadan sanoati rivojlangan mamlakatga aylandi. Hozirda u dunyoning avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 davlatidan biri ekani ham fikrimizning asosli ekanidan dalolatdir.

Mamlakatimizda yuzdan ortiq millat vakillari do'stu qadrdon bo'lib, yurt manfaati, Vatan ravnaqi yo'lida yaratuvchanlik mehnati bilan banddirlar. Ularning huquq va erkinliklari kafolatlangan. Shuning uchun ham ularning ertangi kundan ko'ngli to'q. Kelajakka zo'r ishonch bilan qaraydilar.

5-topshiriq. Matn yuzasidan o'zaro suhbatlashing. Matnga savollar tuzing.

6-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. В стране происходят глобальные изменения. 2. Узбекистан является полноправным членом ООН. 3. Народ верит в свое светлое будущее. 4. Будущее страны в руках молодого поколения. 5. Интересы людей превыше всего.

2-mashg'ulot

Suhbat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi qachon o'z mustaqilligini e'lon qildi?
2. Mustaqillik xalqimizga nimalar berdi?
3. Davlatimiz ramzlari qachon qabul qilinganini bilasizmi?
4. Milliy valutamiz qachon muomalaga kiritildi?
5. O'zbekiston Respublikasi tarixiga oid yana qaysi muhim sanalarni bilasiz?

FONETIKA VA ORFOEPIYA

Фонетика – раздел языкознания, изучающий звуковой строй языка. В нем рассматриваются звуки речи, фонетические процессы, происходящие в речи, слог, ударение и интонация.

Орфоэпия – это наука о произносительных нормах языка. Орфоэпия рассматривает правила произношения слов и форм слова, постановки ударения в слове.

Фонетика и орфоэпия взаимосвязаны.

Звук не следует смешивать с буквой. Звук мы произносим и слышим, а букву пишем и видим. Буква – это условный знак, символ для передачи звуков речи в письме.

1-topshiriq. Quyidagi soʻzlarni ovoz chiqarib, toʻgʻri oʻqing, tarjimasini ayting.

qa	goʻsht	gʻarbiy	hunar
pa	tosh	gʻalati	havas
sa	ahil	gʻazab	hukm
ta	qanday	gʻoʻza	haka
da	aql	gʻayrat	raqam

2-topshiriq. Soʻzlarni oʻqing, talaffuziga eʼtibor bering.

sava-saʼva, sanʼat-sanat, qalʼa-qala, aʼlo-allo.

3-topshiriq. Quyidagi ruscha va oʻzbekcha soʻzlarning talaffuziga (ohangiga) eʼtibor berib oʻqing. Shu soʻzlar ishtirokida oʻzbek tilida 5 ta gap tuzib, daftaringizga yozing.

Oʻzbekcha

Ruscha

tot	ТОТ
tut	ТУТ
tok	ТОК (электричество)
son	СОН
kon	КОНЬ

Lugʻat ishi

jannatmakon	райский, раю подобный
quyoshli kunlar	солнечные дни
tutashib ketgan	переплелись
rivoyat	предание, сказание
taqsimlab	раздать
ulasmoq	раздать
parvarishlamoq	ухаживать
qadamoq	здесь: воткнуть
qalamcha	здесь: палочка

4-topshriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling. Mazmunini aytib berishga tayyorlaning.

JANNATMAKON YURT

O‘zbekiston – serquyosh o‘lka. Uning janubiy hududlarida quyoshli kunlar 2800–3130 soatga yetadi.

O‘zbekistonning hayvonot va o‘simliklar dunyosi juda boy. Respublikada tog‘li joylar, cho‘l zonasi va yam-yashil vodiylar bir-biriga tutashib ketgan.

Shularni ayta turib, bolaligimda eshitgan bir rivoyat yodimga keldi: Yaratgan yer yuzini barcha xalqlarga taqsimlab berayotganida o‘zbeklar kamtarlik qilib hammani oldinga o‘tkazib yuboraveribdi. Nihoyat, navbat ularga yetganida hamma hudud ulasib bo‘lingani ma‘lum bo‘libdi. Shunda Yaratgan jannat uchun olib qo‘ygan yerining bir qismini o‘zbeklarga beribdi...

Darhaqiqat, siz u biz jannat yurtda yashaymiz. Yerimizga cho‘p qadasa, vaqt o‘tib u barg yozadi. Ishonmaysizmi? Unda yerga terak qalamchasini qadab, parvarishlab ko‘ring-chi!

5-topshiriq. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalri ishtirokida gaplar tuzing.

Iqlimi kontinental; quyosh nur sochib turadi; eng sovuq oy; eng janubiy qismi; qish davri besh oyga cho‘ziladi; issiqlik 42°C ga yetadi; eng ulkan daryo; Amudaryoning irmoqlari; Sirdaryoning irmoqlari; Sirdaryo havzasiga; Amudaryo havzasiga, irmoqlari, asosan, o‘zining o‘rta va quyi oqimlari doirasidagina.

3-mashg‘ulot Suhbat uchun savollar

1. Siz Toshkentni yaxshi bilasizmi?
2. Toshkentdagi qaysi tarixiy obidalarini bilasiz?
3. Istiqlol yillarida qurilgan qaysi inshootlarni bilasiz?
4. Toshkent metrosi haqida nima deya olasiz?
5. O‘zbekistonning qaysi tarixiy shaharlarida bo‘lgansiz?

BO‘G‘IN (Слог)

Слог – это один или несколько звуков, произносимых одним потоком воздуха. Слова могут быть односложными: u (тот, та), bog (иди); двухсложными: ora (старшая сестра), bog‘bon (садовник); трехсложными: masala (задача): qaldirg‘och (лясточка); четырехсложными: o‘qituvchi (учитель); пятисложными: to‘na-qaldiroq (гроза).

В узбекском языке слог может состоять:

1. из одного гласного: o-zod, u-zun;
2. из согласного и гласного: da-la, ro-sa;
3. из гласного и согласного: och, oq;
4. из согласного, гласного и согласного: tur, qush;
5. из гласного, согласного и согласного: amr, ust;
6. из согласного, гласного, согласного и согласного: tort, qasr.

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.

Amaki, aloqador, monand, bahra, archazor, ishbilarmon, dalolat, o‘yinchi, qat‘iy, zarar, senga, e‘lon, oila, ko‘ngil, aviatsiya, xom-ashyo, kulgili.

2-topshiriq. So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib, alifbo tartibida yozing.

Bayram, jiyda, devoriy, takroriy, hashamatli, boshliq, daraxtzor, kengash, tonggi, ma‘danli, san‘atshunos, huquq, xayol, shisha, kechki.

Yodda tuting: Сочетания букв ng, sh, ch переносятся на следующую строку или остаются в верхней, но не делятся: singil, ich-ki, bur-chak, ish-ti-rok, sho-shi-linch.

Lug‘at ish

balo – qazo	здесь: бедствие
siylagan	здесь: уважающий
yaxshi iz qoldirish	оставить хороший след
tafakkur saviyasi	уровень сознания
bo‘lakcha	иной, другой,
tasavvur qilmoq	вообразить, представить
ravnaq	процветание
ixlos qo‘ymagan	здесь: не увлекшийся
izzat qilmoq	почитать
manfaat	интерес

1-topshiriq. O‘qing. I. Karimovning hikmatli so‘zlarini o‘qing va yod oling.

INSON BAXT UCHUN TUG‘ILADI

Xalqimizning donoligi, bag‘ri kengligi, sabr-bardoshi bizni har qanday balo-qazolardan asrab qoldi. Elni Vatan manfaati birlashtiradi.

O‘z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta porloq bo‘ladi.

Inson dunyoga yaxshi ish qilish, yaxshi iz qoldirish uchun keladi.

Diplomga ega bo‘lish – bu hali tom ma‘nodagi ziyoli degani emas. Ziyoli odam o‘z tafakkur saviyasi, pok yuragi, ichki madaniyati bilan mutlaqo bo‘lakcha inson bo‘ladi.

Agar fanni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak, tadqiqotlar uning ildizini tashkil etadi.

Fan ravnaqsiz buyuk davlat qurib bo‘lmaydi.

Ezgulikka sadoqati bo‘lmagan, biron narsaga ixlos qo‘ymagan, ishonmagan odam qo‘rqinchlidir.

Jamiyatning haqiqiy boyligi bu inson, inson avlodidir.

Elni izzat qilsang, el ham seni izzat qiladi.

4-mashg'ulot

Suhbat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qachon tasdiqlandi?
2. Undagi ranglar, o'n ikki yulduz va yangi oy tasviri nimani ifodalaydi?
3. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qachon tasdiqlandi?
4. U nimalarni anglatadi?
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilindi?
6. U necha bobdan iborat?

URG'U (Ударение)

Ударение – это выделение одного из слогов в составе слова или целого словосочетания путем усиления голоса, повышения тона.

Различают: **so'z urg'usi** (словесное) и **gap urg'usi** логическое (внутри предложения, фразы).

Словесное ударение – силовое или динамическое, при котором ударный слог выделяется главным образом силой звука.

Ударение в узбекском языке обычно падает на последний слог, с прибавлением аффиксов оно перемещается на последний слог: **raxtakor**, **raxtakorlar**. Но встречаются слова и формы слов, в которых ударение падает на другие слоги.

Ударение может служить для различения омоничных слов и грамматических форм: **suzma** (сузьма) **suzma** (не плыви); **akademik** (ученое звание), **akademik** (академический); **yigitcha** (по-мужски), **yigitcha** (молодой человек – уменьшительно-ласкательное).

1-topshiriq. Quyidagi so'zlarni birinchi bo'g'inida urg'u bilan o'qing.

Gapir (говори), **boshla** (начинай), **borgin** (иди же), **keling** (приходите), **kelsin** (пусть придет), **boray (in)** (пойду-ка), **keldi**

(он пришел), ketdi (он ушел), ikki (два), olti (шесть), to‘qqiz (девять).

2-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling va so‘zlarga urg‘u qo‘yib chiqing.

Ящик стола, не тяни; яблоко, не бери; руки, возможно поддержит; сады, возможно завяжет.

Yodda tuting: В узбекском языке существуют аффиксы, элементы, не принимающие ударение: частицы: -ku, -u, -ui, -da, -mi, -chi; аффиксы: -cha, day (-dek) образующие наречие; формообразующие: -dir, -man, -san, miz, -siz; -ma – отрицательный аффикс.

3-topshiriq. Urg‘u olmaydigan elementlar qatnashgan bir nechta gap tuzing.

Lug‘at ishi

tortiq	подарок
bo‘ston	цветник
gavhar	жемчужина
qarog‘	глаз
mujgon	ресницы
sadqa (sadaqa)	пожертвование
kavkabiston	букв: звездная известность
shay	готов
sarf etmoq	тратить
dilda borim	все что у меня на душе

4-topshiriq. «O‘zbekistonim, senga» she‘rini ifodali o‘qing va yod oling.

O‘ZBEKISTONIM, SENGA

A. Oripov

Aylayin qalbimni tortiq nurli bo‘stonim senga,
Sen Vatandirsan, fidodir tanda bu jonim senga.

Bebahosan, asragayman gavharim, deb men seni,
Sen qarog‘ bo‘lsang agarda, sadqa mujgonim senga.

Sendan ayru dam uzundir, lahzalar ham yilga teng,
Bir umrga lek barobardir kerak onim senga.

Har bir ahling bitta yulduz, kavkabistonsan o'zing,
To hayotdirman, charog'im, shu'layi shonim senga.

Yoru do'stlar jam bo'libdir, to'y qilur o'zbek elim,
Men degayman, xush kelibsan, do'stu mehmonim, senga.

Xizimatingga shay erurman, xizimatingda ham o'zim,
Baxtiyorman, sarf etolsam borki imkonim senga.

Qo'lda torim sen uchundir, dilda borim sen uchun,
Qayda bo'lmay talpinurman, O'zbekistonim, senga.

5-mashg'ulot

Suhbat

- O'zbekistonda qanday bayramlar nishonlanadi?
- Vatanimizda bayramlar ko'p: Mustaqillik kuni, Navro'z, Xotira va qadrlash kuni va boshqalar.
- Yurtimizda kasb bayramlari ham nishonlanadimi?
- Ha, bizda bunday bayramlar juda ko'p. Vatan himoyachilari kuni, radio xodimlari kuni, energetiklar kuni va boshqalar.
- O'qituvchilarning kasb bayrami qachon nishonlanadi?
- Bu bayram bizda 1- oktabr kuni nishonlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra bu kun umumxalq bayrami - Ustoz va murabbiylar kuni deb e'lon qilingan va dam olish kuni hisoblanadi.

MANTIQUIY URG'U

(Логическое ударение)

Фразовое или логическое ударение – это выделение того или иного члена предложения силой голоса. В узбекском языке в различных источниках его называют **gap urg'usi** (буквально: ударение в предложении), **jumla urg'usi** (фразовое ударение), **mantiqiy urg'u**. В повествовательном предложении: **Biz majlis**

o'tkazdik (Мы провели собрание) каждое слово может быть отмечено ударением: **Biz** matnni tarjima qildik. **Biz** matnni tarjima qildik. **Biz** matnni tarjima qildik. Обычно член предложения, на который падает логическое ударение находится перед сказуемым. Например: Men ertaga **konsertga** bormoqchiman. Men konsertga **ertaga** bormoqchiman. Ertaga konsertga **men** bormoqchiman.

1-topshiriq. So'z urgu'si va mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'yib o'qing.

Dunyoda har ishning bordir o'z gali, O'lis хотиралар hamroh ishimda. Shoirlik yodimdan chiqqan mahali Cho'ponlik yillarim tushar esimga. (A. Oripov)

Lug'at ishi

navbatdagi	очередной
ilg'or	передовой, передовик
muqaddima	здесь: преамбула; предисловие
erkinlik	свобода
majburiyat	обязанность
baxtimiz qomusi	энциклопедия счастья
e'tiqod	убеждение
...dan qat'iy nazar	не независимо от...
huquqiy	правовой

2-topshiriq. Matnni o'qing va so'zlab bering.

O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI

Mustaqil O'zbekiston hayotidagi navbatdagi tarixiy voqea 1992-yilning 8-dekabrida sodir bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining asosiy qonun – Konstitutsiyasini qabul qildi. Jahonning ilg'or davlatlari tajribasini o'rganish asosida yaratilgan yangi O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi – muqaddima, 6 bob, 26-bo'lim, 128 moddadan iborat.

Asosiy qonunimiz fuqarolarimizning huquq va erkinliklari, majburiyatlarini belgilab berdi.

Konstitutsiyani baxtimiz qomusi deyilishi bejiz emas.

Unda O'zbekiston xalqini millati, e'tiqodi, dini, jinsidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil etishi mus-

tahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaya ekani aytilgan.

Konstitutsiya farovon kelajagimizning huquqiy asosidir.

3-topshiriq. Matndagi yangi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Masalan: Pedagogik kengashning navbatdagi yig'ilishi 22-mart kuni o'tkaziladi.

4-topshiriq. Matn yuzasidan suhbatlashing. Konstitutsiyamiz haqida nimalarni bilasiz?

5-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. В недрах Узбекистана можно найти практически все элементы таблицы Менделеева. 2. В годы независимости Ташкент превратился в огромную строительную площадку. 3. Мы гордимся великими достижениями наших предков. 4. Узбекистан – полноправный член мирового сообщества.

6-mashg'ulot

– Andrey, sen o'zbek tilini yaxshi bilasanmi?

– To'g'risi, unchalik emas, lekin umid qilamanki, tez orada uni o'rganib olaman.

– Buning uchun nimalar qilyapsan?

– Avvalo, kollejimizda o'zbek tilini yaxshi o'qitishadi. O'qituvchimiz Saida opa o'z ishlarini juda yaxshi biladilar. Qolaversa, o'zbek tili to'garagiga qatnayapman.

– Seningcha, shu yetarlimi?

– Yo'q, men ko'cha-ko'yda eshitganlarimga diqqat qilaman, o'zbek tilida ko'proq o'qish, teleko'rsatuvlar ko'rish, do'stlarim bilan o'zbek tilida ko'proq gaplashishga harakat qilaman.

– To'g'ri, aytilshadi-ku, til o'rganish uchun shu tilda ko'proq muloqot qilish kerak, deb.

ORFOGRAFIYA

Орфография (имло) – система правил, устанавливающая единообразные способы передачи речи на письме.

Узбекская орфография основана на морфолого-фонетичес-

ком принципе, причем ведущим принципом является морфологический, вспомогательный – фонетический.

При морфологическом принципе обозначаемой языковой единицей является морфема, т.е. значащая часть слова. Одинаковые морфемы пишутся всегда одинаково, независимо от произношения, например: kel-di, ket-di (произносится: ket-ti), ot-dan (произносится ot-tan).

При фонетическом принципе обозначаемой языковой единицей является реально произносимый в каждом данном случае звук или звукосочетание, например: qishloq-ga (пишется qishloq-qa), elak-ga (elak-ka) и т.д.

1-topshiriq. Quyidagi soʻz shakllari qaysi tamoyil asosida yozilganligini ayting.

Kamalakka, boqqan, tukkan, yogʻgan, ekkkan, oʻtgan, yozayotgan, uygʻotgan, singan, yoʻqotilgan, sindirgan, gapirtirgan, shoshgan.

2-topshiriq. Nuqtalar oʻmiga kerakli boʻgʻinlarni qoʻyib yozing.

Ol...zor (вишневый сад), meʼ...chilik (архитектура), pah... von (богатырь), qi...qish (интерес), koʻz...nak (очки), ogoh... (бдительность) .

3-topshiriq. Quyidagi soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qiling. Tarjimasini lugʻatdan topib ayting va yozing.

Kun – koʻn (moq) – kon; kuz-koʻz; quch-qoʻch; tor-toʻr; turt-toʻrt-tort; tuk-tok-toʻk; oz-oʻz.

Lugʻat ishi

qadimgi	древний
tasdiqlamoq	подтверждать
beqiyos	несравненный
jahon miqyosi	мировой уровень
ilmiy-nazariy	научно-теоретически (й)
shu bois	поэтому

mavqe	статус, положение
qadr topmoq	цениться
jahon hamjamiyati	мировое сообщество
ishtiyoq	страстное желание
kirishmoq	браться (за какое-нибудь дело)
dalil	свидетельство, доказательство

4-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

O‘ZBEK TILI

O‘zbek tili ko‘p asrlik taraqqiyot yolini bosib o‘tgan. Uning tarixida uchta katta davr farqlanadi:

1. Qadimgi turkiy adabiy til X–XII asrlarni o‘z icbiga oladi. O‘zbek adabiy tili dastlabki davrlarda umumturk adabiy tili sifatida X–XI asrlarda tashkil topgan.

2. Eski o‘zbek tili XIII–XV asrlarda shakllangan bo‘lib o‘tgan asrning 20-yillarigacha bo‘lgan davmi o‘z icbiga oladi. Bu davr adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosdir.

Hozirda o‘zbek tili respublikamizning davlat tili sanaladi. Shu bois ham, uni o‘rganishga alohida e‘tibor berilmoqda. Istiqloлга erishgan O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeyi ortib borar ekan, o‘zbek tili ham tobora qadr topmoqda. Chet ellik birodarlarimizning ham uni o‘rganishga zo‘r ishtiyoq bilan kirishayotgani fikrimizning dalilidir.

Bilib oling: 1989-yil 21-oktabr O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risidagi Qonuni qabul qilindi.

1993-yil 2-sentabr Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida Qonun qabul qilindi. 1995-yil 6–7-mayda mazkur qonunga o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritildi.

1995-yil 24-avgustda O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining Qarori e‘lon qilindi.

7-mashg‘ulot

Suhbat

- Siz hovlida yashaysizmi, yo ko‘p qavatli uydami?
- Biz ko‘p qavatli uyda turamiz.

– Uyingiz necha qavatli? – Uyimiz to‘qqiz qavatli. – Sizning xonadoningiz nechanchi qavatda? – Xonadonimiz oltinchi qavatda. – Xonadoningiz kattami? – Unchalik emas, atigi ikki xona. Lekin u menga juda yoqadi. Yuqoridan turib odamlarni kuzatishni yaxshi ko‘raman.

LEKSIKA

Лексика (лексикология) – раздел языкознания, изучающий словарный состав языка.

Словарный состав узбекского языка состоит из древнетюркских: *yog‘och* (дерево), *kun* (солнце); узбекских: *gulzor* (цветник), *odobli* (воспитанный); и заимствованных слов. Большое количество слов заимствованы с арабского, персидского языков, также и с русского или через русский с европейских языков.

SO‘ZNING LUG‘AVIY VA GRAMMATIK MA‘NOLARI (Лексическое и грамматическое значение слова)

Лексическое значение слова – это то, что мы представляем себе услышав его, т.е. предмет, признак, количество и т.д. Оно присуще только самостоятельным частям речи. К примеру в толковом словаре узбекского языка слову «so‘z» дано такое определение:

So‘z – tovush yoki tovushlardan iborat ma‘noni bildiruvchi nutq birligi (слово – речевая единица, состоящая из звука или звуков, имеющая значение).

Под грамматическим значением понимают то, что означает слово: предмет, признак, действие и т.д. К примеру грамматическое значение слова «so‘z» – имя существительное именительного падежа единственного числа.

1-topshiriq. So‘zlarni tushuntiring. lug‘aviy va grammatik ma‘lumotini tushuntiring.

Kitob, qalam, gul, yozmoq, go‘zal, o‘zbekcha.

2-topshiriq. O'zbek tilining izohli lug'atidan quyidagi so'zlar-ning ta'rifini yozing va bilib oling.

O'qimoq, zehn, qunt, istiqbol.

Lug'at ishi

navqiron	молодой
kengaytirish	быть расширенным
ko'prik	мост
barpo	воздвигаются
qad rostlagan	воздвигнутый,
husniga husn qo'shmoq	придавать красоту
ziyoratgoh	место поминчества
sayyoh	турист
bunyodkorlik ishlari	созидательство

TOSH SHAHRIM – BOSH SHAHRIM

Men serquyosh O'zbekistonning poytaxti – Toshkent shahrida yashayman. U juda qadimiy, ayni paytda navqiron shahar. Qadimda uni Choch, Shosh deb ataganlar.

Toshkent «tosh shahar» degani. Shahrimiz juda go'zal. Hozirda u katta qurilish maydoniga aylangan. Shahrimiz ko'chalari kengaytirilib, yangi yo'llar, ko'priklar qurilmoqda, bog'lar barpo etilmoqda.

Shaharda qad rostlagan Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Milliy drama teatri binosi, Milliy bank, yangi konservatoriya binosi uning husniga husn qo'shgani shubhasiz. Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Xotira maydoni va Shahidlar xotirasi xiyoboni xalqimizning ziyoratgohlariga aylanib ulgurdi.

Toshkentga har kuni minglab sayyohlar tashrif buyuradilar. Ular mamlaratimizning bosh shahriga qarab, yurtimizdagi bunyodkorlik ishlari haqida fikr yuritadilar. Toshkent mustaqil o'zbek diyoringning yuzi, uning faxridir.

3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Toshkent shahrining 2000 yillik to'yi qachon nishonlangan?
2. Toshkent metrosining birinchi navbati nechanchi yili ish boshlagan?

3. Toshkent teleminorasining balandligi qancha? 4. Toshkentda nechta tuman mavjud? 5. Toshkentdagi yangi qurilgan inshootlardan qaysilarini bilasiz? 6. Toshkentda bu yil qanday yirik anjuman, sport bayrami, musobaqalar bo'lib o'tdi? 7. Poytaxtimiz haqida yana nimalarni bilasiz?

4-topshiriq. «Mening Vatanim» mavzusida kichik hikoya tuzung.

8-mashg'ulot

Suhbat

- Shohida, sen o'qishga qayerdan kelgansan?
- Men Farg'ona viloyatidan kelib o'qiyapman.
- Sizlar qishloqda turasizmi?
- Ha, qishlog'imizning nomi Oqbuloq.
- Qishloqda turish zerikarli bo'lsa kerak-a?
- Nega endi? Qishloqda yashash maza. Meva-chevalar mo'l-ko'l. Hamma yoq ko'm-ko'k. Havosi tozaligini aytmasanmi! Sen o'zi hech qishloqda bo'lganmisan?
- Afsuski, yo'q.
- Hechqisi yo'q, istasang, ta'tilda biznikiga boramiz. Qishloq hayotini o'z ko'zing bilan ko'rasan.
- Rostdanmi, rosa zo'r bolardi-da.

BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR (Моносемантические и полисемантические слова)

Слова могут употребляться в одном или нескольких значениях. К однозначным можно отнести: chumchiq (воробей).

Многозначные слова имеют **to'g'ri ma'no** (прямое) и **ko'chma ma'no** (косвенное) значения. К примеру,

O'rik gullabdi – Урюк расцвел.

Poytaxtimiz kundandun gullab yashnamoqda – Наша столица процветает изо дня в день.

В первом случае слово gullamoq употреблено в прямом, а во втором в косвенном значениях.

Способы переноса значения аналогичны с русским языком:

Metafora. Qaldirg'och – bahor elchisi (Ласточка – вестник весны). Sizlar litseyimizning ilk qaldirg'ochlari bo'lasiz (Вы первые ласточки нашего лицея).

Metonimiya. Do'kondan chiroyli kosalar sotib oldik (Мы купили красивые касушки). Bir kosa ayronni ichib oldim (Я выпил касушку айрана).

Sinekdoxa. Uning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q (Он мастер на все руки). Na'ima qo'lini kesib olibdi (Наима порезала палец).

Vazifadoshlik. Navoiy tun bo'yi qalamini qo'ldan qo'ymadi. (Всю ночь Навои не поставил свой карандаш(перо). Rasmni yumshoq qalam bilan chizing (Рисуйте мягким карандашом).

Во всех парах выделенные слова употреблены: в первом предложении в прямом; во втором предложении в косвенном значениях.

1-topshiriq. Ko'z, kun, yuz, temir, shirin so'zlarini bir necha ma'noda qo'llab gap tuzing.

2-topshiriq. O'qing va belgilangan so'zlarning qaysi ma'noda ekanini ayting. Ular ishtirokida gap tuzing.

Baliq **boshidan**, ko'cha **boshidan**. Umid **uchquni**, uchqun sachradi. Ko'ylakning **etagi**, tog' **etagi**. **Oltin** soat, oltin kuz. **Kuz** boshida, umrimiz kuzi.

Lug'at ishi

yurak tafti	сердечное тепло
yagona	единый
muqaddas	священный
jonajon	родной
beg'ubor	прозрачный
qo'msayman	тоскую

3-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini aytib bering.

VATAN

Vatan. Bir qarashda oddiy bir so'z. Lekin bu so'z yurak tafti bilan yo'g'irilgan. Shu so'zni dilida armon qilib o'tganlar ozmi!

Biz kindik qonimiz to'kilgan joyni Vatan deymiz. Barchamizning yagona va ulkan Vatanimiz - O'zbekiston. Biroq har birimiz uchun eng muqaddas bo'lgan shahar yo qishloq borki, u bizning jonajon makonimizdir.

Vatan. Shu so'zni eshitsam, ko'zim oldiga eshigimiz yonidagi bobom ekib qoldirgan, yuz yoshdan oshgan chinor keladi. U men uchun Vatan ramziga aylangan. Axir mening bolaligim – hayotimning eng beg'ubor davri shu chinor ostida o'tdi...

Qishlog'imiz o'rtasidan oqib o'tgan soy, uning bo'yidagi katta bog' – qayerda bo'lsam ham, ularni qo'msayman. Qishlog'im bag'riga talpinaman.

O'qishni tamomlab, shu qishlog'imni yanada obod qilish niyatida mehnat qilmoqchiman. Zero, har bir qishloq, har bir shahar obod bo'lar ekan, aziz O'zbekistonimiz yanada chiroy ochaveradi.

4-topshiriq. Matndagi ko'p ma'noli so'zlarni ko'chirib yozing. Ma'nolarini sharhlab bering.

5-topshiriq. O'z shahringiz (qishlog'ingiz) haqida gapirib bering.

9-mashg'ulot

Suhbat

- Sodiq, sizlar hovlida yashaysizmi, yoki ko'p qavatli uydami?
- Biz ko'p qavatli uyda turamiz.
- Uyingiz necha qavatli?
- Uyimiz o'n olti qavatli.
- Voy-bo'. Sizning xonadoningiz nechanchi qavatda?
- Xonadonimiz oltinchi qavatda.
- Xonadoningiz kattami?
- Unchalik emas, atigi ikki xona. Lekin u menga juda yoqadi. Xonalari katta-katta, yorug'. Hamma qulayliklar bor.

SO‘ZLARNING SHAKL VA MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI

(Типы слов по форме и значению)

В узбекском языке так же как и в русском различают синонимы, антонимы, омонимы и паронимы.

Ma’nodosh so‘zlar (синонимы) – близкие по значению слова: yuz, bet, aft, bashara, turq, ogaz, guxsor (лицо), kulmoq, jilmaymoq, tirjaymoq (смеяться).

Qarama-qarsi ma’noli so‘zlar (антонимы) слова с противоположным значением: katta – kichik (большой – маленький), chigroyli – xunuk (красивый – не красивый).

Shakldosh so‘zlar (омонимы) – слова, совпавшие по форме: kul (улыбнись), kul (пепел), ot (имя), ot (лошадь), ot (брось, кинь).

Paronimlar (паронимы) – слова, различающиеся одним звуком или буквой: asir (пленник) – asr (век), tana (тело) – ta’na (упрек).

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarning sinonim va antonimlarini toping.

Obod, ko‘rkam, ulkan, mitti, mo‘l.

2-topshiriq. Antonimlarni topib, ko‘chiring. Yod oling.

1. Kechalari biroz sovuq, lekin kunduzi havo anchagina isiyapti.
2. Kengashganga keng dunyo, talashganga tor dunyo. 3. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib. 4. Yaxshilik ko‘zga ko‘rinmas, yomonlik ko‘mib qo‘yilmas. 5. Ko‘p gapdan oz bo‘lsa ham ish yaxshi.

3-topshiriq. Berilgan so‘zlardan omonimlarni ajrating va ular ishtirokida gap tuzing.

Bosh, oyoq, qo‘l, tok, soch, kul.

Lug‘at ishi

moddiy	материальный
ma’naviy	духовный, нравственный
maqanmoq	хвастаться

yodgor (lik)	памятник
ko'hna	древний
lol qoldirmoq	удивлять
tarixiy obida	исторический памятник

4-topshiriq. Matni o'qing. Uni to'ldiring.

O'ZBEKISTONNING TARIXIY SHAHARLARI

Vatanimizning moddiy, ma'naviy, yer osti boyliklari juda mo'l. Uning eng katta boyligi, albatta, mehnatkash xalqimizdir.

Yurtimizning yana bir ulkan boyligi borki, bunday boylik bilan hamma mamlakatlar aholisi ham maqtana olmaydi. Bu buyuk ajdodlarimizdan yodgor qadimiy shaharlarimizdir.

Samarqand, Buxoro, Xiva – bu shaharlarni ko'rishni orzu qilmagan sayyoh bormikan! 2000–2500 yildan ortiqroq tarixga ega bo'lgan bu ko'hna shaharlar dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda. Samarqanddagi Registon maydoni, Buxoroning Labihovuzi, Xivadagi Ichanqal'a doimo sayyohlar e'tiborini tortib turadi. Bu osori atiqalarni ko'rish istagida yurtimizga har yili minglab sayyohlar tashrif buyuradi.

Yurtimizda bunday tarixiy obidalarni asrash, ta'mirlashga alohida e'tibor qaratiladi. Xalqimiz bu yodgorliklar bilan haqli ravishda faxrlanadi.

5-topshiriq. Shahringizda tarixiy obidalar bormi? Ular haqida aytib bering.

TANISHUV VA TARJIMAI HOL

10-mashg'ulot

- Salom. Mening ismim Azizbek.
- Salom. Mening ismim Ahror.
- Sen ham shu litseyda o'qiysanmi?
- Ha, 11-sinfda o'qiyman. O'zing-chi?
- Men 10-sinfda o'qiyman.
- Oldin qaysi maktabda o'qiganсан?
- Men Qibraydagi 1-o'rta maktabda o'qiganман.
- O'zingchi?

- Men 25-o' rta maktabda o'qiganman.
- U qayerda joylashgan?
- Maktabimiz Agrar universiteti yonida joylashgan.

IBORA (ФРАЗЕОЛОГИЗМ)

IBORA (фразеологизм) – устойчивое сочетание слов, употребляемое чаще в переносном значении. Фразеологизмы по смыслу равны одному слову: qo'yu og'zidan cho'p olmaydigan (безвредный, безобидный), adi-badi aytishmoq (пререкаться).

Они не делятся на члены предложения, выполняют одну функцию, являясь одним членом предложения.

Фразеологизмы так же могут быть синонимами: Boshi ko'kka yetmoq, do'ppisini osmonga otmoq – (радоваться); hafsalasi pir bo'lmoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq – (обидеться, расстроиться).

Антонимами: oq ko'ngil – (добрый); bag'ritosh – (злой); yerga ursa ko'kka sakraydi – (озорной); suvga tushgan bo'lka nonday – (тихий).

Омонимами: boshiga ko'tarmoq – (уважать; шуметь).

1-topshiriq. Lug'atdan foydalanib, berilgan iboralarga sinonim so'zlarni va antonimlarini, agar bo'lsa, toping.

Suvga tushgan bo'lka nondek, ammamning buzog'i, tepa sochi tikka bo'lmoq, boshi osmonda, tarvuzi qo'ltig'idan tushgan.

2-topshiriq. Iboralarning ruscha muqobilini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sanamay sakkiz deydigan, chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan, yulduzni benarvon uradigan, yerga ursa ko'kka sakramoq.

Lug'at ishi

... qoshidagi	при ...
joylashgan	расположен
dars berishadi	преподают
yaratilgan	создан (-а, -о, -ы)

ko‘plab	много, множество
o‘qishga kirmoqshiman	хочу поступить (на учебу)
puxta	прочный, прочно
Intilaman	стараюсь, стремлюсь

3-topshiriq. Yangi so‘zlar bilan birikmalar tuzing va yozing. Ularni eslab qoling.

4-topshiriq. Matinni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

MEN AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHISIMAN

Mening ismim Azizbek. Men Nizomiy nomidagi TDPU (Toshkent Davlat Pedagogika universiteti) qoshidagi akademik Litseyning 11-«a» sinfida o‘qiyman. Litseyimiz Yakkasaroy tumani Yusuf xos Hojib ko‘chasi 103-uyda joylashgan.

Litseyimizda universitetda ko‘p yillar mehnat qilgan tajribali o‘qituvchilar, dotsentlar, professorlar dars berishadi. Ular bizga fan sirlarini egallashda katta yordam bermoqdalar.

Litseyda o‘qishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Kutubxona, sport zali. Keng va yorug‘ xonalar bizning ixtiyorimizda. Ko‘plab fan to‘garaklari ishlab turibdi.

Men kelajakda Nizomiy nomidagi TDPU ga o‘qishga kirmoqchiman. Orzuim - yaxshi oqituvchi bo‘lish. Shuning uchun ham puxta bilim olishga intilyapman.

5-topshiriq. Tanishuv vaziyatiga oid dialoglar tuzing. Bunda quyidagi so‘z va birikmalardan foydalaning.

Ruxsat eting, sizga ... ni tanishtirmoqchiman, sizlar tanishmisiz?, bu mening ... , tanishganimdan xursandman.

11-mashg‘ulot Suhbat

- Akmal, sen bu qizni taniyanmi?
- Ha, taniyman. U 10-«B» sinifda o‘qiydi.
- Iltimos, meni u bilan tanishtirib qo‘y.
- Mayli. Saida seni bir daqiqaga mumkinmi?
- Salom, Akmal. Menda ishing bormi?

– Salom, Saida. Tanish, bu mening do‘stim Xurshid. – Adashmasam, u yosh biologlar to‘garagiga qatnashadi. – Ha, topding. U tibbiyot institutiga kirmoqchi. Shuning uchun biologiyani puxta o‘rganmoqchi.

SO‘Z TARKIBI (Состав слова)

Морфема – значимая часть слова. Различают корневую и аффиксальную морфему.

O‘zak (корень) выражает основное лексическое значение слова и не имеет в своем составе других морфем. В отличие от русского, в узбекском языке корень может употребляться самостоятельно во всех случаях.

Qo‘shimcha. Аффиксы выполняют различные функции: **so‘z yasash** – словообразующую и **shakl yasash** – формообразующую.

Словообразующие аффиксы меняют лексическое значение слова:

Ish – (работа)

Ish -**chi** – (рабочий)

Ish -**la** – (работай)

Ish -**siz** – (безработный)

Формообразующие аффиксы меняют лишь форму слова:

Ish – (единственное число, именительный падеж)

Ish -**lar** – (множественное число, именительный падеж)

Ish -**ga** – (единственное число, дательный падеж)

1-topshiriq. So‘zlarni tarkibi bo‘yicha tahlil qiling.

Tog‘olcha, o‘qituvchi, tengsiz, o‘zbekcha, gullagan, terakzor, bog‘bon, kerakli, muzlatgich.

2-topshiriq. Berilganlardan yangi so‘zlar yasang.

Gul, tog‘, odob, shovqin, mehnat, suv, tuz, yaxshi.

3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Oilangiz necha kishidan iborat? 2. Dadangiz qayerda va kim

boʻlib ishlaydilar? Oyingiz-chi? 3. Oilada nechta farzandsiz? 4. Koʻp qavatli uyda turasizmi yoki hovlida? 5. Akangiz (opangiz) nima bilan shugʻullanadi? Ukangizchi?

Lugʻat ishi

oʻqish	1) учеба; 2) учиться
10 «А» sinfidagi	из 10-го «А» класса
yoʻzilmogchiman	хочу записаться
tanishtirib qoʻyaman	познакомлю
maktabdagi sinifdoshim	школьная одноклассница
tanishganimdan xursandman	рад(а) познакомиться
doʻstlashib ketmoq	подружиться

4-topshiriq. Rollarga boʻlib oʻqing.

TANISHUV

Zulfiya: – Salom, Karim. Oʻqishlaring yaxshimi?

Karim: – Salom. Rahmat. Yomon emas.

Zulfiya: – Sen 10-«А» sinifidagi Oydinni taniysanmi?

Karim: – Ha, taniyman. U bilan maktabda bir sinifda oʻqiganmiz. Nega soʻrayapsan?

Zulfiya: – U shaxmatni yaxshi oʻynar ekan. Men ham toʻgarakka yoʻzilmogchiman.

Karim: – Ana, Oydinning oʻzi ham kelyapti. Hozir sizlarni tanishtirib qoʻyaman.

Oydin: – Salom, Karim. Ishlar qalay?

Karim: – Salom. Hozir sen haqingda gaplashayotgan edik.

Tanishinglar. Bu – Zulfiya, mening sinfdoshim.

Bu esa Oydin, maktabdagi sinfdoshim.

Zulfiya: – Salom. Tanishganimdan xursandman.

Oydin: – Salom. Men ham xursandman.

Karim: – Doʻstlashib ketasizlar, deb oylayman.

5-topshiriq. Yangi soʻzlar bilan birikmalar tuzing.

6-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Вчера мы с друзьями были в музее Тимуридов. 2. Я люблю бывать в парке имени Бабур. 3. Вахид учится в педагогическом колледже в Ташкенте. 4. Государственная библиотека имени Навои расположена на площади Мустакиллик.

12-mashg‘ulot Suhbat

- Sen qayerda o‘qiysan?
- Men Mirzo Ulug‘bek nomidagi sanoat kollejida o‘qiyman.
- U qayerda joylashgan?
- Kollejimiz TTZ dahasida joylashgan.
- Boy-bo‘! Uzoq-ku. Qatnashga qiynalmaysanmi?
- Yo‘q. Buyuk ipak yo‘li metro bekatigacha boraman, u yog‘iga transport ko‘p. 24,-101-avtobus, 41,-135-yo‘nalishli taksi. Har holda qiynalmasdan borib kelyapman.

TARJIMAI HOL (Автобиография)

Автобиография – это документ, составляемый определенным лицом и отражающий его жизнь и деятельность. Документ составляется автором произвольно, но требуется наличие отдельных частей;

1. Наименование документа.
2. Текст:
 - Ф.И.О. автора:
 - дата и место рождения: национальность:
 - краткие сведения о родителях (Ф.И.О., место работы):
 - образование (где, какой вуз заканчивал, специальность по образованию):
 - виды трудовой деятельности:
 - последнее место работы и должность:
 - премии и поощрения:
 - участие в общественной работе:

- семейное положение и члены семьи:
паспортные данные:
домашний адрес, телефон.
3. Дата.
 4. Подпись.

Автобиография может оформляться на обычной бумаге, в отдельных случаях, т.е. при поступлении на учебу, на работу на специальных бланках. И все сведения приводятся в хронологическом порядке.

1-topshiriq. O‘qing, namunadan foydalanib, tarjimai holingizni yozing.

Namuna

TARJIMAI HOL

Men, Ahmedova Anvara Ahrorovna, 1968-yil 22-martda, Toshkent viloyati Zangiota tumanida tug‘ildim.

Otam, Ahmedov Ahror Usmonovich, 1945-yilda tug‘ilgan, nafaqaxo‘r.

Onam, Azizova E‘zozxon Soipovna, 1947-yilda tug‘ilgan, nafaqaxo‘r.

Men 1993-yilda Toshkent Qishloq xo‘jaligi institutini tamomlab, iqtisodchi ixtisosligini oldim.

O‘sha yildan beri «Qibray» shirkat xo‘jaligida iqtisodchi, bosh iqtisodchi bo‘lib ishlab kelyapman.

Oilaliman. Turmush o‘rtog‘im Ahmedov Akbarali Ahadovich «Qibray» shirkat xo‘jaligida hisobchi. Ikki nafar farzandimiz bor.

Uy manzilim: Toshkent viloyati Qibray tumani, O‘qituvchilar ko‘chasi, 31-uy 23-xonadon.

2-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Окончил Ташкентский Государственный институт физической культуры, проходил действительную военную службу, работает главным инженером на ГАО ТТЗ, удостоен звания «Заслуженный строитель Республики Узбекистан», назначен заместителем директора.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. ... - ... - yillarda mazkur zavodda bosh muhandis. 2. ... - yildan beri bo'lim boshlig'i. 3. ... bolalar bog'chasiga qatnaydi. 4. ... imtiyozli diplom bilan tamomlaganman. 5. ... ga ishga yuborildim.

4-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling, qo'shimchalarni aniqlab, turini ayting:

Ishchi, ishlar, ishsiz, kitobcha, o'zbekcha, kuldon.

5-topshiriq. Berilgan so'zlarga o'zingiz bilgan va mos keladigan qo'shimchalarni qo'shib, yangi so'zlar yasang. Suv, o't, ot, tosh.

6-topshiriq. So'z shakllarining ma'nosidagi farqni tushuntirib bering.

Akamlar, akalarim. Opanglar, opalaring.

Yodda tuting: В узбекском языке обычно аффиксы прибавляются к корню в следующем порядке: сначала словообразующие, затем формообразующие: ish-chi-lar-imiz

Иногда формообразующие аффиксы прибавляются перед словообразующими: yoz-uv-chi

Аффиксы в узбекском языке могут быть sodda (простые) и murakkab (сложные). Сравните:

o'quv-chi-lik, o'zbek-chilik to'p-lan (moq) ot-lan (moq)

MENING QIZIQISHLARIM VA MASHG'ULOTLARIM

13-mashg'ulot

Suhbat

- Darsdan keyin nima qilmoqchisan?
- Bugun chorshanba - masha'g'ulotlar kuni. Men stadiongacha boraman.

- Stadionga?
- Ha. Men futbol bilan shug'ullanaman. - Ko'pdan beri shug'ullanasanmi?
- Ha, uch yil bo'lyapti? Sen-chi? Sport bilan shug'ullanasanmi?
- Ha, kurash bilan yaqinda shahar musobaqalarida qatnashdim.
- 2-o'rinni egalladim.
- Tabriklayman.
- Rahmat.

SO'Z YASALISHI (Словообразование)

В узбекском языке наиболее эффективно используются следующие способы словообразования:

qo'shimcha qo'shib so'z yasash – аффиксация;

o'zaklarni qo'shib so'z yasash – композиция.

Аффиксация	Композиция
kul-don (пепельница)	ko'zoynak (очки)
chiroy-li (красивый)	toshbaqa (черепаха)
bel-lash (moq) (состязаться)	belbog' (пояс) qo'l
to'p-la (собирай)	qo'umoq (подписать)

В узбекском языке можно образовывать имена существительные, прилагательные, глагол и наречие. Другие части речи могут служить основой для словообразования, но сами они не образуются.

Более подробно образование частей речи будет рассматриваться позже, при изучении соответствующей части речи.

1-topshiriq. So'z yasalishining har bir usuliga beshtadan misol yozing.

2-topshiriq. Yangi so'zlarni yod oling.

Lugʻat ishi

xohlardim	хотел(а)
niyatim amalga oshdi	мое желание сбылось
mohir	умный
kitoblarga boy	богат(а) книгами
gavjum	многолюдно (ии)
ertangi	завтрашний
mutolaa qilmoq	читать
qatnashchi	участник, член
yaratilgan	1) создан 2) созданный

3-topshiriq. Matni oʻqing va gapirib berishga tayyorlaning.

BIZNING LITSEY

Men litseyda oʻqishni juda xohlardim. Mana niyatim amalga oshdi.

Men Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi Chilonzor akademik litseyiga oʻqishga kirdim.

Litseyimizda mohir oʻqituvchilar juda koʻp. Ular bizga fan sirlarini oʻrgatishadi. Ayniqsa, matematika, fizika va kimyo darslari juda qiziq oʻtadi. Fizika va kimyo laboratoriyamiz zamonaviy jihozlar bilan taʼminlangan. U yerda turli tajribalar oʻtkazamiz.

Litseyimiz kutubxonasi kitoblarga boy. U yer doim oʻquvchilar bilan gavjum. Men ham darslardan keyin kutubxonaga borib, ertangi mashgʻulotlarga tayyorlanaman. Gazeta va jurnallar mutolaa qilaman.

Litseyimizda ovqatlanish, dam olish uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan.

Litseyimizda turli toʻgaraklar ishlab turibdi. Men radiotexnika toʻgaragi qatnashchisiman.

4-topshiriq. Matnga asoslanib oʻz litsey (kollej)ingiz haqida gapirib bering.

5-topshiriq. Maqollarni yod oling.

1. Ilmsiz bir yashar, ilimli ming yashar. 2. Til qilichdan oʻtkir.
3. Tilni bilgan, dilni biladi. 4. Koʻz yetmagan joyga soʻz yetadi.

6-topshiriq. Jumlalarni davom ettiring.

1. O‘zbekistonda yilning to‘rt faslida ham
2. Diyorimiz suvi zar,
3. Bobodehqonlarimiz bu yil
4. Vatanni sevgan kishi
5. Ona yurtim –

14-mashug‘ulot

Suhbat

- Sen o‘qishga qaysi transportda kelasan?
- Men 53-yonalishli taksida Oloy bozorigacha kelib, u yerdan 38, 57 yoki 67-avtobuslarga o‘tiranman.
- Yo‘ling ancha uzoq ekan-da! Men esa bittagina avtobusda 3 bekat yursam bo‘lgani.
- Hammadan zo‘ri Azimniki. U shundoq ko‘chaning narigi betida yashaydi. O‘qishga ham bemalol piyoda keladi.
- Ha, unga maza ekan.

SO‘ZLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI

(Разряды слов по структуре)

В узбекском языке слова по структуре различают :

1. **Sodda so‘zlar.** Простые слова.
2. **Qo‘shma so‘zlar.** Сложные слова.
3. **Juft so‘zlar.** Парные слова.
4. **Takroriy so‘zlar.** Повторные слова.

Простые слова состоят из одного корня. Например: tush – сон; ol – бери; tuz – соль; kitob – книга; Они могут быть **yasama** (производные, т.е. образованные путем аффиксации): ishla (работай), o‘yla (думай) и **tub** (непроизводные, состоящие лишь из корня) ish (работа), o‘y (мечта).

Сложные слова состоят из двух или более корней, например: belkurak – пояс; muzqaymoq – мороженое; oshqozon – желудок.

Парные слова образуются из двух различных слов, например: aka-uka – братья; nevara-chevara – внуки – правнуки; и имеют обобщенное значение. Они различаются тем, что их компоненты не могут употребляться отдельно: osh-ovqat (еда)

оба компонента употребляются самостоятельно; choу-роу (чай) один лишь компонент употребляется самостоятельно; adi-badi (пререкание) ни один компонент не употребляется самостоятельно.

Повторные слова чаще выражают стилистическое значение, усиливая признак: mayda-mayda, tez-tez и т.д.

1-topshiriq. Ajratilgan soʻzlarning tuzilishiga koʻra turini ayting.

1. Men **sinf**dosh doʻstlarimning **achchiq-chuchuk** gaplariga koʻp ham xafa boʻlmayman. 2. Biz **ota-bobolarimiz** qoldirgan merosni **asrab** – **avaylashimiz** lozim. 3. **Muzlatkichda** hamma narsa bor. 4. Bizning uyimiz **temir yoʻl** stansiyasiga yaqin joylashgan.

Lugʻat ishi

kichkinaligimdan	с малых лет
qiziqaman	увлекаюсь, интересуюсь
qiyin emas	не трудно (не трудный)
dars beradilar	преподает, ведет уроки
jihozlangan	оборудован
foydalanmoq	пользоваться
barchamiz	все мы
shogird	ученик
yangilik	новость, новизна
urf-odat	обычай

2-topshiriq. Yangi soʻzlarni matndan topib, oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birga koʻchiring va yod oling.

3-topshiriq. Savollarga javob yozing.

1. Qaysi litsey (kollej)da oʻqiysiz? 2. Qaysi fanlarni oʻrganasiz?
3. Sizga qaysi fanlar koʻproq yoqadi? 4. Kelajakda qaysi oily oʻquv yurtiga kirmoqchisiz?

4-topshiriq. Matni o‘qing. Savollar tuzib o‘zaro suhbatlashing.

SEVIMLI DARSIM

Men kichkinaligimdan o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqaman. Bolalar bog‘chasida o‘zbek guruhida tarbiyalanganim uchunmi, uni o‘rganish menga qiyin emas.

Litseyimizda o‘zbek tilidan Ozoda opa Yusufjonova dars beradilar. Ustozimiz o‘z ishlarini va, ayniqsa, biz, shogirdlarini juda yaxshi ko‘radilar. Har bitta darsda biror yangilik qiladilar, shuning uchun ham ularning darslarini qiziqib tinglaymiz. Ustozimiz bizga o‘zbek tilinigina emas, balki o‘zbek urf-odatlari, an‘analarini ham o‘rgatadilar. Darsda biz o‘zaro suhbatlashamiz, matnlarni o‘qib, rus tiliga tarjima qilamiz. Mashqlar ishlaymiz.

O‘zbek tili xonasi kompyuter bilan jihozlangan. Hammamiz undan foydalanishni bilamiz. Kompyuter yordamida til o‘rganish juda qulay. Shuning uchun ham o‘zbek tilidan barchamiz yaxshi va a‘lo baholar olamiz.

5-topshiriq. Sevgan faningiz haqida aytib bering.

6-topshiriq. Quyidagi sodda so‘zlardan juft so‘zlar yasang.

uzun	chuchuk
achchiq	tosh
tog‘	ona
ota	chechak
gul	qisqa

7-topshiriq. Quyidagi sodda, qo‘shma va juft so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Qop-qop, archazor, yurtdosh, yeryong‘oq, mehmondo‘stlik, to‘q sariq, bir yuz sakson yetti, bola-chaqa, asta-sekin.

15-mashg'ulot

Suhbat

– Kechirasiz. Litsey ma'muriyati qayerda joylashgan?

– Litseyimiz ma'muriyati qo'shni binoning 2-qavatida joylashgan.

Siz qaysi masalada kelgan edingiz?

– Men o'g'limni o'qishga joylashtirish maqsadida, kerakli ma'lumotlarni olmoqchi edim.

– Unday bolsa, siz koridor bo'ylab to'g'ri boravering. 17-xonada konsultativ markaz joylashgan. O'zingizni qiziqtirgan barcha savollarga shu joyda javob olasiz.

– Rahmat.

– Marhamat. Yaxshi boring.

MORFOLOGIYA

Морфология изучает части речи и их грамматические категории.

В узбекском языке шесть самостоятельных частей речи: ot (существительное), sifat (прилагательное), son (числительное), olmosh (местоимение), fe'l (глагол), ravish (наречие); три служебных частей речи: ko'takchi (послелог), bog'lovchi (союз), yuklama (частица).

Кроме того в узбекском языке три особых групп слов: undovlar (междометия), modal so'zlar (модальные слова), taqlidiy so'zlar (подражательные слова).

OT

(Имена существительные)

Имена существительные называют лицо, предмет, место или время. Они отвечают на вопросы: kim? (кто?), nima? (что?), qayer? (какое место?).

Atoqli otlar – имена собственные: Andijon, Zahro, Marsel.

Turdosh otlar – имена нарицательные: kotib, deraza, qalamdon.

Mavhum otlar – (абстрактные имена существительные); birdamlik (единство), muvaffaqiyat (успех), omad (удача) и т.д.

Jamlovchi otlar – (собираательные имена существительные): xalq (народ), qo'shin (войско), to'da (шайка, стадо) и т.д.

1-topshiriq. Mavhum otlarni ajratib yozing, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Terak, nomus, bolta, vijdon, goʻzallik, buyum, bolgʻa, sevinch, gulzor, bogʻbon, rostgoʻylik.

2-topshiriq. Atoqli otlarni bir ustunga, turdosh otlarni ikkinchi ustunga yozing. Istagan beshta gapingizni tarjimasi bilan yozing.

1. Madina hozirgina yetib keldi. 2. Kengash aʼzolari bu taklifni qoʻllab-quvvatladilar. 3. Mashgʻulotlardan keyin hammamiz charchab qolamiz. 4. Metro bizning uyimizgacha 15 minutda olib boradi.

5. Saida Gollandiya, Avstriya va Singapur mamlakatlarida ishlagan.

6. Yosh navoiyxonlar toʻgaragining navbatdagi yigʻilishi ertaga anjumanlar zalida oʻtkaziladi.

Lugʻat ishi

uygʻonmoq	просыпаться
badantarbiya	зарядка
nonushta	завтрак
yoʻl olaman	отправляюсь (в дорогу)
odatda	обычно
suv sporti saroyi	дворец водного спорта
shugʻullanmoq	заниматься
boshqa kunlari	в другие дни
yigʻilmoq	собираться (вместе)
uxlagani yotmoq	ложиться спать

3-topshiriq. Yangi soʻzlar bilan birikmalar tuzib daftaringizga yozing.

4-topshiriq. Oʻqing. Shu asosda oʻz ish kuningiz haqida aytib bering.

MENING ISH KUNIM

Men har kuni soat 7.00 da uygʻonaman. Oʻnimdan turib, badantarbiya qilaman, yuvinaman. Nonushta qilib boʻlgach, 7.40 larda oʻqishga yoʻl olaman. Litseyimizda darslar 8.30 da boshlanadi. Men odatda, soat 8.20 larda yetib kelaman.

Har kuni 5–6 soatdan o‘qiyimiz. 4-soatdan keyin katta tanaffus. Shu paytda biz ovqatlanamiz.

Mashg‘ulotlar 13.30 da tugaydi. Men uyga soat 14.10 larda kelaman. Biroz dam olgach, darslarimni tayyorlayman. Keyin uy ishlariga yordamlashaman. Dushanba, chorshanba, juma kunlari suv sporti saroyiga boraman. Men suzish bilan shug‘ullanaman. Boshqa kunlari uy ishlarida oyimga yordamlashaman. Odatda, biz soat 20.30 da kechki ovqatga yig‘ilamiz. Keyin biroz televizor ko‘rib, soat 22.00 da uxlagani yotaman.

5-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Обычно домой я возвращаюсь очень поздно. 2. Мои друзья занимаются различными видами спорта. 3. Когда я учился в институте, мой старший брат служил в армии. 4. По вечерам мы все собираемся у телевизора. 5. Моя мама любит гвоздики. 6. В школе у меня очень много хороших друзей.

16-mashg‘ulot

Suhbat

- Litseyingiz qayerda joylashgan?
- Litseyimiz Qibray tumanida joylashgan.
- Unga qanday borsa bo‘ladi.
- Litseyimizga 115-avtobus, 53-yo‘nalishli taksida borsa bo‘ladi. Yana 63-83-96-avtobuslarning Agrar universiteti bekatigacha borish mumkin. Keyin biroz piyoda yurish kerak bo‘ladi.
- O‘qishga qatnashga qiynalmaysizmi?
- Yoq. Transport yaxshi yuradi. Bemalol borib kelish mumkin.

EGALIK QO‘SHIMCHALARI

(Аффиксы принадлежности)

Аффиксы принадлежности указывают на принадлежность предмета одному из трех лиц и прибавляются к существительным следующим образом:

Birlik

1-shaxs oila – m (моя семья)
2-shaxs oila – ng (твоя семья)
3-shaxs oila – si (его семья)
1-shaxs do‘st – im (мой друг)
2-shaxs do‘st – ing (твой друг)
3-shaxs do‘st – i (его друг)

Ko‘plik

oila – miz (наша семья)
oila – ngiz (ваша семья)
oila – si (их семья)
do‘st – imiz (наши друзья)
do‘st – ingiz (ваши друзья)
do‘st – i (их друзья)

Yodda tuting: с прибавлением аффиксов принадлежности в корне слов происходят следующие изменения:

В словах: o‘rin (место), qogin (живот), bo‘yin (шея), bo‘g‘iz (гортань), og‘iz (рот), burun (нос), shahar, singil, ko‘ngil (душа) гласная во втором слогe выпадает: bo‘g‘zim, shahri, singling.

Звуки q и k в конце многосложных слов переходят на g‘ и g: kerak – keragi (yo‘q) (нет необходимости), qishloq – qishlog‘i.

Исключение составляют такие слова как: ishtirok (участие), idrok (разум), peshtoq (фасад), ishtiyoq (страсть).

Иногда во множественном числе в 1–2 лицах аффикс принадлежности может быть пропущен. В этом случае обязательно употребляют соответствующие личные местоимения: bizning mahalla, sizning hovli.

1-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Моя душа, его живот, их рабочее место, его участие, твой гороскоп, моя гортань, моя книга, мои подруги, мое желание, твоя мечта.

2-topshiriq. O‘qing. Tagiga chizilgan so‘zlarning qaysi shaxsda ekanini ayting.

1. Yurtimiz kundan-kunga chiroy oshmoqda. 2. Ona yurtning omon bo‘lsa, **rangu ro‘ying** somon bo‘lmas. 3. Bizning ko‘chada yaxshi odamlar yashashadi. 4. **Mahallamiz** odamlari juda ahil va inoq yashaydilar. 5. Bizning ozod **Vatanda** qish ham qiladi xanda (Uyg‘un).

3-topshiriq. Soʻz shakllarini rus tiliga tarjima qiling.

Eshigim, chirogʻim, qadamlari, oyimlarning, sinfingiz, qoʻllarim, tozaligi, charchogʻi.

Lugʻat ishi

sobiq	бывший
hunar bilim yurti	училище
hovli	двор
toʻrt qavatli	четырёхэтажное
ustaxona	мастерская
turli	разный, различный
muhayyo qilingan	создан(а)

4-topshiriq. Yangi soʻzlarni lugʻat daftaringizga yozib qoʻying.

5-topshiriq. Matnni oʻqing.

BIZNING KOLLEJIMIZ

Men Qibray Energetika kollejida oʻqiyman. Kollejimiz sobiq hunar bilim yurti bazasida 1998-yilda ochilgan.

Kollejimiz hovlisi katta. U yerga koʻplab chiroyli gullar, daraxtlar ekilgan. Hovli doim toza, ozoda. Yozning issiq kunlari salqingina boʻlib turadi.

Oʻquv binomiz toʻrt qavatli. 1-qavatda 2 ta ustaxona joylashgan. 2-qavatda esa matematika, fizika, kimyo xonalari va laboratoriyalari joylashgan. 3- va 4-qavatlarda ham turli fan kabinetlari joylashgan.

Kollej hovlisidagi 2 qavatli binoning 1-qavatida sport, 2-qavatida anjumanlar zali joylashgan.

Oshxona va kutubxona 1 qavatli binolarda joylashgan. Umuman, kollejimizda oʻqish va yashash uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan.

6-topshiriq. Matn yuzasidan savol-javob uyushtiring.

17-mashg'ulot Suhbat

- Oilada necha kishisiz?
- Oilada besh kishimiz. Bular: dadam, oyim, men, ukam va singlim.
- Dadang ishlaydilarmi?
- Ha, dadam maktabda matematikadan dars beradilar.
- Oying-chi?
- Oyim uy bekasilar.
- Singling necha yoshda?
- U sakkiz yoshda, ukam esa o'n birda.
- Ular qaysi maktabda o'qishadi?
- Ular 100-maktabda o'qishadi. Ukam 4-sinfda, singlim esa ikkinchida.

OTLARDA TURLANISH (Склонение имен существительных)

Склонение - это изменение слова по падежам. В узбекском языке 6 падежей:

1. Bosh kelishik (Начальный падеж)
2. Qaratqich kelishigi (Притяжательный падеж)
3. Tushum kelishigi (Винительный падеж)
4. Jo'nalish kelishigi (Направительный падеж)
5. O'rin-payt kelishigi (Местно-временной падеж)
6. Chiqish kelishigi (Исходный падеж)

BOSH KELISHIK (Начальный падеж)

Начальный падеж является начальной формой имен существительных. Слова в этом падеже отвечают на вопросы kim? (кто?), nima? (что?), qayer? (какое место?). Этот падеж не имеет специального окончания: mo'jiza (чудо), tarix (история), yechim (решение) и т.д.

В предложении слова в форме данного падежа могут являться:

Ega (подлежащим): **O'zbekiston** – Vatanim manim.
Kesim (сказуемым): Navro'z – yangilanish **bayrami**.
Aniqlovchi (определением): **Oltin** kuzni sevaman.
Undalma (обращением): **Bahor**, ketma mening bog'imdan.

1-topshiriq. Topishmoqlarni o'qing va javobini toping.
Otlarning gapdagi vazifasini ayting.

1. Na boshi bor, na tani,
2. Na joni, na vatani,
3. Eshitsa biror ovoz, javob qaytarar shovvoz.
4. Tusi oppoq paxta emas,
5. G'irchillaydi taxta emas.
6. Tikuvchiga o'rtoq o'zi,
7. Bittagina jajji ko'zi.

2-topshiriq. Atoqli otlardan turdosh otlar yasang.

Mars, Pushkin, Temur, Chimkent, Michurin, Yangiobod.

Lug'at ishi

bekorchilik	бездельничество
jiddiy	серьезно, серьезный
qadr (iyat)	цена (ценность)
kuyunib	переживая, с трепетом
zoye ketkazmayapman	не трачу зря
naqd	наличные
mashg'ul edim	был занят
o'ylanib qoldim	задумался
... talab qilsa ham	хотя и требует...

3-topshiriq. Yangi so'zlarni lug'at daftaringizga yozib qo'ying.

4-topshiriq. Matnni o‘qing.

HAR KUNING SAMARALI BO‘LSIN

Avvallari darslardan bo‘sh paytim ko‘proq bekorchilik bilan o‘tardi. Ertadan kechgacha o‘yin bilan mashg‘ul edim. Biror ish bilan jiddiy shug‘ullanmaganman.

Murabbiylarim bunga befarq bo‘lishmadi. Sinf rahbarimiz G‘afura opa bir necha bor vaqtning qadri haqida kuyunib gapirganlari, meni biror mashg‘ulotni tanlashga chaqirganlaridan keyin o‘ylanib qoldim...

Hozir bir daqiqa vaqtni ham zoye ketkazmayapman. Darslarga puxta tayyorlanish ko‘p vaqt talab qilsa ham, sport bilan shug‘ullanishga vaqt topaman. Har kunim ertadan kechgacha rejalangan. Litsey, stadion, darslar, mashg‘ulotlar...

Vaqtning ketdi - naqding ketdi. O‘zbek xalqining bu ajoyib maqolining ma‘nosini endi anglab yetmoqdaman.

Sen-chi, do‘stim? Sen vaqtning qadrini bilasanmi?

5-topshiriq. Matn yuzasidan savol-javob uyushtiring.

SEVIMLI GAZETAM (JURNALIM)

18-mashg‘ulot

Suhbat

- Sen bo‘sh vaqtingni qanday o‘takazasan?
- Mening bo‘sh vaqtim juda kam. Biroq undan unumli foydalanishga harakat qilaman. Men kitob o‘qishni yaxshi ko‘raman.
- Qanday kitoblarni sevib o‘qiysan?
- Men tarixiy kitoblarni yaxshi ko‘raman.
- Hozir qaysi kitobni o‘qiyapsan?
- Hozir Pirimqul Qodirovning «YulduzU tunlar» romanini o‘qiyapman. U mashhur sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida.
- Qiziqarli bo‘lsa kerak, o‘qib bo‘lgach menga ham berib turasan.
- Jonim bilan.

QARATQICH KELISHIGI (Притяжательный падеж)

Qaratqich kelishigi имеет окончание -ning. Слово в этом падеже указывает на принадлежность другого предмета, т.е. притягивает к себе идущее за ним слово:

Karimning lug'ati – словарь Карима

kitob varag'i – страница книги.

Слова в этом падеже отвечают на вопросы kimning? (чей? кого?), nimaning? (чего?), qayerning? (какого места?).

Слова в этом падеже всегда в предложении являются qaratqich aniqlovchi (притяжательным определением):

Kamolaning dadasi – adabiyot o'qituvchisi.

Отец Камолы – учитель литературы.

Притяжательный падеж может быть **belgili** (оформленный) и **belgisiz** (неоформленный).

Неоформленный притяжательный падеж употребляется в следующих случаях:

1. Когда принадлежность носит общий характер:

maktab hovlisi - двор школы (школьный двор), korxonahabari – руководитель предприятия, maktab oshxonasi – школьная столовая и т.д.

2. При обозначении временных отношений: Toshkent bahori – весна Ташкента, bahor tongi - утро весны (весеннее утро), tong shamoli – утренний ветерок.

3. В абстрактных именах существительных: burch hissi – чувство долга, vijdon amri – веление совести, birdamlik tuyg'usi – чувство солидарности (единства).

4. Если слово в притяжательном падеже указывает на вид (сорт) предмета:

olma daraxti – яблоня

olcha daraxti – вишневое дерево

gilos daraxti – черешня

qo'y go'shti – баранина

mol go'shti – говядина

cho'chqa go'shti – свинина

5. Если слова в этом падеже идут подряд, тогда оформляется последний или ни один не оформляется: Qibray moliya-

iqtisodiyot kolleji o'quvchisi (учащийся Кибрайского фининсово-экономического колледжа).

Если слово в притяжательном падеже и слово, связанное с ним находятся в дистантном отношении, (т.е. между ними идет другое), то слово в притяжательном падеже оформляется обязательно:

Shahar bog'lari (парки города) – Shaharning so'lim bog'lari (красивые парки города).

1-topshiriq. Ko'chiring. Belgilangan so'zlarning qaysi kelishuk-da ekanini aniqlang.

1. **Ajdodlar** mardona ruhi senga yor. (A. Oripov) 2. **O'zbekiston** – ulkan imkoniyatlar mamlakati. 3. **Otning** o'limi – itning bayrami. 4. **Shaharning** so'lim bog'lari kishi diliga sokinlik baxsh etadi.

2-topshiriq. So'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qiling.

Школьная мастерская, ученическая тетрадь, народная академия, директор школы, водитель трамвая, поваренная соль, книжная полка, детский коллектив.

Lug'at ishi

mashhur	знаменитый, известный
yaxshi fazilatlar	хорошие качества
minnatdorman	(я) благодарен
chindan ham	и в правду
yaxshilikka	призывает к добру
sarguzasht	приключение
bemalol	без труда, легко
yoqib qolsa	если понравится
qayta-qayta	вновь-вновь

4-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

KITOBLAR – JONU DILIM

Mashhur kishilardan biri «O'zimdagi barcha yaxshi fazilatlar uchun kitobdan minnatdorman», – degan edi.

Chindan ham, kitoblar insonni yaxshilikka boshlaydi. Men ham kitobni juda yaxshi ko'raman. Kichkinaligimda ertaklarni sevib

o'qirdim. Ularda xalq donoligi aks etgan. «Ur to'qmoq», «Uch og'agini botirlar» kabi o'zbek ertaklarini ham o'qiganman.

Hozir ko'proq sarguzashtli hikoya va qissalarni sevib o'qiyman. Men o'zbek tilida ham bemalol o'qiyman. Men o'zbek tilida ham bemalol o'qiyman. Hozir Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» kitobini ikkinchi marta o'qiyapman. O'zi odatim shunaqa: kitob yoqib qolsa, qayta-qayta o'qiyveraman.

Siz-chi, siz ham kitobni sevasizmi?

4-topshiriq. O'zbek tiliga yozma tarjima qiling.

Учитель: Собир, скажи-ка, кто был отцом Карла XII?

Собир: Карл XI.

Учитель: Правильно. А отец Людовика VII?

Собир: Людовик VI.

Учитель: Правильно. А отец Петра I.

Собир: Это же так просто, Петр 0.

19-mashg'ulot

Suhbat

- Sen o'qishga har kuni soat nechada kelasan?
- Men soat 8.20 larda o'qishga kelaman.
- Darslar soat nechada boshlanadi?
- Darslarimiz soat 8.30 da boshlanadi.
- Har kuni necha soat o'qiysiz?
- Har kuni 6 soatdan o'qiymiz.
- Qaysi paytda tushlik qilaisiz?
- Soat 11.40 da katta tanaffus. Shu payt biz ovqatlanamiz.
- Uyga qaysi paytda borasan?
- Har doim har xil. Ko'proq soat 14.30–15.00 larda uyda bo'laman.

Lug'at ishi

yoqadi

shoh

faoliyat

sadoqatli

irodali

нравится

король

деятельность

преданный

волевой

undan o‘rganish kerak
unutaman
albatta

у него нужно учиться
забываю
непрерменно, конечно

1-topshiriq. Yangi so‘zlarni matndan topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

2-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

SEVIMLI KITOBIM

Mashhurlardan biri «O‘zimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnatdorman», degan ekan.

Men ham kitob o‘qishni yaxshi ko‘raman. Tarixiy romanlarni o‘qish menga yoqadi. Ulardan buyuk shaxslar hayoti haqida bilib olaman.

Men o‘zbek tilini yaxshi bilaman. Shuning uchun o‘zbek tilida ham kitoblar o‘qiyman. Hozir men Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanini o‘qiyapman. Bu kitob menga juda yoqadi. Unda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati ancha keng yoritib berilgan. Menga, ayniqsa, uning sadoqatli va irodali ekani yoqadi. Vatanni sevishni undan o‘rganish kerak. Kitobni qo‘limga olsam, hamma narsani unutaman. Uni qo‘ldan qoygim kelmaydi. Chunki u juda chiroyli yozilgan. Uning davomi ham bor – «Avlodlar dovoni». Men bu kitobni ham albatta o‘qib chiqaman.

TUSHUM KELISHIGI

(Винительный падеж)

Слова в винительном падеже имеют окончание –ni, отвечают на вопросы kimni? (кого), nimanı (что?), qayerni? (какое места?) и указывают лицо, предмет, на который непосредственно переходит действие: she‘mi yod oldim (я выучил стихотворение), matnni tarjima qildim (я перевел текст).

Винительный падеж может быть оформленным и неоформленным: – kitobni o‘qimoq – kitob o‘qimoq

Неоформленный винительный падеж употребляется в основном когда означает однородные предметы. И особо подчеркивать их нет необходимости:

Murotali qazib qoʻygan chuqurlarga koʻchat oʻtqazardi. (Sh. Rashidov) – Муротали сажал сажены.

Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi. (Maqol) – Один роет арык, тысяча людей пьют из него.

Слова в винительном падеже в поэзии могут иметь аффикс – п: Har fasl oʻz ishin qilsin.

Qishboy qishligin qilsin. (Q. Muhammadiy).

Слово в винительном падеже всегда в предложении является прямым дополнением.

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni oʻz daftaringizga koʻchirib yozing, belgilangan soʻzlarning qaysi kelishik shaklida ekanini aniqlang.

1. Yaxshisi, bu uchrashuvni bekor qilish kerak. 2. Bogʻda olma, oʻrik, shaftoli daraxtlari gulladi. 3. Oʻzbekiston hayvonot olami rang-barang. 4. Dadam mashina moyi xarid qildilar. 5. Yer kurrasini boshin tangʻidik.

4-topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. На ужин мы ели плов. 2. Я люблю читать детективные романы. 3. Я хорошо знаю отца Карима. 4. Когда брат окончил институт, мне было всего пять лет. 5. Мы выпустили стенгазету к празднику Навруз.

5-topshiriq. Belgili va belgisiz tushum kelishigidagi soʻzlar ishtirokida soʻz birikmalari tuzing.

Namuna: qoʻshiq tinglamoq – qoʻshiqni sevmok.

20-mashgʻulot

Suhbat

Kutubxonada

– Kechirasiz, sizda biror kitobning bor yoki yoʻqligini qanday bilsa boʻladi?

– Bu juda oson. Katalogdan qaraysiz. Agar kitob bizda boʻlsa, u albatta, katalogga kiritiladi.

– Oʻzbek tilidagi kitoblar katalogi qayerda?

– U kiraverishda, oʻng tomonda. Marhamat, qarab koʻring.

– Mana, topdim, bor ekan.

– Qani, koʻraylik-chi. Bu juda qiziq kitob. Hozir olib kelaman.

– Rahmat.

JO'NALISH KELISHIGI (Направительный падеж)

Слова в направительном падеже обозначают предмет, на который направлено действие, место и время и отвечают на вопросы: *kimga?* (кому?), *nimaga?* (чему?), *qayerga?* (куда?), *qachonga?* (на какое время?). Например: *O'zbek tili kitobimni kursdoshimga berdim.* (Книгу по узбекскому языку я отдал своему однокурснику). *Misollarni avval sinf taxtasiga, so'ng daftarga yozdim.* (Примеры я написал сперва на доске, затем в тетради). *Darsdan keyin kutubxonaga boramiz* (После занятий пойдем в библиотеку). *Kafedra yig'ilishi chorshanbaga belgilandi* (Заседание кафедры назначено на среду).

Слова в этом падеже отвечающие: на вопросы *kimga?* *nimaga?* являются косвенным дополнением; на вопрос *qayerga?* обстоятельством места; на вопрос *qachonga?* обстоятельством времени.

1-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы с друзьями собрались в Самарканд. 2. Брат усиленно готовится к экзаменам. 3. В выходные мы ездили в горы. 4. Послезавтра Садык уезжает на учебу в США. 5. В Ташкент мы перехали, когда мне было пять лет.

2-topshiriq. Maqollarni yod oling. Ruscha muqobilini toping.

1. Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar.
2. Egilganga egil, kerilganga keril.
3. Maqtanganning uyiga bor, kekkeyganning to'yiga.
4. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak.

Lug'at ishi

yaqinda
tez orada
muxlis
rukn

недавно
скоро, здесь в короткий срок
поклонник, болельщик
рубрика

ma'qul keldi	понравился
shubhasiz	несомненно
ijodkor	творец
boshqotirma	головоломка
ko'makchi	помощник
butun sinfirmiz bilan	всем классом
obuna bo'ldik	подписались

3-topshiriq. Matinni o'qing va tarjima qiling.

SEVIMLI GAZETAM

Yaqinda kollejimizga yangi gazeta olib kelishdi. Uning nomi «Sayxun Ziyosi». U Sirdaryo viloyati Baxt shahrida nashr etiladi. Gazeta tez orada o'z muxlislarini topdi. Undagi qator ruknlar bizga ma'qul keldi. Ayniqsa, «Kompyuter olamiga sayohat» rukni menga yoqdi. U kompyuterni o'rganishda tengdoshlarimga yordam bo'lishi shubhasiz. Yana gazetada «She'riyat shaydolari» nomi bilan o'quvchi-yoshlar she'rlari nashr etiladi. Yosh ijodkorlarning she'rlari menga yoqadi. Gazetada bolalar chizib yuborgan rasmlar ham berib boriladi. Yana turli boshqotirmalar, latifalar beriladi. Gazeta yaxshi dam olishimizda bizga ko'makchi bo'lmoqda.

Shuning uchun ham biz unga butun sinfirmiz bilan obuna bo'ldik.

4-topshiriq. O'zingiz sevgan nashr haqida gapirib bering.

Yodda tuting: Если слово заканчивается на звук *k* то аффикс направительного падежа произносится и пишется в форме *-ka*: *kamalakka* (на радугу) *chelakka* (в ведро), *teralikka* (в горку).

Если слово заканчивается на звук *q* аффикс падежа пишется как *-qa*: *o'tloqqa* (на лужайку), *qishloqqa* (в село), *buloqqa* (на родник).

Примечание: данные орфографические правила относятся ко всем аффиксам, начинающимся на звук *g*, и словам заканчивающимся на звуки *k*, *q*.

ek+gan - *ekkan* (посеявший);

oq+gan - *oqqan* (текущий) и т.д.

TAVSIF VA TA'RIF

21-mashg'ulot

Suhbat

- Sen Olimni taniysanmi?
- Qaysi Olimni.
- 10-«A» sinfida o'qiydigan Olimni-da!
- Ha, nimaga edi?
- Shunchaki, u haqida ko'proq bilmog'chi edim.
- Olim yaxshi bola. O'qishlari ham faqat «a'lo». Sportchi. Karate bilan shug'ullanadi. Yaqinda viloyat birinchiligida g'olib chiqdi. O'zi kamgap, sal odamovi desa ham bo'ladi.

O'RIN - PAYT KELISHIGI

(Местно-временной падеж)

Данный падеж указывает на место и время совершения действия, местонахождение предмета или лица. Слова в этом падеже имеют аффикс -da и отвечают на вопросы: kimda? (у кого?, на ком?), nimada? (на чем?, в чем?), qaerda? (где?), qachon? (когда?): Например: Mening lug'at daftarim o'rtog'imda. (Мой словарь у моего друга). Shunaqa ko'ylakni o'qituvchimda ko'rdim. (Такую же сорочку видел на своем преподавателе). U doim trolleybusda o'qishga keladi. (Он на учебу всегда приезжает на троллейбусе). U oq ko'ylakda edi. (Он был в белой рубашке). Bahorda dala ishlari qizib ketadi. (Весной на полях кипит работа).

Слова в этом падеже могут являться в предложении косвенным дополнением (отвечая на вопросы: kimga?, nimada?), обстоятельством места (отвечая на вопрос qaerda?) и времени (отвечая на вопрос qachon?), а так же сказуемым.

1-topshiriq. Ko'chiring. O'rin-payt kelishigidagi so'zlarga qanday savol berilishini ayting. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Biz yozda ishlab chiqarish amaliyotida bo'lamiz. 2. Buyuk sarkarda, shoh va shoir Bobur 1483-yilda tug'ilgan. 3. Zahiriddin Muhammad Bobur 47 yoshida Hindistonning Agra shahrida vafot etgan. 4. Kechirasiz, bu yaqin orada do'kon bormi?

2-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. В нашей семье все любят играть в футбол. 2. На день рождения отец подарил мне часы. 3. В нашем колледже работают различные кружки и секции. 4. В махалле «Чинар» проживают около 500 семей.

Lug'at ishi

fazilat	качество
naql	поговорка, пословица
xushmuomala	вежливый
joy bermoq	уступать место
yo'lni kesib o'tish	переходить улицу
nutq odobi	культура речи
o'rganish	учить, изучать
amal qilish	соблюдать, предерживаться.
odamovi	замкнутый
izzattalab	честолюбивый

3-topshiriq. Matnni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

YAXSHI FAZILAT — INSON KO'RKI

Xalqda: «Bola aziz, odobi undan aziz», degan naql bor. U bejiz aytilmagan. Odobli bolalarnigina katta-yu kichik yaxshi ko`radi, hurmat qiladi.

Odobli bola eng avvalo, xushmuomala bo'ladi, o'zidan kattaga salom beradi. Jamoat transportida, boshqa yerlarda o'zidan kattalarga joy beradi. Biror kekxa odamga yukini olib borib berish, yo'lni kesib o'tishda yordamlashish ham odobning bir ko'rinishi.

Odobli kishi izzattalab ham bo'lmaydi. U katta-yu kichikka birdek yaxshi muomalada bo'ladi.

Odob salomdan boshlanadi. Uning ko'rinishlari ko'p. Suhbat, kiyinish, ovqatlanish, nutq odobi va boshqalar. Bularni o'rganish, bilish va amal qilish esa har kimning vazifasi bo'limog'i lozim.

4-topshiriq. Maqollarni izohlang.

1. Odobni beodobdan oʻrgan. 2. Odob oltindan qimmat. 3. Aql bilan odob – egizak. 4. Oʻzi yuzsizning soʻzi tuzsiz.

5-topshiriq. Sizingcha odobli bola qanday boʻlishi kerak? Shu haqida kichik hikoya tuzing.

22-mashgʻulot

Suhbat

– Eshitdingmi? «Quvnoqlar va zukkolar» tanlovida bizning litsey sizniki bilan bellasharkan.

– Unday boʻlsa, yaxshilab tayyorlaninglar. Bizda aqlli, quvnoq va topqir bolalar, qizlar juda koʻp.

– Bizda ham undaylar yoʻq emas. Mana, sinifdoshim Ahrorbek. Kulmaganni kuldiradi. Latifa aytsa ichaging uzilib qoladi. Umuman, qobiliyatli bolalar litseyimizda anchagina.

– Boʻlmasa, hammasini sahnada koʻrar ekanmiz-da

– Ha, albatta.

CHIQUISH KELISHIGI

(Исходный падеж)

Слова в исходном падеже указывают на место или время начала действия, а также на материал из чего сделан предмет. Образуются они с помощью аффикса -dan, отвечают на вопросы kimdan? (от кого?, у кого?), nimadan? (из чего? отчего?), qayerdan? (откуда?), qachondan? (с каких пор?). Например: Uyat oʻlimdan qattiq (Стыд страшнее смерти). Koʻzacha toza tuproqdan yasalgan (Кувшинчик изготовлен из чистого грунта). Men bu haqda oyimdan eshitdim (Об этом я узнал от матери). Bugun biznikiga qishloqdan mehmonlar kelishdi (Сегодня к нам приехали гости из деревни). Oʻqishlar dushanbadan boshlanadi (Учеба начинается с понедельника) и т.д.

Слова в этом падеже также могут являться дополнением, обстоятельством места и времени, сказуемым. Иногда в словах, корень или основа которых заканчивается на глухие согласные, аффикс слышится как -tan, но всегда пишется -dan. К примеру: Shu paytdan (с этого времени), uyatdan (со стыда, стыдьясь) и т.д.

1-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Chiqish kelishigidagi soʻzlarga savollar bering.

1. Mehnatdan kelsa boylik, turmush boʻlar chiroyli (maqol).
2. Biz sayohatdan juda mamnun boʻlib qaytdik. 3. Sevinchdan oʻzimni qoʻygani joy topmasdim. 4. Toshkentdan Samarqandgacha mashinada toʻrt soatlik yoʻl. 5. Men, odatda, uydan soat sakkizda chiqaman.

2-topshiriq. Berilgan maqollarning rus tilidagi muqobilini toping. Ularni yod oling.

1. Boshga balo tildan. 2. Yaxshi gapga ilon inidan chiqadi, yomon gapga pichoq qinidan. 3. Bekorchidan el bezor. 4. Yigit soʻzidan, arslon izidan qaytmaydi.

3-topshiriq. Chiqish kelishigidagi soʻzlar ishtirokida oltita gap tuzing.

Yodda tuting: при прибавлении аффикса -dan, а также -ga, -da к местоимениям *u* (он), *bu*, *shu*, (этот), *oʻsha* (тот) перед аффиксами прибавляется буква -n: *bunga*, *shunga* и т.д.

Lugʻat ishi

jism	предмет
tarbiyali	воспитанная
bir chekkaga oʻtib	отойдя в сторону
ozoda	опрятная
kir qilmaydi	не пачкает, не сорит
mehnatsevarlik	трудолюбие
kir yuvish	стирка
uy tozalash	уборка дома
atigi	всего, лишь

4-topshiriq. Matnni o'qing.

ISMI JISMIGA MONAND

Oqilani bizning ko'chada hamma yaxshi ko'radi. Hali kichkina bo'lsa ham kattalar uni alohida hurmat qilishadi. Ismi jismiga monand qiz deyishadi. Nimaga deysizmi?

Oqila juda tarbiyali qiz. Doim kattalarga salom beradi. Bir chekkaga o'tib, kattalarga yo'l beradi.

U juda ozoda. Kiyimlari doim top-toza. Sira kir qilmaydi.

Uning mehnatsevarligi-chi. O'zi ukasini bog'chadan olib keladi. Onasiga ovqat qilish, kir yuvish, uyni tozalashda yordamlashadi. Hatto o'zi uylarni supuradi.

Shunga shunchami? . . . Nima bo'пти, dersiz. Oqila atigi sakkiz yoshli qizcha, xolos.

5-topshiriq. Kishiga ta'rif berib aytsa bo'ladigan qanday so'zlarni bilasiz. Ularni daftaringizga sinonim va antonimlarini bilan yozing. Masalan:

kamtar – kekkaygan.

odobli – baodob – odobsiz.

saxiy – ziqna.

23-mashg'ulot

Suhbat

– Ertaga litseyimizda taniqli sportchilar bilan uchrashuv bo'lar ekan, kelasanmi?

– Kimlar qatnashar ekan?

– E'londa aytilishicha, Mirjalol Qosimov, Abdulla Tangriyev, Oksana Chisovitina va boshqalar.

– Albatta, kelaman. Men M. Qosimovni juda yoqtiraman. U zo'r futbolchi. Unga doim muxlislik qilganman.

– Men kurashni yaxshi ko'raman. A. Tangriyev kuragi yerga tegmagan polvonlardan. U juda kuchli, irodali, sportchi.

– Juda qiziq bo'lsa kerak.

– Albatta, kechikmasdan kelgin.

– Xo'p, ko'rishguncha.

OTLARDA SON (Категория числа)

Имена существительные в единственном числе не имеют специального морфологического показателя.

Множественное число имен существительных образуется:

- с помощью аффикса -lar: daftar-lar, gul-gullar и т.д.
- с помощью числительных: o'nta kitob, beshta viloyat, o'ttizta talaba и т.д.
- с помощью парных слов: qor-qor un (мешки муки), dasta-dasta gul (букеты цветов) и т.д.

1-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы купили в магазине макароны, сливки и карамель.
2. Тонны белого золота было собрано силами добровольных помощников.
3. Я люблю когда мне дарят цветы.
4. Студенты сдали итоговый контроль только на отлично и хорошо.
5. Добрые дела нужно делать каждый день.

Lug'at ishi

a'lo	отлично; отличный
namunali	примерно (поведение); образцовый
faol	активный; активно
mutaxassis	специалист
jamoatchi	общественник
faxrli	почетный
maqsad	цель
halol	честный; честно
faxrlanmoq	гордиться

2-topshiriq. Matnni o'qing. Gapirib berishga tayyorlaning.

BULAR – TENGDOSHLARIM

Nodir Qibray Energetika kollejida o'qiydi. Baholari a'lo, xulqi namunali. Barcha fanlardan darslarda faol qatnashadi. Bo'sh vaqtlarida u musiqa bilan shug'ullanadi. U nayni juda yaxshi chaladi. Uning orzusi Texnika universitetida o'qib, yaxshi mutaxassis bo'lish.

Azizbek Moliya litseyida o'qiydi. U ham a'lochi, jamoatchi. Sport bilan muntazam shug'ullanadi. Milliy kurashimiz bo'yicha musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallab keladi. U kelajakda iqtisodchi bo'lmoqchi.

Akrom, Iroda, Shahnoza, Ahrorbeklar ham shahrimizdagi litsey va kollejlarda o'qishadi. Ularning orzulari turlicha, ammo maqsadlari bitta – ona O'zbekistonimizga halol xizmat qilish.

Bular mening tengdoshlarim va men ular bilan faxrlanaman.

Yodda tuting: affикс -lag является омонимичным. В случае прибавления его к собственным именам, именам существительным употребляемым только в единственном числе, он передает различные модальные значения: Boshlarim og'rib ketdi – У меня разболелась голова.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Salimaning ko'ylagiga havaslarim keldi. 2. Kollejimizgacha o'n daqiqalik yo'l. 3. Burilishdagi birinchi uy – bizniki. 4. Sodiqning kichkinagina mushukchasi bor. 5. Mukofot oladigan ishchilarning ro'yxati tuzildi.

4-topshiriq. Biror tengdoshingizning yaxshi (yomon) xislatlari haqida gapirib bering.

MEN YOQTIRGAN NARSALAR

24-mashg'ulot

Suhbat

– Sen bo'sh vaqtingda nimalar qilishni yoqtirasan?
– Bo'sh vaqtimda musiqa tinglashni yaxshi ko'raman.
– Senga qanday musiqa yoqadi?
– Menga zamonaviy musiqa yoqadi. Lekin ba'zan mumtoz musiqalarni ham eshitaman.

– Yosh xonandalardan kimlarni ko'proq tinglaysan?
Sevara Nazarxon, Abdulaziz Karim menga juda yoqadi. Ularni sevib tinglayman.

ОТ YASALISHI

(Образование имен существительных)

Существительные в узбекском языке образуются двумя способами: прибавлением аффиксов и сложением двух и более корней.

Наиболее часто употребляются аффиксы:

– chi: ishchi (рабочий), gulchi (цветовод), payvandchi (сварщик);

– dosh: vatandosh (соотечественник), sinfdosh (одноклассник);

– dor: chorvador (животновод), aybdor (виновник);

– lik: yaxshilik (добродетель), yomonlik (зло), rostgo'ylik (правдивость), do'stlik (дружба).

– kor: paxtakor (хлопкороб), g'allakor (хлебороб);

– zor: paxtazor (хлопковое поле), olmazor (яблоневый сад), terakzor (тополияная роща);

– goh: o'yingoh (стадион), sihatgoh (санаторий);

– chilik: paxtachilik (хлопководство), o'tmonchilik (лесоводство);

– xona: oshxona (столовая, кухня), korxonona (предприятие);

– noma: taklifnoma (пригласительный билет), tabriknoma (поздравление), tavsifnoma (характеристика);

– shunos: adabiyotshunos (литературовед), xorshunos (хоровед);

Сложные имена существительные могут быть типа:

– существительное + существительное: ko'zoynak (очки), muzqamoq (мороженое);

– прилагательное + существительное: Qorako'l, Qiziltepa, Oqdaryo, O'rtachirchiq;

– числительное + существительное: To'rtko'l, to'rtburchak (прямоугольник), Beshyog'och.

Lug'at ishi

bekinmashoq	игра в прятки
tugatmoq	окончить, закончить
miriqib	с удовольствием
jon-u dilim	здесь; душа моя
murabbiy	тренер
shug'ullanmoq	заниматься

yoqadigan tomoni shundaki
chinakam
jamoaviy

что мне в нем нравится
настоящий
коллективный

1-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

MEN YOQTIRGAN O'YINLAR

Bolalikda hamma turli o'yinlarni oynaydi. Quvlashmashoq, bekinmashoq, oq terakmi - ko'k terak... Ularni sanab tugatib bo'lmasa kerak.

Men ham bolaligimda shu o'yinlarni miriqib o'ynardim.

Endi esa jon-u dilim futbol. Yetti yoshimda dadam «Traktor» stadioniga olib borganlar. Murabbiy Sobir aka «Bundan yaxshi futbolchi chiqadi», – degandi o'shanda. Mana yetti yilki shu sport bilan shug'ullanaman. Bu o'yinning menga yoqadigan tomoni shundaki, u chinakam jamoaviy o'yin. Jamoa a'zolari bir-birini tushunsagina yaxshi natijaga erishish mumkin.

Men yana tennis, voleybol, basketbolni ham yaxshi ko'raman. Ularni ham sevib o'ynayman.

2-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Uchburchak, ko'pburchak, savodxon, asbobsoz, darvozabon, oshpaz, uycha, qizaloq.

Bilib oling: В узбекском языке имена существительные имеют следующие функциональные формы:

– уменьшительную, образующуюся с помощью аффиксов -cha, -choq, -chak: uycha (домик), filcha (слонёнок), baliqcha (рыбка), qo'zichoq (ягненок), kelinchak (невестка).

– ласкательную, образующуюся с аффиксами -xon, -jon, -ou: oujjon (мамочка), Azizaxon (Азизочка), Hakimjon (Хакимчик), Halimaou (Халимочка) и т.д.

– принадлежности, образующуюся с аффиксом -niki kitob Rustamniki.

– ограничения, образующуюся с аффиксом -gacha (до): markazgacha (до центра), uygacha (до дома).

– уважительную, с аффиксом -lar: dadamlar, oyimlar

3-topshiriq. Otning vazifaga xoslangan shakllari qatnashgan gaplar tuzing.

4-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling. Shu so'zlar ishtirokida 5–6 ta gap tuzing.

Бетонщик, литературовед, координатор, вишневый сад, щенок, теленок, лисенок, медвежонок.

Yodda tuting: Парные имена существительные образуются от слов синонимов: do'st – uor (друзья), или слов – антонимов: ota – ona (родители) и чаще имеют собирательное значение.

25-mashg'ulot

Suhbat

– Nargiza, sen bo'sh vaqtlaringda nimalar qilasan?

– Men darsdan bo'sh vaqtimda bichish-tikish kursida ham o'qiyman.

– Sen tikishni bilasanmi?

– To'g'rirog'i, o'rganyapman. Menga ayollar kechki ko'ylaklarini tikish yoqadi. Chunki har bir ayol go'zal bo'lishni xohlaydi. Bunga kiyimning ahamiyati katta.

– Ha. Men esa ovqat pishirishni yaxshi ko'raman. Ovqatim uydagilarga yoqsa, xursand bo'laman. Shirinliklarni pishirishni-ku rosa yaxshi ko'raman.

– Chunki ularni yeyishni yaxshi ko'raman, shundaymi?

– Ha, topding.

SIFAT

(Имя прилагательное)

Часть речи, обозначающая признак лица или предмета, называют прилагательным. В узбекском языке они отвечают на вопросы qanday? qanaqa? (какой?), qaysi? (который?). В узбекском языке различают прилагательные: 1. **Xususiyat bildiruvchi** означающие свойство; они означают свойство как человека так и предметов: kamtarin (скромный), auuor (хитрый), uyuvosh (смирный), yaxshi (хороший);

2. **Holat bildiruvchi** oznaçauyucije sostoyaniye: xursand (веселый, радостный), xafa (грустный), kekxa (старый), sovuq (холодный), tinç (спокойный, тихий);

3. **Shakl bildiruvchi** oznaçauyucije formu – vid: novçha (высокий), yassi (плоский), gavgali (рослый);

4. **Rang – tus bildiruvchi** oznaçauyucije cvet: puşti (розовый), zangori (голубой);

5. **Maça – ta'm bildiruvchi** oznaçauyucije vkuç: shirin (сладкий), nondon (горький), achiq (острый), sho'r (солёный).

6. **Hajm – o'lehov bildiruvchi** oznaçauyucije mery – obyem: keng (широкий), tor (узкий), uzun (длинный), og'ir (тяжёлый);

7. **Hid bildiruvchi** oznaçauyucije zapax, ix vsego neskol'ko: xushbo'y (приятный), badbo'y, sassiq, qo'lansa (неприятный).

Lug'at ishi

tasviriy	изобразительное искусство
to'garak	кружок
badiiy rahbar	художественный руководитель
... boshchiligida	под руководством. . .
qiyin	трудный; трудно
maroqli	здесь: интересный, интересно
qarsak	аплодисменты
charchoq	усталость
unutilib ketadi	забывается

1-topshiriq. Matnni o'qing. Unga asosanib sevgan mashg'ulotingiz haqida aytib bering.

SEVGAN MASHG'ULOTIM

Har kimning o'z sevgan mashg'uloti bor. Kimdir musiqani, kimdir tasviriy san'atni, yana kimdir sportni sevadi.

Men teatni yaxshi ko'raman. O'zbek Milliy akademik teatri, Muqimiy nomidagi O'zbek musiqali drama va komediya teatrlarining hamma spektakllarini borib ko'raman. Erkin Komilov, Zuhra Ashurovalarning san'atiga havasim keladi. Shuning uchun ham litseyimizdagi drama to'garagiga qatnashaman. U yerda badiiy

rahbarimiz Latofat Yoqubovna boshchiligida turli spektakllarni o'ynaymiz. Yaqinda yangi spektakl qo'ymoqchimiz. Men unda bosh rolni o'ynayman. Bu juda qiyin, lekin maroqli. Ayniqsa, spektakldan keyin tomoshabinlar qarsak chalib olqishlasa, gullar sovg'a qilsa, charchoqlar ham unut bo'lib ketadi.

2-topshiriq. Savollarga javob yozing.

1. Siz qaysi xalq o'yinlarini bilasiz?
2. Ulardan qaysisi sizga yoqadi? Nima uchun?
3. Bo'sh vaqtingizda nimalar qilasiz?
4. Sizga rasm chizish yoqadimi? Nima uchun?
5. Qanday odamlarni hurmat qilasiz?

3-topshiriq. Sifatning har bir ma'no turiga beshtadan misolni tarjimai bilan yozing. Ularni qatnashtirib beshta gap tuzing.

4-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Men Yevropa taomlarini xush ko'raman. 2. Azizim, mehribonim, onajonim, bayramingiz muborak bo'lsin. 3. Achchiq savol berib, shirin javob kutma. 4. Katta arava qayoqqa yursa, kichigi ham shu yoqqa yuradi. 5. Yurtimizda go'zal joylar ko'p.

TAQDIR AJOYIBOTLARI VA DUNYO SIRLARI

26-mashg'ulot

Suhbat

– Avazbek, sen Chimyonda bo'lganmisan?

– Ha, albatta.

– U yerda yozda borganmisan qishdami?

– Chimyonga albatta qishda boriladi-da. Mazza qilib chang'i uchganmiz. Hamma yoq qor.

– Chimyonda yozda ham mazza. Hamma yoq ko'm-ko'k. Havo biram toza.

To'g'ri-ku, lekin baribir Chimyon qishda juda boshqacha bo'ladi. Sen qishda u yerga borganmisan o'zi?

- Yoq faqat yozda.
- Mayli. Qishda birga boramiz. Ko‘rasan, fikring o‘zgarishi tayin.
- Mayli. Borib ko‘raylik-chi.

SIFAT DARAJALARI (Степени сравнения прилагательных)

Сопоставление одинаковых качеств в предметах выражается степенями сравнения имен прилагательных.

В узбекском языке три степени сравнения:

Oddiy daraja (обычная степень) качество предмета называется без сравнения его с качеством другого. Эта форма является начальной для прилагательных: oddiy (простой), go‘zal (красивый), oq (белый) и т.д.

Qiyosiy daraja (сравнительная степень) означает большую или меньшую степень качества по сравнению с похожей. Она образуется двумя способами:

- с помощью аффикса -toq: oqtoq (белее), kuchliroq (сильнее), tekisroq (ровнее) и т.д.

- с помощью слов: sal, biroz, xiyol (немного, чуть), sal baland (чуть выше), sal past (чуть ниже).

Orttirma daraja (превосходная степень) означает большую чем в норме степень признака. Так же образуется двумя способами:

- с помощью слов juda (очень), eng (самый), g‘oyat (da) (очень), nihoyat (da), behad (безгранично): juda yoqimli (очень приятный), behad xursand (безгранично радостный) и т.д.

- первый слог или начало прилагательного ставится перед ним, образовав парное, при этом в первом слого в конце произносятся звуки p, m или любой звук в первом слого меняют на эти звуки: qir-qizil (темно красный), yam-yashil (очень зеленый), dum-dumaloq (круглый-круглый) и т.д.

Так же превосходную степень образуют с помощью интонации (произношением гласных дольше чем обычно, или удвоенным произношением согласных): uzu-u-uz (длинный), tekis (ровный) и т.д.

Отдельные разряды прилагательных не имеют степеней сравнения: sirtqi (заочный), devoriy (стенная) и т.д.

Lugʻat ishi

moʻjiza	чудо
quyilish joyi	место стока
dastlabki	первый
xazina	сокровищница
hozirda	нынче, теперь, сейчас, в настоящее время
barmoq bilan sanarli	можно пересчитать напальцах
tobut	гроб
loyiha	проект
minora	башня
Misr	Египет
misirlik	египтянин

1-topshiriq. Matni oʻqing va rus tiliga tarjima qiling.

OLAMNING YETTI MOʻJIZASI

(M. Usmonovadan)

Olamning yetti moʻjizasidan oltinchisi Iskandar Zulqarnayn nomi bilan bogʻliq Iskandariya minorasidir.

Iskandariya shahri Nil daryosining quyilish joyida, misirliklarning Rakotis shaharchasi oʻrnida bunyod etilgan. Bu leninizm davrining yagona loyihasi asosida qurilgan eng dastlabki shaharlardan biri edi. Iskandariyada Buyuk Iskandarning tobuti saqlanar, sanʼat va fan markazi ham boʻlgan. Museyon saroyi shu yerda mujassamlashgan edi. Hozirgi «muzey» soʻzi ham shu saroy nomidan kelib chiqqan. Museyon ayni vaqtda fanlar akademiyasi, olimlar uchun yotoqxon, texnika markazi, maktab, qolaversa, xazinasida yarim million kitobi boʻlgan yirik kitobxon ham edi.

2-topshiriq. Oʻqing. Yozma tarjima qiling.

Bilasizmi?

Eng qadimiy geografiya xaritasi eramizdan avvalgi 2500-yilda ishlangan. Loydan yasalgan bu xarita Istanbul muzeyida saqlanadi.

3-topshiriq. Berilgan sifatlarning qiyosiy va orttirma daraja shakllarini yozing. Shu soʻzlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

Sariq, qizil, kamtar, saxiy, toza.

4-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Oʻlkamizda oltin kuz. 2. Bu yil paxtadan moʻl hosil oldik. 3. Tonggi reys bilan Nyu-yorkka uchamiz. 4. Bayramga bagʻishlangan devoriy gazetalar tanlovida biz gʻolib boʻldik. 5. Kechagi osh rosa zoʻr chiqqan ekanmi!

5-topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling. Shu soʻzlarni qatnashtirib 4 ta gap tuzing.

Старый, вечерний, ежегодный, летний, хмурый, счастливый, веселый, беспечный, обиженный, ежедневный.

27-mashgʻulot

Suhbat

- Sen «Ginnes-Shou» dasturini koʻrib borasanmi?
- Ha, albatta. Bu juda qiziq.
- Senga qanday rekordlar yoqadi?
- Men inson kuchi, irodasi hisobida oʻrnatiladigan rekordlarni yoqtiraman. Yaqinda bir rekordni koʻrsatishdi. Bir kishi qornida oʻntadan koʻp tangani aylantirdi. Menimcha, bu xavfli, bunaqa rekordlardan oʻzini tiygan maʼqul.
- Menga texnikaga oid rekordlar yoqadi. Tezyurar avtomobillar yaratishga oliy rekordlarga qiziqaman.
- Umuman, hammasi ham qiziq.

SIFAT YASALISHI

(Образование имен прилагательных)

Имена прилагательные в узбекском языке образуются двумя способами: с помощью словообразующих аффиксов и сложением основ.

Наиболее активными являются аффиксы:

-li: aqlli (умный), chiroyli (красивый), gulli (цветочный), qiziqarli (интересный).

-siz: tuzsiz (не соленый), suvsiz (безводный).

-chan: ishchan (деловой), uyatchan (стеснительный).

-aki: yuzaki (поверхностный), og`zaki (устный).

-ma: qaynatma (вареный), qovurma (жареный).

be-: beodob (невоспитанный), bebaho (бесценный).

ba-: badavlat (богатый), baodob (воспитанный).

ser-: sersuv (многоводный), serhosil (плодородный).

po-: poxolis (предвзято), poxush (неприятный).

-g`in: horg`in (усталый), keskin (резкий).

-choq: erinchoq (ленивый), maqtanchoq (хвастливый).

-gir: o`tkir (острый), olg`ir (хваткий), sezgir (чуткий).

-gi: kechagi (вчерашний), bugungi (сегодняшний).

Сложные имена прилагательные образуются следующими способами:

1) прилагательное + прилагательное: och sariq, to`q qizil;

2) прилагательное + существительное: ochko`z (жадный), ochiq ko`ngil (добрый);

3) Существительное + глагол: muzyogar (ледокол);

4) существительное + существительное: havo rang (голубой), sheryurak (храбрый), toshyurak (жестокый);

5) наречие + существительное: hozirjavob (остроумный, находчивый), kamgar (молчаливый).

Lug`at ishi

korgazma	выставка
havaskor	любитель
...dan iborat	состоящий из ...
sovrin	приз
laqab	кличка
kutib oldi	встретил
qatnashdi	участвовал

1-topshiriq. Matnni o'qing. Savollar tuzing va yozing.

KO'P TILDA SO'ZLASHUVCHI MAYNA

(M. Usmonovadan)

1986-yilda Chexoslavakiyaning Olomoutse shahrida bo'lib o'tgan qushlarning xalqaro ko'rgazmasida namanganlik havaskor o'rnitolog Abdujabbor Qahharov ham o'zining qushlardan iborat katta kolleksiyasi bilan qatnashdi. U ko'rgazmani bosh sovrini – «Ekzot» mukofatiga sazovor bo'ldi. Uning qanotli do'stlari yana yigirmaga yaqin oltin, kumush va bronza meddallari bilan mukofotlandi. Bu yerga keluvchilarni, ayniqsa, Grisha laqabli mayna o'ziga ko'proq jalb etdi. U mehmonlarni rus, o'zbek, chet tillarida salom berib kutib oldi.

2-topshiriq. Gazeta va jurnallardan shu kabi qiziqarli materiallarni topib, gapirib berishga tayyorlang.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Xushsiz, kamxafsala, ko'ngilsiz, diyonatli, umumxalq, g'ayriqonuniy.

4-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Весенние каникулы начинаются перед праздником Навруз.
2. Перед экзаменами пришлось провести много бессонных ночей.
3. Мой брат любит современную музыку.
4. Утренний концерт я не смог прослушать.

5-topshiriq. Berilgan so'zlarga mos sifatlar topib, so'z birikmalari tuzing.

Kitob, qalam, do'st, o'quvchi, topshiriq.

6-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi. 2. Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin. 3. Yaxshining ehsoniga baxilning boshi og'rir. 4. Devorlarni oqqa bo'yadik.

SIFATNING OTLASHISHI (Субстантивация прилагательных)

Субстантивация – употребление имен прилагательных вместо существительных.

В узбекском языке прилагательные не склоняются, не имеют форму множественного числа. В отдельных случаях они употребляются с аффиксами, присущими именам существительным, это и называют субстантивацией: *Yaxshiga yondash, yomondan qoch* (Будь с хорошим (человеком), остерегайся плохого).

7-topshiriq. Otlashgan sifatlar qatnashgan 5–6 ta gap tuzing.

28-mashg'ulot Suhbat

- Aytinchi, Toshkentda hayvonot bog'i bormi?
- Ha, Toshkentda ajoyib hayvonot bog'i bor.
- U qayerda joylashgan?
- Hayvonot bog'i Jahon Obidova ko'chasida, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika bog'i yonida joylashgan.
- U yerga qaysi transport bilan borsam bo'ladi?
- Hayvonot bog'iga 115, -19 va 63-avtobuslar, 50, -53-yonalishli taksilarda borish mumkin.
- 115- va 19-avtobuslar Mustaqillik maydoni metro bekatidan, 53-yo'nalishli taksi Chorsudan yuradi. Siz ularga Oloy bozori yoki Interkontinental mehmonxonasi bekatidan chiqib olishingiz mumkin.
- Rahmat.
- Marhamat.

SON (Имена числительные)

Имя числительное – часть речи, обозначающая количество, а также порядок предметов при счете.

Они делятся на **miqdor son** – количественные и **tartib son** – порядковые.

Количественные числительные делятся на:

Sanoq son (счетные):

Единицы	Десятки	Сотни,	Тысячи
1- bir	10- o'n	100 yuz	1000 ming
2- ikki	20- yigirma	200 ikki yuz	2000 ikki ming
3- uch	30- o'ttiz		
4- to'rt	40- qirq		
5- besh	50- ellik		
6- olti	60- oltmish		
7- yetti	70- yetmish		
8- sakkiz	80- sakson		
9- to'qqiz	90- to'qson		

Dona son. Штучные числительные образуются от счетных с помощью аффикса -ta, и употребляются для счета поштучно: bitta, ikkita, uchta и т.д. После штучных числительных аффикс множественного числа не употребляется: bitta kitob, yuzta kitob и т.д.

Taqsim son. Разделительные числительные образуются с помощью аффикса -tadan: bittadan (по одному), ikkitadan (по два);

Chama son. Приблизительные числительные образуются с помощью аффиксов -tacha: o'ntacha (около десяти), yuztacha (около ста); -lab: o'nlab (десятки), yuzlab (сотни); -larcha: o'nlarcha (десятки), yuzlarcha (сотни);

Парные числительные также относятся к приблизительным o'n-o'n besh (десять - пятнадцать) и т.д.

Jamlovchi son. Собираательные числительные образуются с помощью аффиксов -ov, -ovlon, -ala: от числительных от двух до семи: uchov, uchovlon, uchala (трое) и т.д.

Kasr son. Дробные числительные читаются: знаменатель в форме исходного, а числитель в форме именительного падежа: 1/2 ikkidan bir, 3/4 to'rt dan uch, 0,5 nol butun o'ndan besh и т.д.

Слова yarim (0,5), chorak (0,25), nimchorak (0,12,5) также относятся к дробным числительным.

Tartib son. Порядковые числительные образуются прибавлением аффикса -(i) nchi: birinchi (первый), yuzinchi (сотый).

Если вместо порядковых числительных пишутся цифры, то после них ставится дефис: 1- maktab, 8- dekabr, 10- sinf.

Lug‘at ishi

chiqib olishingiz mumkin	здесь; можете сесть букв. можете выйти
ajoyibot	здесь; чудо
hisoblanadi	считается
pakana	низкий ростом
vazni	вес
yengil	легкий; легко
uzoq umr ko‘rgan	долго проживший

1-topshiriq. O‘qing va rus tilida tarjima qiling.

AJOYIBOTLAR

Dunyoda eng uzoq umr ko‘rgan odam ingliz Tomas Kari hisoblanadi. Cherkov kitoblarida uning Londonda tug‘ilganligi va 207 yil yashaganligi yozilgan.

* * *

Dunyoda eng pakana odam nemis Valter Beming bo‘lib, uning bo‘yi 52 cm ekan. U 1955-yilda 48 yoshida vafot etgan.

* * *

Amerikalik Robert Porchchin Undlonning boyi 270 sm, vazni 232 kg bo‘lgan. U 1944-yilda 22 yoshida vafot ertgan.

* * *

Dunyoda eng yengil odam Xanin Xonkins edi. Uning vazni 17 yoshida (1574-yilda) 7,7 kg bo‘lgan.

2-topshiriq. Qanday ajoyibotlarni bilasiz? Aytib bering.

3-topshiriq. Shahringizdagi inson qo'li bilan yaratilgan mo'jizalar haqida maqola yozing.

4-topshiriq. Uch va to'rt sonlaridan sonning ma'no turlarini hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

5-topshiriq. Sonlarni so'z bilan yozing. Rus tiliga tarjima qiling.
211-maktab, 6-klinik kasalxona, XIX asr, 1991-yil, 100 000-avtomobil, 1.000.000- yo'lovchi.

Yodda tuting: После аффикса -ta, образующего штучные числительные, аффикс множественного числа не употребляется: o'nta kitob (десять книг), beshta gul (пять (штук) цветов).

O'ZBEK TILIDA VAQT HISOBI (Обозначение времени)

11.10. – o'n birdan o'n daqiqa o'tdi.

11.30. – o'n bir yarim.

10.50. – o'n daqiqasi kam o'n bir.

В пределах первой половины неполного часа называют после слова soat полный час в исходном падеже, затем минуты прошедшего неполного часа в именительном падеже и употребляется слово o'tdi (прошло):

В пределах второй половины неполного часа называют после слова soat количество недостающих до полного часа минут, затем слова daqiqasi kam и следующий полный час.

Yodda tuting: Если слово soat стоит после числительного, то указывается на продолжительность времени: Сравните: soat yetti (время семь часов), yetti soat (в течение 7 часов).

6-topshiriq. Oxirgi dam olish kunini qanday o'tkazganingizni aytib bering.

KASB (HUNAR) ILMINI SHARAFLAYMAN

29-mashg'ulot

Suhbat

- Aziza, sen kelajakda kim bo'lmog'chisan?
- Mening orzuim shifokor bo'lish.
- Nimaga shu kasbni tanlamoqchisan?
- Oyim shifokorlar. Men ham bolaligimdan qo'g'irchoqlarni «davolab» katta bo'lganman. Qolaversa, bu juda olijanob kasb. Insonlarni davolab oilasiga, ish joyiga qaytarish men uchun baxt.
- Men esa o'qituvchi bo'laman. Bu ham olijanob kasb. Barcha kasb egalari undan bilim olishadi.
- Ishqilib, orzularimiz ushalsin.
- Yaxshi o'qisak, intilsak albatta, shunday bo'ladi.

OLMOSH

(Местоимение)

Слова, употребляемые вместо существительных прилагательных, числительных и иногда наречий, называют местоимениями.

В узбекском языке 7 разрядов местоимений: 1. Kishilik olmoshlari. 2. O'zlik olmoshlari. 3. Ko'rsatish olmoshlari. 4. So'roq olmoshlari. 5. Belgilash olmoshlari. 6. Bo'lishsizlik olmoshlari. 7. Gumon olmoshlari.

Местоимения также классифицируют по тому, вместо каких частей речи они употребляются. Например, личные местоимения употребляются вместо существительных, указательные вместо прилагательных и соответственно имеют те же грамматические свойства, что и слова, вместо которых они употребляются. Личные местоимения склоняются по падежам, а указательные могут субстантивироваться и т.д.

KISHILIK OLMOSHLARI

(Личные местоимения)

Личные местоимения указывают на 1, 2, 3 лица. К ним относятся:

Birlik	
1-shaxs	Men (Я)
2-shaxs	Sen (Ты)
3-shaxs	U (Он(а))

Ko'plik	
Biz	(Мы)
Siz	(Вы)
Ular	(Они)

Личное местоимение *sen* иногда употребляют в форме множественного числа – *senlar*, в этом случае выражается пренебрежительность. *Senlar hali ko'rasan (lar)*. Вы ещё увидите.

Иногда местоимение *biz* также может иметь аффикс *-lar*.

Личное местоимение *siz* может означать как множественное число, так и уважительное отношение к одному лицу. Иногда в живом общении чтобы различать множественное число к нему так же прибавляют *-lar*.

Lug'at ishi

<i>niyat</i>	пожелание
<i>пок, pokiza</i>	чистый
<i>taft</i>	температура, тепло
<i>beg'ubor</i>	чистый, прозрачный
<i>mudom</i>	вечно
<i>yog'du</i>	сияние
<i>barkamol</i>	развитый
<i>ezgulik</i>	доброта
<i>haqlik</i>	правдивость

1-topshiriq. Yangi so'zlar ishtirokida 3–4 ta gap tuzing.

2-topshiriq. She'mi ifodali o'qing va yod oling.

USTOZ

S. Soliyev

Ona suti kabi niyatingiz пок,
 Mehringiz saraton bag'riday issiq,
 Beg'ubor dilingiz nur kabi oppoq,
 Siymongiz dilimda, billurdek tiniq.

Ustozni nur deydi, sevadi inson,
Soʻzlarin dur deydi, teradi inson,
Bergan taʼlimingiz quyoʻsh nuriday,
Yoʻlimiz yoritdi, yashnadi zamon.

Ustozim tilimda, dilimda mangu,
Mehribon onamdek sevaman mudom,
Ustozim soʻzlari dilimda yogʻdu,
Shu sabab boʻloldim barkamol inson.

Ustozim sevaman toki hayotman,
Nomini nur kabi saqlab pokiza,
Ezgulik, haqlikni oʻrgangan zotman,
Bir umr ustozdan olib andoza.

3-topshiriq. Sevimli ustozingiz haqida hikoya qilib bering.

4-topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Я узнал о вашем приезде только что. 2. Мне тогда было лишь одиннадцать. 3. Ты получил мое письмо? 4. Выходные мы собираемся провести в горах. 5. А в какой группе учиться она? 6. Ты передал ей мое приглашение. 7. Я рад встрече с вами.

5-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Mening katta akam – hisobchi. U «Mikond» zavodida ishlaydi. 2. Karimning akasi undan uch yosh katta. Hozir u toʻqqizinchi sinfda oʻqiyapti. 3. Sen yakshanbada nimalar qilmoqchisan. Ehtimol, biz bilan sayohatga borarsan?

Yodda tuting: При прибавлении аффиксов -ning, -ni, -niki к местоимениям men и sen одно n выпадает: meniki, mening, meni.

При прибавлении аффиксов -ga, -da, -dan, -gacha к местоимению u (а также к указательным местоимениям bu, shu, oʻsha) прибавляют одно n: unga, bunda, oʻshangacha и т.д.

30-mashgʻulot

Suhbat

– Akrom, sen chet tilini yaxshi bilasanmi?
– Ha, men ingliz tilini oʻrganyapman, unda erkin gaplasha olaman.

– Unday bo'lsa, menga uy vazifasini bajarishda yordamlashib yubormaysanmi?

– Qanday uy vazifasi ekan?

– Devoriy gazetaga tanlagan kasbim haqida maqola yozish. O'zim biroz qiynalyapman.

– Mayli. Darsdan keyin ko'rishaylik. Birga maqolani tayyorlaymiz.

– Rahmat. Ko'rushguncha.

– Ko'rishguncha.

O'ZLIK OLMOSHI (Возвратное местоимение)

В узбекском языке одно слово o'z называют возвратным местоимением. Оно может употребляться и вместо личных местоимений, в этом случае он имеет аффиксы принадлежности: o'zim (я сам), o'zing (ты сам) o'zi (он сам) и т.д.

Само слово o'z переводится как свой, и является в предложении определением.

O'z uyim – o'lan to'shagim – Мой дом – моя крепость.

В третьем лице во множественном числе может употребляться аффикс -lar. Но он больше выражает уважительную форму: Shoiramizning o'zlarini ham tashrif buyurdilar. К нам пожаловала сама поэтесса.

Эту форму иногда употребляют относительно и третьего лица: O'zlaridan ham bir eshitaylik. Давайте, и вас послушаем.

Lug'at ishi

ota kasb	букв: профессия отца
duradgor	столяр, плотник
yasamoq	делать, изготавливать
rom	рамы (оконные)
eshik	двери
o'matilgan	установлены
kirish	входная дверь
hamyurt	соотечественник
xizmat	служить
dastgoh	станок

1-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

OTA KASBIM

Mening dadam duradgor bo'lib ishlaydilar. Ular bu kasbda 30 yildan ortiq ishlab keladilar. Ular yasagan rom, eshik va boshqalar shahrimizning ko'plab binolarida, uylariga o'rnatilgan. Uyimizga kirish eshigini ham dadam yasaganlar. Aytishlaricha, bunga 25 yil bo'libdi.

Men ham shu kasbni tanladim. Hozir kollejdagi o'qiyapman. Kollej ustaxonasi eng yangi dastgohlar bilan jihozlangan. U yerda biz turli anjomlar yasaymiz. Bu menga juda yoqadi.

Hozirda men eshik va romlarni bimalol yasay olaman, bunga meni kollejdagi o'qituvchilarim, qolaversa, birinchi ustozim – otam o'rgatganlar. O'qishdan bo'sh paytlarimda doim dadamga yordamlashaman. Ota-bola birga turli buyurtmalarni bajaramiz.

Men yasagan narsalarim xuddi otam yasagan narsalar kabi hamyurtlarimizga uzoq xizmat qilsa, deyman.

2-topshiriq. Matndagi barcha yasama so'zlarni aniqlab, yasalish usulini ayting.

3-topshiriq. Tanlagan kasbingiz haqida aytib bering. Nima uchun shu kasbni tanladingiz?

4-topshiriq. So'zlarni tarkibi bo'yicha tahlil qiling. Ularni qatnashtirib gap tuzing.

Manfaatli, tayyorgarlik, yetakchi, olim.

5-topshiriq. O'zlik olmoshini kerakli shaklda qo'llab, gaplarni ko'chiring.

1. ... er bilsang, o'zгани she'r bil (maqol). 2. ... vaqtida to'g'rilanmagan xato boshqasini boshlab keladi. 3. ... chiqqan baloga, qayga boray davoga (maqol). 4. ... ham shu shunaqa bo'lsa kerak, deb turagndim. 5. Azaga borgan ... dardini aytib yig'laydi (maqol).

6-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мой друг купил себе новые туфли. 2. Отец обещал взять меня с собой в Самарканд. 3. Человек не должен думать только о себе. 4. Это я беру на себя. 5. Ты доволен своей сегодняшней работой. 6. Он улучшил в этой четверти свои отметки. 7. У нас самообслуживание.

31-mashg'ulot

Suhbat

- Said, kecha nega darslarga kelmading?
- Biroz tobim bo'lmadi. Shifokorga bordim.
- Tinchlikmi?
- Ha, tinchlik. Biroz boshim og'ridi xolos.
- Kecha chilangarlikdan birinchi amaliy mashg'ulot o'tdi. Ustaxonaga bordik. U yerdagi dastgohlarni ko'rsang.
- Nima, ularda ishladinglarmi? Esizgina. Kelsam bo'larkan.
- Yo'q. Kecha dastgohlar bilan tanishdik xolos. Kelasi darsdan dastgohlarda ishlar ekanmiz.
- Yaxshi.

KO'RSATISH OLMOSHLARI

(Указательные местоимения)

Указательные местоимения употребляются для указания, подчеркивания лица предмета или признака. Наиболее употребительны в современном узбекском языке:

u, o'sha – тот, та, то, те

bu, shu – этот, эта, это, эти

mana – вот

ana – вон

mana bu, mana shu – вот этот

ana u, ana o'sha – вон тот

bunday – вот так (такой)

shunday – так (такой)

o'shanday – также (такой)

Указательные местоимения употребляются вместо существительных, прилагательных и наречий.

Lugʻat ishi

ishtaha	аппетит
dangasa	лентяй, лодырь
turmush	быт, жизнь
bilagi zoʻr	сильный руками
bilimi zoʻr	сильный знаниями
belgi	знак, признак
buyurmoq	поручать, приказывать
koʻzla	намечай

1-topshiriq. Maqollarni yod oling ayting.

1. Bilimsiz bir yashar,
Bilimli ming yashar.
2. Yigit kisbiga yetmish hunar oz.
3. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.
4. Mehnatdan kelsa boylik,
Turmush boʻlar chiroyli.
5. Bilagi zoʻr birni yigʻar,
Bilimi zoʻr mingni.
6. Bilim – baxt bergisi.
7. Dangasaga ish buyursang, aql orgatadi.
8. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh.
9. Gapni kam soʻzla, ishni koʻp koʻzla.

2-topshiriq. Mehnat va bilim haqida maqollar va hikmatli soʻzlardan bilganlaringizni ayting. Mazmunini izohlab bering.

3-topshiriq. Koʻrsatish olmoshlarini yod oling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

4-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Men bu qoʻshiqni juda yoqtiraman. 2. Oʻsha yiliyoq men universitetga oʻqishga kirdim. 3. Oʻshanda bunday boʻlishini kim ham oʻylabdi. 4. Shunday salqin joylarda miriqib dam olsang-da! 5. Ushbu darslik ikki marta qayta nashr qilindi. 6. Tohir shunaqa chiroyli yozadi.

5-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling va yod oling.

1. Вы знаете этого парня? 2. Сергей такой аккуратный.
3. Такие вопросы не решают на горячую голову. 4. Если вы так настаиваете, заберите. 5. Мы в том году отдыхали в Крыму.

BIZNING MAHALLA

32-mashg‘ulot

Suhbat

- Salomat, sen hovlida turasanmi, yo ko‘p qavatli uydami?
- Biz to‘qqiz qavatli uyning 5-qavatida turamiz.
- Uyingiz necha xonali?
- Uch xonali uyda turamiz. Sen-chi?
- Biz hovlida turamiz. Hovlimiz kattagina.
- Hovlingizda qanday daraxtlar bor?
- Olma, o‘rik va gilos daraxtlari bor.
- Senga maza ekan-da.
- Ha, lekin buning yomon tomoni ham bor.
- Qanaqa yomon tomoni?
- Hovli supurish, suv sepish. . .
- Voy, dangasa-yey!

SO‘ROQ OLMOSHLARI

(Вопросительные местоимения)

Местоимения, употребляемые для уточнения неизвестного, неопределенного предмета называют вопросительными. К ним относятся: kim? (кто?) (употребляется исключительно по отношению к человеку); nima? (что?), qayer? (какое место?), qachon? (когда?), necha?, qancha? (сколько?); qanday? qanaqa? (какой?) и др. Они имеют те же свойства, что и слова (части речи), отвечающие на них. К примеру, местоимения kim? nima? qayer? склоняются, могут принимать аффиксы множественного числа и принадлежности: Darsda kimlar javob berdi? (Кто отвечал на уроке). Kimda o‘zbek tili kitobi bor? (У кого есть книга по узбекскому языку). U kimning bo‘ladi? (Кем он тебе приходится?) и т.д.

Lugʻat ishi

shakllanmoq	формироваться
mahallichilik	маhalлинство
begona	чужой
inoq	дружный, дружно
bamaslahat	сообща
kerak boʻlsa	если понадобится
obodonlashtirish	благоустраивать
obod	благоустроенный
katta-yu kichik	и стар и млад
bosh-qosh boʻladilar	руководят
keksa	пожилой

1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

VATAN MAHALLADAN BOSHLANADI

Oʻzbeklarda «Mahallang – otang-onang», degan gap bor. Bu qadimdan shakllanib kelgan, boshqa davlatlarda uchramaydigan mahallachilik bilan bogʻliq.

Mahallada begonalar boʻlmaydi. Hamma inoq, ahil yashaydi. Har xil masalalar bamaslahat hal qilinadi. Toʻylar, maʼrakalar mahalla ahlisiz oʻtmaydi. Ayniqsa, mahallaning keksalari bu ishlarga bosh-qosh boʻladilar, yoshlarga maslahatlar berib turishadi.

Mahalla – tarbiya oʻchogʻi. U yerda nafaqat yoshlar, kerak boʻlsa, kattalarga ham tarbiya berib qoʻyishadi. Mahalla kattalarining nasihatlari yoshlar uchun katta boylik.

Mahallalar hududini obodonlashtirish uchun hasharlar uyushtirib turuladi. Unda katta-yu kichik birdek qatnashadi. Ariqlar, koʻchalar tozalanadi, axlatlar olib ketiladi. Mahalla obod boʻladi. Mahalla obodligi esa yurt obodligidir.

2-topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling. Savollarga javob bering.

1. Сколько учащихся в вашей группе? 2. Сколько лет вашему отцу? 3. Сколько стоит килограмм муки? 4. На каком этаже расположена библиотека? 5. Какой счет был во вчерашней игре?

3-topshiriq. Savollarga javob bering. Javoblaringizni rus tiliga tarjima qiling.

1. Sizga o‘zbek tilidan kim dars o‘tadi? 2. Siz qanday kitoblarni yoqtirasiz? 3. Siz o‘zbek tili darslarida nimalar qilasisiz? 4. Abdulla Qodiriyning qaysi romanlarini bilasisiz? 5. Siz qaysi futbol jamoasiga muxlislik qilasisiz?

4-topshiriq. O‘qing otlarning qaysi kelishik shaklida ekanini aying.

1. Tog‘ning ko‘rki tosh bilan, odam ko‘rki bosh bilan.
2. Mahallamiz odamlari bir-biri bilan juda qadrdon
3. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.
4. Kim birovga chuqur qazisa unga o‘zi yiqiladi.

33-mashg‘ulot

Suhbat

– Odil, sening o‘z xonang bormi?
– Yoq, xona akam ikkimizniki.
– Akang sendan necha yosh kattalar?
– Akam mendan uch yosh kattalar. Ular texnika universitetida o‘qiydilar.

– Kechasi bilan dars qilsalar, sen qanday uxlaysan?
– Nega endi, biz bir paytda dars qilamiz. Ular hatto menga yordam beradilar. Ba’zida men musiqa qo‘yib ularga xalaqit beraman.

– Xonangiz kattami?

– Kichkina ham emas. Hamma narsamiz joylashgan.

BELGILASH OLMOSHLARI **(Определительные местоимения)**

Определительные местоимения обозначают группы предметов и лиц, а также указывают на них в отдельности.

Они образуются сочетанием вопросительных местоимений со словом -har: har kim – каждый, har nima – все, всякая вещь, har qanday – всякий, har bir – каждый, har narsa – всякая вещь.

К ним так же относятся слова hamma, barcha, bari – все, ba’zi, aungim – отдельный, некоторое.

Местоимения hamma, barcha, bari имеют собирательное

значение. Talabalarning hammasi malakaviy ishlarni muvaffaqiyatli himoya qildi. — Все студенты успешно защитили квалификационные работы. Men bu kitoblarning barini o'qib chiqdim. — Я прочел все эти книги.

Lug'at ishi

... nomi bilan ataladi	носит имя. . .
istiqomat qiladi	проживает
hudud	территория
kichik korxonona	малое предприятие
marosim	обряд, мероприятие
yo'li-vo'riq	указания
qadoqlash	фасовать
sartaroshxonona	парикмахерская
novvoyxonona	пекарня

1-topshiriq. Matnni o'qing.

BIZNING MAHALLA

Men Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanida yashayman. Mahallamiz ham buyuk olim Mirzo Ulug'bek nomi bilan ataladi. Unda 542 ta oila, jami 2392 nafar kishi istiqomat qiladi.

Mahallamiz odamlari juda ahil. Har bir uydagi to'y va boshqa marosimlarda hamma birdek xizmat qiladi. Qariyalar esa yo'l-yo'riq ko'rsatib turishadi.

Mahallamiz hududida maktab, bolalar bo'g'chasi, poliklinika, 4 ta kichik korxonona bor. Ular asosan xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritadi.

Yaqinda mahallamizda yana bir — yog' qadaqlovchi korxonona ishga tushiriladi. Mahalla guzari qurilishi ham qizg'in bormoqda. Guzar ham hashar yo'li bilan qurilmoqda. U yerda sartaroshxonona, novvoyxonona, otalar choyxonasi bo'ladi. Kompyuter o'yinlari xonasi ham qurilyapti. Umuman, mahallamiz obod va ko'rkam bo'lib bormoqda.

2-topshiriq. Matnga asoslanib mahallangiz haqida hikoya qilib bering.

3-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga kerakli soʻzlarni qoʻyib koʻchiring.

1. Sharqda keksalarni donolarga 2. Shoirlarimiz ota-onalarni ulugʻlovchi koʻplab ... bitganlar. 3. Bugun mamlakatimizda qariyalar yanada 4. Keksalarni ... el gullab yashnashi tayin.

Soʻzlar: sheʼr, qiyoslamoq, ulugʻlamoq, qadr topmoq.

4-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Har kim ekanini oʻradi (maqol). 2. Biz har yili yozda Chimyonda dam olamiz. 3. Men har bir ishni sinchiklab oʻrganib chiqdim. 4. Har bir biletda uchtadan savol bor. 5. Bayramda hammamiz ishtirok etdik. 6. Har qachon, har yerda oʻz burchingni yodda tut.

5-topshiriq. Kerakli olmoshlarni qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Men ... ishni ... zahotiy oq bajaraman. 2. Oʻquvchilarning ... aʼlo va yaxshi baholar olishdi. 3. Bugun ... navbatchilik qiladi? 4. Siz ... taomni yaxshi koʻrasiz? 5. Dadamning kutubxonalarida ... kitoblar bor.

Soʻzlar: bu, hammasi, shu, har qanaqa, qaysi, kim.

6-topshiriq. Olmoshning har bir turi ishtirok etgan 7 ta gap tuzing.

JAMOAT TRANSPORTI

34-mashgʻulot

Suhbat

– Kechirasiz, bu yerdan Qoʻyliq dahasigacha boradigan transport bormi?

– Ha, bu yerdan Qoʻyliqqacha yoʻnalishli taksi boradi.

– Nechanchi yoʻnalishli taksi?

– 99-yoʻnalishli taksi. U Qoyliq bozorigacha boradi.

– Yonalishda «Otoyol» avtobuslari qatnaydimi?

– Yoq, xususiy mashanilar: «Raf», «Gazel», «Ford» kabi mikro avtobuslar yuradi.

- Ularga shu yerdan chiqamanmi?
- Yo‘q. Bu yerdan TTZ dahasi yo‘nalishida boradigan taksiga chiqish mumkin. Siz yo‘lni kesib o‘tib qarama-qarshi yo‘nalishda ketasiz.
- Ranmat.
- Xayr. Yaxshi yetib oling.

BO‘LISHSIZLIK OLMOSHLARI (Отрицательные местоимения)

Отрицательные местоимения, являясь противоположными по значению определительным, означают отрицание по отношению ко всем предметам и признакам.

Они образуются от вопросительных местоимений, слов *bir*, *parsa* с помощью слова *hech*: *hech kim* – никто, *hech nima* – ничто, *hech parsa* – ничто, *hech bir* – ни один, *hech qanday* – никакой, *hech qachon* – никогда, *hech qayer* – ни одно место и т.д.

Lug‘at ishi

inshoot	сооружение
mavjud	существует,
yo‘nalish	есть линия,
antiqa	направление диковинный
mamnun	доволен, довольный
atigi	всего лишь
keshismoq	пересекаться
sanoqli daqiqalar	считанные минуты
qulaylik	удобство

1-topshiriq. O‘qing, o‘zbek tiliga tarjima qiling.

QULAY VA TEZKOR

Toshkent metrosi o‘ziga xos ajoyib inshoot. U zilzila epitsentri bo‘ylab harakatlanadi.

Toshkent metrosining birinchi yo‘nalishi 1977-yil 7-noyabrda ish boshlagan, o‘shanda atigi yettita bekat mavjud bo‘lib, metro shahar markazini Chilonzor dahasi bilan bog‘lagan.

Hozirda Toshkent metrosining uchta yoʻnalishi boʻylab poyezdlar qatnovi yoʻlga qoʻyilgan. Ular «Chilonzor», «Oʻzbekiston» va «Yunusobod» deb nomlanadi. Ular shahar markazida keshishadi va yoʻlovchilarning bir yoʻldan boshqasiga oʻtishi uchun qulaylik tugʻdiradi. Shaharning bir burchagidan boshqasiga sanoqli daqiqalarda yetib olish mumkin.

Metroning har bir bekati oʻzgacha goʻzallikka ega. Ayniqsa, «Navoiy», «Chilonzor», «Kosmonavtlar» bekatlari antiqa usullarda bezatilgan.

Bu qulay va zamonaviy transport xizmatidan shahrimiz aholisi va mehmonlari juda mamnunlar.

2-topshiriq. Birikmalarni qatnashtirib gaplar tuzing.

Metro bekati, yangi yoʻnalish, oʻtgan yili ishga tushirildi, ozoda va yorugʻ, yoʻlovchilar uchun qulaylik, oʻtish yoʻlidan foydalanmoq.

3-topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Никто не мог понять откуда у него берутся силы. 2. Нигде больше не встретите таких добрых людей. 3. Никогда еще мне не доводилось так приятно провести время. 4. Ничто его так не интересовало раньше. 5. Ничего, не беспокойтесь.

4-topshiriq. Gaplarni koʻchiring olmoshlarning turini aniqlab, qaysi soʻz turkumi oʻrinda ishlatilganini ayting.

1. Hech qayerda hech qachon insonni inson urmasin (qoʻshiqdan). 2. Har kim ekanini oʻradi (maqol). 3. Oʻzbekiston oʻzining rivojlanish yoʻlini belgilab oldi. 4. Shu aziz Vatan barchamizniki. (I. Karimov) 5. Shundan keyin uni sira uchratmadim. 6. U hech narsa aytolmay yer chizib qoldi.

5-topshiriq. Ajratilgan soʻzlar oʻrniga olmoshlardan qoʻllab gaplarni koʻchiring.

1. Yurtimizda yaxshi insonlar juda koʻp. 2. **Salim** ishga shunchalik berilib ketdiki, hatto ovqatni ham unutdi. 3. **Shaharda** yangi bozor qurildi. 4. **Dushanba** kuni men oʻqishdan kech qaytaman. 5. **Oʻtirganlardan** hech birini tanimadim.

35-mashg'ulot

Suhbat

- Said, sen litseyga qaysi transportda kelasan?
- Men avval, 53-yo'nalishli taksida Oloy bozorigacha, u yerdan esa 38-, 57-, 67-avtobuslarda litseyimizgacha kelaman.
- Yo'ling ancha uzoq ekan. Qancha payt yo'lda bo'lasan?
- Ba'zida 1 soat, ba'zida ko'proq. O'zing-chi.
- Mening ishim oson. Uyimiz shundoq metro bekati yonida. Metroda «Oybek» bekatigacha kelaman. U yerdan sen aytgan avtobuslarda litseygacha kelaman. Atigi 20-25 daqiqa yo'l yuraman.
- Ha, senga oson ekan.

GUMON OLMOSHLARI

(Неопределенные местоимения)

Неопределенные местоимения означают неопределенное представление о предмете, признаке, случае. Они так же образуются от вопросительных местоименный, прибавлением аффикса *-dir* или префикса *-alla*: kimdir, allakim – кто-то, nimadir, allanima – что-то, qachondir – когда-то и т.д.

Местоимение *allaqachon* указывает не на неопределенность времени происхождения действия, а на её давность.

Men *allaqachon* she'mi yod olib bo'ldim. – Я давно уже выучил стихотворение.

Yodda tuting: Аффикс *-dir* прибавляется к местоимению после всяких других аффиксов: kimningdir – чей то, nimaningdir – что-то.

Lug'at ishi

kundan-kun	с каждым днем, день за днем
o'zgarish	изменение
ilgarigi	прежний
gusum	марка
qulay	удобный, удобно
beqiyos	несравнимый, несравнимо
eng muhumi	самое важное, самое главное
ifloslanish	загрязнение

1-topshiriq. Matnni o'qing.

SHAHAR TRANSPORTI

Toshkent katta va obod shahar. U kundan-kun go'zallashib bormoqda. Ko'plab yangi binolar, yo'llar qurilib, so'lim bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda.

Shahar transportida ham o'zgarishlar katta. Ilgarigi eski avtobuslar, tramvay va trolleybuslar o'rni «Mercedes», «Otoyol» avtobuslari, «Shkoda», «Tatra» rusumli tramvay va trolleybuslar egallagan. Ular aholi uchun juda qulay.

Shaharliklar va poytaxt mehmonlari uzog'ini yaqin qilishda metroning o'rni beqiyos.

Ko'plab yo'nalishlar bo'yicha qatnovchi taksilar sizni manzilingizga bir zumda eltadi. Yo'nalishlarda «Mercedes», «Ford», «Gazel» rusumli qulay mikroavtobuslar qatnaydi.

Eng muhimi bu zamonaviy transport vositalari atrof-muhit ifloslanishini kamaytiradi. Transport xizmatidan foydalaning. Yo'lingiz bexatar bo'lsin.

2-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Жители города очень любят этот коллектив. 2. Мы вчера были на авиационном заводе. 3. Если очень захотеть, можно добиться всего. 4. Отец помог мне перевести статью. 5. После окончания колледжа я хочу работать на заводе. 6. Сайиде подарили красивый букет.

3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O'zbek tilini qachondan beri o'rganasiz? 2. O'zbek tilidan birinchi o'qituvchingiz kim bo'lgan? 3. O'zbek shoirlaridan kimlarni bilasiz? Yozuvchilardan-chi? 4. Navoiyning «Hamsa»si qaysi dostonlardan iborat? 5. «Yulduzli tunlar» romanining muallifi kim?

4-topshiriq. O'zingiz ko'p foydalanadigan transport turi haqida 25–30 so'zdan iborat hikoya tuzing.

36-mashg'ulot

Suhbat

- Kechirasiz, bu yerdan eng yaqin metro bekatiga qanday borsa bo'ladi?
- Bu yerdan metroning «Paxtakor» va «Chilonzor» bekatlariga borsa bo'ladi. Sizga qay biri qulay?
- Qaysi biri yaqinroq?
- Ularning har ikkisi deyarli bir xil masofada. «Paxtakor»ga 53-, «Chilonzorga» esa 79-yoki 189-avtobuslarda borasiz.
- Birorta yo'nalishli taksi bilan ham borsa bo'ladimi?
- Bu yerdan yonalishli taksi o'tmaydi.
- Rahmat.
- Yaxshi yetib oling.

Lug'at ishi

Gavjum	многолюдный
Shoshiladi	спешит, торопится
bee'tibor	невнимательный
Qoidabuzarlik	правонарушение
ko'ngilsizlik	неприятность
rioya qilish	соблюдать
talab qilmaydi	не требует
roy bermoq	произойти

FE'L

(Глагол)

Слова, обозначающие действие или состояние, называются глаголом.

Начальной формой глагола в узбекском языке является *harakat nomi* – имя действия с аффиксом *-moq*. Все глаголы в словарях даются в этой форме. Глагол в узбекском языке не имеет категорию вида и все глаголы отвечают на вопрос *nima qilmoq?* (что делать? что сделать?).

Глаголы бывают ***o'timli*** (переходными) и ***o'timsiz*** (непереходными). Переходные глаголы означают действие непосредственно переходящие на другой предмет и сочетаются со словами в форме *tushum kelishigi* (винительный падеж).

Непереходные глаголы означают действие и состояние, совершаемое объективно. Сравните:

Переходные

koʻrmoq (onasini)
tikmoq (koʻylakni)
bermoq (qoʻlni)
sevmoq (Vatanini)

Непереходные

uchmoq
turmoq
yotmoq
oʻtirmoq

1-topshiriq. Matni oʻqing va rus tiliga tarjima qiling.

YOʻL QOIDASI — UMR FOYDASI

Shahrimiz koʻchalari gavjum. Hamma biror ish bilan qayergadir shoshiladi. Baʼzan yoʻl qoidalariga beeʼtibor ham boʻlishadi.

Kichik qoidabuzarlik katta koʻngilsizlikka olib kelishini unutmazlik lozim. Zero bizni koʻrib turgan kichik bolalar bizdan oʻrnak olishlarini hammamiz yaxshi bilamiz. Yoʻllarni belgilangan joylarda kesib oʻtish, sfetofor koʻrsatmalariga rioya qilish koʻp ham vaqt talab qilmaydi-ku.

Toʻxtab turgan avtobusni, trolleybusni orqa tomondan, tramvayni esa old tomondan aylanib otiladi.

Yoʻlni kesib oʻtishda avval chap keyin oʻng tomonga qaraladi.

Shu oddiygina qoidalarni bolalikdan bilamiz. Keling, ularga amal qilaylik. Toki yollarda baxtsiz hodisalar roʻy bermasin.

Oq yoʻl sizga, azizim!

2-topshiriq. Lugʻatdan foydalanib feʼllarni tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sogʻinmoq, kelishmoq, keltirmoq, kulmoq, toʻplamoq, eshitmoq.

3-topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling. Shu birikmalar qatnashgan gaplar tuzing.

1. Выполнить обещание. 2. Знать правило. 3. Запоминать новые слова. 4. Перевести через улицу. 5. Употреблять в пищу. 5. Ответить на телефонный звонок.

4-topshiriq. Nuqtalar oʻmiga mos feʼllarni qoʻyib koʻchiring.

1. Bilim olish – 2. Maktabda ... davomida u oʻzini yaxshi tomondan koʻrsatdi. 3. Orzuim – institutga oʻqishga 4. Malakali mutaxassis boʻlib ... – orzumiz. 5. Vatanni ... imondandir.

Feʼllar: oʻqish, kirish, yuksalish, sevmq, yetishish.

5-topshiriq. Kerakli joyni soʻrab bilish, maʼlum bir joyga borish yoʻnalishini bilib olishga doir dialoglar tuzing.

OILAM – TAYANCHIM VA FAXRIM

37-mashgʻulot

Suhbat

- Latofat, sizlar oilada necha kishisiz?
- Oilada biz olti kishimiz: dadam, oyim, uchta akam va men.
- Uchta akang bormi?
- Ha.
- Ular ham oʻqishadimi?
- Katta akam Agrar universitetni tamomlaganlar. Oʻrtancha akam Axborot texnologiyalari universitetida magistrantlar. Kichik akam esa Sanʼat institutini tamomlayaptilar.
- Hammalari oliy maʼlumotli boʻlar ekan-da.
- Ha, dadam oʻqituvchilar. Shuning uchun hammamiz oʻqib, oliy maʼlumoti boʻlishimizni xohlaydilar.
- Oying-chi? Oying nima ish qiladilar?
- Oyim bolalar bogʻchasida tarbiyachilar.

FEʼL YASALISHI

(Образование глагола)

Глаголы образуются с помощью специальных аффиксов, а также сложением двух или более основ.

Наиболее употребительны аффиксы:

- **la:** tuzla, oqla, moyla va boshqalar;
- **a:** ata, yasha, boʻsha;
- **(a)y:** qoray, kengay, toray;

- (a)r: ko‘kar, qisqar, eskir;
- i: chang‘i, tinchi, boyi;
- illa: qurilla, chirilla;
- Ian: otlan, lazzatlan;
- lash: maslahatlash, bellash;
- sira: suvsira, uyqusira.

Yodda tuting: данным способом глаголы образуются лишь из других частей речи.

Lug‘at ishi

ahil	дружный, дружно
hisobchi	бухгалтер
hamshira	медсестра
birga	вместе
erinmay	не ленясь
tekshirmoq	проверить
istamoq	хотеть
o‘rtancha (akam)	средний (старший брат)
umidlari katta	возлагают большие надежды

1-topshiriq. Yangi so‘zlar ishtirokida birikmalar tuzib, yod oling.

2-topshiriq. Matnni o‘qing.

BIZ AHIL OILAMIZ

Bizning oilamiz kattagina: dadam, oyim, akam, men va ikkita ukam.

Dadam hisobchi bo‘lib ishlaydilar, oyim hamshiralar. Akam Aviatsiya institutining 3-kursida o‘qiydilar. Men litsey o‘quvchisiman. Ukalarim 5-va 8-sinflarda o‘qishadi.

Kechqurunlari hammamiz yig‘ilgach, birga televizor ko‘ramiz, har xil mavzularda suhbatlashamiz. Dadam va oyim dars tayyorlaganimizni erinmay tekshirishadi. Ular bizning a‘lo baholarga o‘qishimizni istashadi. Kelajakda bizdan umidlari katta.

Dam olish kunlari kino, teatr, bog‘larga boramiz. Biz Bobur bog‘ida bo‘lishni yaxshi ko‘ramiz.

Oilamizda hamma sportchi. Ertalablari birga mashq qilamiz. Biz shunday ahil oilamiz.

3-topshiriq. Matn asosida o'z oilangiz haqida hikoya yozing.

4-topshiriq. Berilgan so'zlardan fe'llar yasang, ular ishtirokida birikmalar tuzing.

To'g'ri, yot (чужой), yig'i, gul, toza, keksa.

5-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Fe'llarning yasalishini tushuntiring.

1. Do'kondan 5–6 ta narsa xarid qilmoqchiman. 2. Maktab bog'ida payvandlash ishlarini tamomladik. 3. Ukam g'izillab borib dadamni chaqirib keldi. 4. Biroz bo'sh qoldimmi, musiqa tinglayman. 5. Men shu vaqtgacha Buxoro, Xorazm va Nukusda bo'lib ulgurdim.

38-mashg'ulot

Suhbat

– Saida, sen uyingga tez-tez xat yozib turasanmi?

– Ha, albatta. Agar xat yozmasam oyim, dadam xavotir bo'lishadi. Qolaversa, o'zim ham ularni sog'inaman.

– Ular ham xat yozishadimi?

– Ha deyarli har kuni xat olaman. Qarindoshlarimiz ko'p-da. Bir kun uydan, bir kun amakimdan, bir kun xolamdan... Xullas ko'p xat olaman.

– Ta'tilga ham oz qoldi. Uydagilaringni ko'rgani borasan.

– Ha, ularni, ayniqsa oyimni sog'indim. Ta'til boshlanishi bilan uyga chopaman.

– Bizlarni unitib yubormagin.

– Yo'g'-e, nega unday deysan!

QO'SHMA FE'L

(Сложные глаголы)

Сложные глаголы в узбекском языке бывают двух типов: 1) имя+глагол: qaror qilmoq (решить, постановить), tavsiya qilmoq (рекомендовать), taklif qilmoq (пригласить, предложить), ozod qilmoq (освободить), hayron bo'lmoq (удивляться) и т.д. Чаще в этих случаях употребляются глаголы qilmoq, etmoq (делать), bo'lmoq (быть), qolmoq (остаться). При переводе они

как бы пропускаются: *jim bo'lmoq* (успокоиться), *xafa bo'lmoq* (обидеться), *xursand bo'lmoq* (радоваться) и т.д.

2) глагол+глагол. В этом случае первый, глагол употребляется в деепричастной форме: *olib kelmoq* (принести): *olib chiqmoq* (вынести), *sotib olmoq* (купить), таких глаголов в узбекском языке не так много. И их не следует путать со вспомогательными глаголами.

Yodda tuting: все сложные глаголы в узбекском языке пишутся раздельно.

Lug'at ishi

<i>ko'rgani</i>	чтобы навестить
<i>evara</i>	правнук
<i>tayinlamoq</i>	1) настоятельно посоветовать 2) назначать
<i>pishgan</i>	поспел; спелый
<i>uy-uyiga</i>	разошлись по домам
<i>yig'ilmoq</i>	собираться
<i>an'ana</i>	традиция
<i>o'ziga xos</i>	своеобразный

1-topshiriq. Matni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

OILA MUQADDAS DARGOH

Dam olish kuni buvam bilan buvimni ko'rgani bordik. Ular kattagina hovlida amakim bilan yashashadi. Dadamlar oilada beshta farzand bo'lishgan. Shu kuni hamma yig'ildi. Keng hovliga ham sig'may qoldik, chunki buvim va buvamning o'n yettita nabiralari, oltita evaralari bor. Hamma jam bo'lib, dasturxon atrofida yig'ilganda oila muqaddas ekanini his qiladi kishi.

Buvam har birimizning o'qish va ishlarimizni surishtirdilar, yaxshi o'qishni tayinlab, duo qildilar. Keyin o'z qo'llari bilan palov pishirdilar. Bu o'ziga xos an'ana. Doim ularnikida yig'ilganmizda buvam o'zlari osh qiladilar.

Biz bolalar mazza qilib o'ynadik. Bog'da mevalar g'arq pishgan. Olma, uzumga rosa to'yidik.

Kech tushgach hamma uy-yuiga tarqaladi. Endi hayit bayrami kuni yig'iladigan bo'ldik. Men shu kunning tezroq kelishini istardim.

2-topshiriq. Oilangiz an'analari, qarindosh-urug'laringiz haqida hikoya qilib bering.

3-topshiriq. Qarindoslikni bildiradigan so'zlarni aytib bering. Bilmaganlaringizni lug'atdan foydalanib yod oling.

4-topshiriq. Qo'shma fe'llar qatnashgan oltita gap tuzing.

5-topshiriq. Quyidagi so'zlardan ot + fe'l tipida fe'l yasang va ularni qatnashtirib gaplar tuzing.

Xursand, xafa, rad, e'lon, bekor.

O'ZBEK OSHXONASIDA

39-mashg'ulot

Suhbat

- Sergey, sen o'zbek milliy taomlarini bilasanmi?
- Albatta, palov, manti, sho'rva, norin, hasip kabi taomlarni bilaman.
- Ulardan qaysisi senga ko'proq yoqadi?
- Men palovni xush ko'raman. Boshqa ovqatlarni ham yeyaveraman.
- Palov qanday tayyorlanishini bilasanmi?
- Ha, bilaman. O'rtog'im Azizning uyida bo'lganimda dadasi osh qilib berganlar, biz yordamlashganmiz. Ovqat tayyorlash menga juda yoqqan edi.
- O'zing ovqat qilishni bilasanmi?
- Kartoshka, tuxum qovurishni xolos.

КО'МАКЧИ ФЕ'Л

(Вспомогательные глаголы)

В узбекском языке для указания разной характеристики действий, а также передачи различных модальных значений употребляют вспомогательные глаголы.

В современном узбекском языке в качестве вспомогательных могут употребляться глаголы: ol, ber, yot, tur, yur, o'tir, bo'l, boshla, qol, qo'uy, chiq, bor, kel, ket, yubor, ko'r, yoz и др.

При этом они полностью или частично теряют свое лексическое значение. Глагол, с которым связуется вспомогательный, называют основным, и он всегда – употребляется в деепричастной форме с аффиксами –(i)b; –a(y).

Например: o'qiy olmoq – смочь читать, o'qib chiqmoq – закончить читать, yozib ko'tmoq – попробовать написать и т.д.

Эту форму нельзя путать со сложными глаголами типа olib bermoq (купить кому-то), olib ketmoq (уносить) и т.д.

Сложный глагол обозначает одно единое действие.

Форма со вспомогательным глаголом выражает различные модальные значения. Например, глагол olmoq (брать) в сочетании с формой на -(i)b указывает, что действие совершается в интересах субъекта: yozib olmoq (записать для себя); bilib olmoq (узнать); в сочетании же с формой на -a(y), указывает на возможность совершения действия (и переводится глаголом «мочь»): yoza olmoq, o'qiy olmoq. Глагол bermoq указывает на то, что действие совершается для другого субъекта: yozib bermoq (написать для кого-то), o'qib bermoq (прочитать кому-то) или на продолжительность действия выраженного основным глаголом: yozavermoq (продолжать писать), o'qiyvermoq (продолжать читать). В этом случае глагол произносится и пишется как -vermoq.

Lug'at ishi

pishirish	готовить (блюда)
to'g'ramoq	резать (овощи)
archmoq	очистить (овощи)
qalamcha	соломка
eritmoq	растопить
qizdirmoq	подогреть
ziravorlar	приправа
damlamoq	1) тушить (блюдо); 2) заваривать (чай)
ivitmoq	замачивать

dumba	курдюк
mayiz	1) изюм, (сушеный виноград)
	2) кишмиш
sarimsoq	чеснок

1-topshiriq. Soʻz birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Pishirishni yaxshi koʻrmoq, har xil ziravorlar, mayda toʻgʻramoq, achchiq damlangan, hil-hil boʻlib pishgan.

2-topshiriq. Matni oʻqing. Rus tiliga tarjima qiling.

PALOVXONTOʻRA

Bu taomning nomi bejiz buncha ulugʻlanmagan. Palovni yoqtirmaydigan oʻzbekni, ayniqsa, yigitni topish qiyin. Toʻrt-besh kisbi boʻlib choyxonada palov yegan biladi buning gashtini.

Palov, unu osh deb ham ataydilar, turlicha tayyorlanadi, har kim oʻzgacha palovni xush koʻradi.

Odatda, palov qilish uchun sabzini archib, qalamcha shaklida toʻgʻraladi. Qoʻy goʻshti mayda toʻgʻraladi.

Biroz qizdirilgan qozonga maydaroq toʻgʻralgan dumba solib eritiladi. Tayyor jizza olingach, qozonga piyoz solinib, qizartiriladi. Keyin gʻoʻsht solinadi. Biroz qovurilgach, sabzi solinadi. U ham qovurilgach, ziravorlar, tuz solinib, qozonga suv quyiladi.

Bu orada guruch tozalab yuviladi va ivitib qoʻyiladi. Osh pishirishda ayniqsa guruchning sifatiga eʼtibor beriladi.

Qozondagi masalliqlar biroq qaynatilgach, guruch solinadi. U suvni shimib olguniga qadar aralashtirib turiladi. Bunda sabzi-piyoz aralashtirilmaydi. Guruch suvni shimib olgach, qozon oʻrtasiga toʻplanib, bir necha yeridan qoshiq yordamida oʻyilib, qozon yopiladi. Osh 15–20 daqiqa damlanadi.

Baʼzan palovga behi, olma, sarimsoq solib ham damlashadi.

3-topshiriq. Sizning uyda palov qanday tayyorlanishini aytib bering.

4-topshiriq. Maqollarni yod oling.

1. Xo‘ra oshdan o‘lar, to‘ra tomoqdan.
2. Sihat tilasang, oz ye.
3. Ishtaha ovqat paytida keladi.
4. Nonning uvog‘i ham non.
5. Nimani xor qilsang, shunga zor bo‘lasan.

5-topshiriq. So‘z qo‘shilmalarini rus tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

O‘qib bermoq, so‘nib qolmoq, kutib yurmoq, tanib olmoq, berib yubormoq.

6-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я расскажу тебе много интересного.
2. Он все еще ходит на стадион.
3. Я закончил писать квалификационную работу.
4. В магазине я случайно увидел своего старого знакомого.
5. Хозяева приняли нас с радостью.

40-mashg‘ulot

Suhbat

- Salim, kel bugun kechki ovqatni birga yeymiz.
- Mayli. Biroq qayerga boramiz?
- Mirobod bozori yonida «Dilkash» kafesi bor. U yerda doim devziradan osh qilishadi.
- U yerda Yevropa taomlarini ham pishirishadimi?
- Yo‘q, u yerda faqat Andijoncha taomlar bo‘ladi.
- Men yevropacha taomlarni yoqtiraman-da.
- Kel, unda «Ormon dala» kefesida ovqatlanamiz. U yerda milliy va yevropa taomlari, hatto ozarbayjon taomlari tayyorlanadi.
- Yaxshi. Ozarbayjon taomlaridan ta‘tib ko‘ramiz unda.
- Xo‘p. Soat 8 da o‘sha yerda uchrashamiz.
- Kelishdik. Ko‘rishguncha.

Lug‘at ishi

tushuncha

keng

qamrovli soha

понятие

широкое

сфера, отрасль

me'yor	норма
nutq	речь
kiyinish	одеваться
uzatib yubormoq	передать
yutmoq	1. глотать, глотнуть, проглотить 2. выграть, обыграть
sanchqi	вилка
namoyish etmoq	показывать, демонстрировать

FE'LNING VAZIFA UCHUN XOSLANGAN SHAKLLARI (Функциональные формы глагола)

В узбекском языке глагол имеет три функциональных форм: *sifatdosh* (причастие), *ravishdosh* (деепричастие), *harakat nomi* (имя действия).

SIFATDOSH (Причастие)

Причастие - форма глагола, обозначающая признак предмета или лица, сочетающаяся в себе свойства глагола и прилагательного.

Причастие в узбекском языке имеет следующие формы: **o'tgan zamon sifatdoshi** (причастие прошедшего времени) - указывает на признак предмета исходя из действия в прошедшем времени, образуется с помощью аффикса *-gan*: *o'tirgan* (сидящий), *yozgan* (написавший) и т.д.

Hozirgi zamon sifatdoshi (причастие настоящего времени) образуется от деепричастий на аффикс *-a(-u)* с аффиксом *-yotgan*: *ketayotgan* (уходящий), *ishlayotgan* (работающий) и т.д.

Hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi (причастие настоящего-будущего времени) образуется с аффиксом *-digan*: *ishlaydigan* (работающий или тот, который будет работать), *yozadigan* (пишущий или тот, который будет писать).

Причастие имеет отрицательную форму, которая образуется с аффиксом *-ta*, этот аффикс прибавляется сразу после корня или основы: *yozmagan* (не написавший), *yozmayotgan* (не пишущий), *yozmaydigan* (не пишущий или тот, который не будет писать).

Kelasi zamon sifatdoshi (причастие будущего времени) образуется с аффиксами -(a)г и -mas (отрицательная форма): o'qir, uozar, o'qimas, uozmas. Эта форма самостоятельно практически не употребляется, но является основой для образования форм времени.

Причастия, как и прилагательное, могут употребляться вместо имен существительных: Ko'p o'qigan ko'p biladi (Читавший много, знает много). Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'ura (поговорка; буквально: тот, который ходит – река, тот, кто сидит – коврик).

1-topshiriq. *Bilmoq* fe'lidan barcha sifatdosh shakllarini yasang, ularni qatnashtirib gaplar tuzing.

2-topshiriq. Matni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

ODOB OLTINDAN QIMMAT

Odob keng qamrovli tushuncha. Har bir sohaning o'z odobi me'yorlari mavjud: nutq odobi, kiyinish odobi, ovqatlanish odobi.

Ovqatlanish ham bir madaniyat. Unga ham odobga rioya etish zarur. Ovqatga kattalardan oldin qo'l uzatmaslik, ovqat yeganda chapillamaslik, ovqat paytida gaplashmaslik lozim.

Biror narsani uzatib yuborishlarini so'rashdan oldin og'zingizdagini yutub, salfetka yoki sochiqcha bilan og'zingizni arting.

Dasturxon atrofida qattiq kulish, baqirib gaplashish ham odobdan emas. Taomni qoshiq yoki sanchqi bilan olib yeyish kerak.

Umuman, ovqatlanayotib ham kishi o'zining madaniyati darajasini namoyish etadi.

3-topshiriq. Dasturxon atrofidagi vaziyatga oid dialoglar tuzing. Bunda quyidagi so'z va birikmalardan foydalaning.

Marhamat qilib, uzatib yuborasizmi, qiyin bo'lmasa, yoqimli ishtaha, osh bo'lsin.

4-topshiriq. Milliy taomlardan iborat taomnoma tuzing.

5-topshiriq. O'zingiz sevib tanovul qiladigan ovqatning qanday tayyorlanishini aytib bering.

6-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Приятного аппетита.
2. Передайте соль, пожалуйста.
3. Что у нас сегодня на ужин?
4. Какие у вас есть первые (вторые) блюда.
5. Спасибо, вы отлично готовите.
6. Разрешите пригласить вас на обед (ужин).
7. Давай, выпьем по чашечке кофе.

OSHXONADA

41-mashg‘ulot

Suhbat

- Assalomu alaykum. Xush kelibsiz.
 - Salom. Marhamat qilib taomnomani bersangiz.
 - Marhamat.
 - Bizga yarimtadan lag‘mon, ikkinchisiga yarimtadan osh, bitta non, choy bersangiz.
 - Qora choymi yoki ko‘k choymi?
 - Qora choy.
 - Achiq-chuchuk kerak emasmi?
 - Qarang, unutibman. Albatta keltiring.
 - Xo‘p bo‘ladi. Hozir.
 - Rahmat.
 - Marhamat, taomlaringiz. Yoqimli ishtaha.
 - Rahmat.
- * * *
- Marhamat qilib hisobni keltirsangiz.
 - Mana hisob. Sizdan 1550 so‘m.
 - Mana oling.
 - Rahmat. Kelib turing.

RAVISHDOSH

(Деепричастие)

Деепричастие – форма глагола, указывающая на признак действия или состояния.

В узбекском языке деепричастия образуются с помощью следующих аффиксов:

-(i) b: so‘rab (спросив, попросив), eslab (вспомнив), yig‘ilib (собравшись) и т.д. Это форма выполняет различные функции.

-i (-a): oʻylay (думая), uga (идя). Чаще эти деепричастия употребляются повторно.

Деепричастия в этой форме:

– обозначают признак (способ совершения) действия: *Saida bilib gapiradi*. (Сайда знает что говорит (буквально: Сайда говорит зная).

– связывает основной и вспомогательный глаголы: *uzib koʻr* (попробуй – напиши), *kelib tur* (приходи) и др.

– связывает части сложного предложения, являясь сказуемым придаточного: *Tuproqda tuz koʻpayib, daraxtlar quriy boshladi* (Из-за того, что в земле много соли, деревья начали сохнуть).

– является основой для образования пересказительного прошедшего времени.

Отрицательная форма этих деепричастий образуются с помощью аффиксов *-may*, *-masdan*: *oʻylab* (подумав), *oʻylamay*, *oʻylamasdan* (не подумав).

– **gach**: *kelgach* (придя), *uzgach* (написав), *bilgach* (узнав) и т.д. Это форма:

– означает время: *Uga kelgach, biroz dam oldim* (Придя домой, немного отдохнул)

– означает причину: *Yomgʻir yogʻa boshlagach, hammamiz tarqaldik*. (Так как пошел дождь, мы все разошлись).

– **guncha**: *kelguncha* (до того, как пришел), *bilguncha* (до того, как узнал), *chiqquncha* (до того, как вышел) и т.д. Деепричастия в этой форме:

– означают время совершения действия обозначенного глаголом, с которым они связаны: *Uga yetib borguncha, men ivib ketdim* (Пока дошла до дома, я вся промокла).

– является сказуемым придаточного в составе сложноподчиненного предложения и означает сравнение. В этом случае действие, выраженное глаголом в главном предложении предпочтительнее чем выраженное причастной формой: *Tiz choʻkib yashaguncha, tik turib oʻlgan yaxshi*. (Буквально: лучше стоя умереть, чем жить преклоняясь).

– **gani**. С его помощью образуются деепричастия, означающие намерение: *koʻrgani* (чтобы навестить, увидеть), *bilgani* (чтобы знать), *oʻqigani* (чтобы учиться) и т.д.

Этот тип деепричастий не имеет отрицательной формы.

Lug‘at ishi

nishonlamoq	отметить
yuzaga keldi	возник
cho‘zilib ketdi	затянулся
o‘zlashtirish	успеваемость
duch kelganicha	как придется
barcha ehtimoliy	все возможные
joy almashtirish	перемещение
taklif qilmoq	предлагать
yana	вновь
mehmon qilmoq	угощать
alifbo tartibida	в алфавитном порядке
yoshiga qarab	по возрасту
joylashishlar	размещения
har kuni, kuniga	ежедневно

1-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

БЕСПЛАТНЫЙ ОБЕД

Десять молодых людей решили отметить окончание университета обедом в ресторане. Когда все собрались и надо было садиться за стол, возник спор: как сесть?

Одни предлагали сесть в алфавитном порядке, другие – по возрасту, третьи – по успеваемости, четвертые – по росту.

Спор затянулся, блюда начали остывать. Тогда на помощь молодым людям пришел официант:

«Сядьте как придется и запишите, в каком порядке вы сидите. Завтра вновь приходите сюда и садитесь в ином порядке. И так будете продолжать до тех пор, пока не перепробуете все возможные размещения. Когда же придет очередь снова сесть так, как сегодня, я буду ежедневно угощать вас бесплатно самыми лучшими блюдами».

Предложение понравилось. Решено было ежедневно собираться в этом ресторане, чтобы скорее начать пользоваться бесплатными обедами.

Однако молодые люди не дождались этого дня. Как вы думаете почему?

(Потому что число всех возможных перемещений за столом — 3 628 800. Бесплатными обедами молодые люди смогли бы пользоваться только через 10 000 лет.)

2-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Окончив университет, я буду преподавать историю. 2. Вали, не слушая моих слов, продолжал свою работу. 3. Мы расстались, пожелав друг-другу счастливого пути. 4. Прочитав ваше письмо, я очень обрадовался. 5. Позавтракав, я начал собираться в дорогу. 6. Я сегодня еду навестить своего большого друга. 7. Я вернусь до того, как придет мама.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Gapingga tushuna olmay hayronman-da! 2. O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir. (maqol) 3. Bolasi tushmagur u yoqdan bu yoqqa yugura-yugura charchab uxlab qoldi. 4. Kitobni olib, kutubxonadan chiqdim. 5. Kelib-kelib sizni aldaymanmi!

MAISHIY XIZMAT 42-mashg‘ulot Suhbat

SARTAROSHXONADA

- Assalomu alaykum. Navbatda oxirgi kim?
- Men oxirgiman. Siz mendan keyin bo‘lasiz.

* * *

- Men sochimni oldirmoqchiman.
- Marhamat, o‘tiring. Xo‘sh socenni qanday olamiz?
- Iloji boricha kaltaroq qilib olasiz.
- Boshingizni yuvamizmi?
- Mayli.

- Xizmat haqi qancha bo‘ladi?
- Yetti yuz ellik so‘m.
- Marhamat. Oling.
- Menga emas, kassaga to‘laysiz.
- Xo‘p bo‘ladi
- Yaxshi boring.
- Rahmat.

Lug‘at ishi

savdo	торговля, торговый
umumiy ovqatlanish	общественное питание
maishiy xizmat	служба быта
imtiyoz	льгота
chegirma	скидки
kimyoviy tozalash	химчистка
sartarosh	парикмахер
sifatli	качественный
xo‘jalik mollari	хозяйственные товары
ziyrak	чуткий

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

MAHALLA GUZARIDA

Yaqinda mahallamizda yangi guzar ishga tushdi. U yerda savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat korxonalari ham ishlab turibdi. Kattagina sartaroshxonada ayollar, erkaklar zallari va alohida bolalar zali mavjud. Maktab o‘quvchilari uchun imtiyozlar ko‘zda tutilgan.

Sartaroshxona yonida kimyoviy tozalash shoxobchasi bo‘lib, u ham ko‘pchilikning og‘irini yengil qilmoqda. Chet el texnologiyasi asosida kiyimlarni tez va sifatli tozalab berishadi.

Otalar choyxonasida milliy taomlar tayyorlanadi. Istantangiz o‘zingiz taom pishirishingiz mumkin. Buning uchun hamma sharoit bor.

Oziq-ovqatlar, xo‘jalik mollari do‘konlari ham insonlar xizmatida.

Xushmuomala, ziyrak xodimlar xizmatidan mahalla ahli juda xursand.

HARAKAT NOMI (Имя действия)

Имя действия – форма глагола, называющая действие или состояние, не указывая на время, лицо, число и другие, является термином действия. Оно сочетает в себе свойства глагола и имен существительных. Поэтому имя действия может иметь грамматические категории имен существительных.

Оно образуется с аффиксами:

– (i) **sh**: yugurish (бегать, бег), chekish (курить, куренис), suzish (плавать, плавание);

– (u) **v**: o^oquv (учение), so^orov (анкетирование), yozuv (письмо) и т.д. Это форма чаще переводится именем существительным, так как в узбекском языке имеет больше значение существительного. Некоторые из этих форм перешли в имена существительные: saylov (выборы), o^oquv (учение) и т.д. Не все глаголы могут иметь такую форму.

– **moq**: o^oqimoq (учиться), bilmoq (знать). Как мы говорили раньше, это форма считается в узбекском языке начальной формой глагола.

Все три формы имени действия не могут принимать отрицательного аффикса -ma. Так как они по смыслу особо не различаются, имеют одинаковую отрицательную форму, образующуюся с аффиксом -maslik: o^oqimaslik (не ученье), bilmaslik (незнание, не знать) и т.д.

Yodda tuting: при прибавлении к глаголам, заканчивающимся на звуки а или і аффиксов, начинающихся на v или q происходит чередование звуков: а-о, і-и: so^ora-so^orov, o^oqi-o^oquv, to^oqi-to^oquv, sayla-saylov, sayga-saygoqi, yangra-yangroq.

Все отглагольные имена в русском языке переводятся на узбекский формой имени действия: чтение – o^oqish.

2-topshiriq. O^ozbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы собирались посмотреть фильм «9-рота». 2. Нужно хорошенько отдохнуть. 3. Я могу сейчас зайти к директору? 4. Я хочу сообщить вам приятную новость. 5. Я люблю готовить, печь. 6. Чтобы много знать, надо много учиться.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin (maqol). 2. Men o‘qishga kirish uchun puxta tayyorlanayapman. 3. Kechagi uchra-shuvdan hammaning ko‘ngli to‘ldi. 4. Ertalaboq yo‘lga chiqishimiz zarur. 5. Bu yerda chekish mumkin emas. 6. Vatanni sevmok – oily fazilat. 7. Buni bilmasligingiz siz uchun uyat.

4-topshiriq. Quyidagi birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

Hasharga chiqmoq, ariqlarni tozalamoq, qiziqarli suhbat, askiyada qatnashmoq, ahil bo‘moq.

43-mashg‘ulot Suhbat

– Kechirasiz, bilmaysizmi «Toshkent» univermagi soat nechagacha ishlaydi?

– Adashmasam, soat 18.00 gacha.

– Hozir soat nech?

– Hozir 17 dan 20 daqiqa o‘tdi.

– Borib ulgurarmikanman. Nima deysiz?

– Agar yo‘nalishli taksida borsangiz, bemalol xarid qilishga ham ulgurasiz. Yo ko‘p narsa sotib olasizmi?

– Yo‘q. Unchalik emas.

– Ana 71-yo‘nalishli taksi. Shunga o‘tirsangiz o‘n daqiqada eltib qo‘yadi.

– Rahmat sizga.

– Xaridingiz baroridan kelisin!

Lug‘at ishi

majmua	комплекс
kafolatli	гарантированный, гарантийный
taklif etmoq	1) предлагать; 2) приглашать
bichish	кройка
tikish	шитьё
ta‘mirlash	ремонт

ustki kiyim	верхняя одежда
buyurtma	заказ
ro'yxatga olingan	зарегистрирован

1-topshiriq. O'qing. Mazmunini aytib bering.

SIZGA XIZMAT QILAMIZ

Hurmatli hamshaharlar va shahrimiz mehmonlari! «Ozoda» maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi sizlarga o'zining kafolatli xizmatlarini taklif etadi.

Zamonaviy kimyoviy tozalash sexi, bicbish-tikish sexi, poyabzal ta'mirlash ustaxonasi, sartaroshxona sizning xizmingizda.

Bichish-tikish sexi erkaklar, ayollar va bolalarning ustki kiyimlarini tikish, bicbish va ta'mirlash uchun buyurtmalar qabul qiladi.

Barcha xizmatlar ro'yxatga olingan. Maxsus chegirmalar ko'zda tutilgan

Manzil: Chilonzor-19. 20-uy. Tel: 74-02-90

2-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Пожалуйста, примите заказ. 2. Я хотел сдать пальто... на химчистку. 3. Когда заказ будет готов? 4. Вы шьете мужскую одежду? 5. До скольких у вас перерыв. 6. Могу я вас спросить...

3-topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, o'zaro suhbatlashing.

4-topshiriq. O'zingiz xizmatlaridan foydalanadigan maishiy xizmat muassasasi haqida aytib bering.

FE'L ZAMONLARI (Времена глагола)

Категория времени выражает отношение действия к моменту речи.

В узбекском языке три формы времени: o'tgan zamon (прошедшее время), hozirgi zamon (настоящее время) и kelasi zamon (будущее время).

Каждое из этих времен имеет по несколько форм.

О‘ТGAN ZAMON (Прошедшее время)

Глаголы в прошедшем времени обозначают действия, совершенные до момента речи. Прошедшее время в узбекском языке имеет следующие формы: yaqin o‘tgan zamon (недавно прошедшее время), uzoq o‘tgan zamon (давно прошедшее время), o‘tgan zamon hikoya fe’li (форма пересказительного прошедшего времени), o‘tgan zamon maqsad fe’li (глагол намерения прошедшего времени), o‘tgan zamon davom fe’li (продолжительное прошедшее время).

YAQIN O‘TGAN ZAMON (Недавно прошедшее время)

В некоторых учебниках эту форму называют aniq o‘tgan zamon (очевидное прошедшее время), оно выражает действия, очевидцем или участником которого был говорящий, и совершенное не задолго до момента речи.

Это форма образуется прибавлением к основе глагола аффикса -di и личных аффиксов спряжения:

	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs	tush+di+m	tush+di+k
2-shaxs	tush+di+ng	tush+di+ngiz
3-shaxs	tush+di	tush+di (lar)

Отрицательная форма таких глаголов образуется с помощью отрицательного аффикса -ma, который прибавляется перед временным аффиксом: tushmadim, tushmadingiz и т.д.

Yodda tuting: Аффикс -lar в третьем лице множественного числа может употребляться лишь по отношению к людям, но не всегда.

4-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. В этом году мы приняли 130 учащихся. 2. Сегодня мы занимались в учебной мастерской. 3. Ты учил правила? 4. К нам

приехали гости из Ферганы. 5. В этом году мой старший брат будет поступать в военное училище.

5-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Maktabni tamomlab, Axborot texnologiyalari universitetiga o`qishga kirdim. 2. Darsda Salim va O`tkir qatnashmadi, ular sport musobaqalariga jo`nab ketishdi. 3. Mahallamizda yangi do`kon ochildi. 4. Shu yili yozuvchi «Navoiy» romanini yozib tamomladi.

6-topshiriq. Fe`llarni tegishli shaklda qo`llab, gaplarni ko`chiring.

1. Men Navoiy nomidagi 1-maktabni (bitirmoq). 2. Sayohatga (otlanmoq) do`stlarimizni vokzalga (kuzatib bormoq). 3. U shunday (berilmoq) (kuylamoq)ki, hamma beixtiyor (jim bo`lib qolmoq). 4. Shahrimiz keyingi yillarda ancha (ko`rkamlashmoq).

SAVDO MUASSASALARIDA

44-mashg`ulot

Suhbat

- Tohir, darslardan keyin nima qilasan?
- Uyga ketaman. Nima edi?
- Vaqting bo`lsa birga do`kon aylansak, degandim.
- Nima sotib olmoqchisan?
- O`zimga tufli sotib olishim kerak.
- Unda «Chilonzor» buyum bozoriga bora qolaylik.
- Kech bo`lmaydimi?
- Yo`q. Bemalol ulguramiz. U yerda bemalol tanlash imkoni bo`ladi.
- Mayli, unda darsdan keyin ko`rishamiz.
- Kelishdik.

UZOQ O`TGAN ZAMON

(Давно прошедшее время)

Давно прошедшее время образуется спряжением неполного глагола етоқ после причастной формы прошедшего времени. Неполным этот глагол называется потому, что самостоятельно не может употребляться. Он имеет формы emas, edi, emish,

esa. Форма emas образует отрицательную форму: katta-katta emas. Форма esa перешла в союзы. Другие формы обозначают различные значения. На русский язык форма edi переводится словом был: Karimning dadasi zo'r bog'bon edi. (Отец Карима был отличным садовником). В случаях, когда сочетается с глаголом он пропускается.

Birlik

1-shaxs borgan edim
2-shaxs borgan eding
3-shaxs borgan edi

Ko'plik

borgan edik
borgan edingiz
borgan edi(lar)

Отрицательная форма этих глаголов образуется тремя способами:

– спряжением глагола edi после отрицательной причастия: bormagan edim, bormagan eding.

– после положительной формы употребляют неполный глагол emas: borgan emas edim, borgan emas eding.

– к причастию прибавляют аффиксы принадлежности, затем сочетание yo'q edi: borganim yo'q edi, borganing yoq edi и т.д.

Lug'at ishi

yirik	крупный
idora mollari	канцтовары
chinni	форфор
bo'lim	отдел, отделение
mavjud	имеется, есть
xorij	зарубеж, заграница
xarid qilmoq	приобрести
gazlama	ткань
yuksak saviyada	на высоком уровне
mamnun	доволен, удовлетворен
ma'muriyat	администрация

1-topshiriq. Matni o'qing va gapirib bering.

«TOSHKENT» UNIVERMAGI

«Toshkent» univermagi shahrimizdagi eng yirik savdo korxonalaridan biri. U shahar markazidagi uch qavatli binoda joylashgan.

Univermagning 1-qavatida xo'jalik mollari, o'quv qurollari va idora mollari, chinni, avdio, video va teleapparatlar bilan savdo qiladigan bo'limlar ishlab turibdi. Shuningdek, alohida oziq-ovqat bo'limi mavjud.

2-qavatda asosan erkaklar kiyimlari, poyabzallari sotiladi. U yerdan mamlakatimiz va xorijda ishlab chiqarilgan sifatli mollarni xarid qilish mumkin.

Univermagning uchinchi qavatida ayollar kiyimlari, poyabzallari, turli gazlamalar sotiladi. Shuningdek, oshxona ham ishlab turibdi.

Univermag o'zining namoyish zaliga ega. U yerda yangi keltirilgan mollar namoyish etiladi. Umuman, «Toshkent» univermagi yuksak saviyada savdo xizmati ko'rsatadi. Shahrimiz aholisi va mehmonlari univermag ma'muriyati va barcha xodimlari ishidan mamnun.

2-topshiriq. O'zingiz xarid qiladigan do'kon haqida gapirib bering.

3-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. O'tgan yakshanba Samarqandga sayohatga borgan edik. 2. Men ham uchuvchi bo'lishni orzu qilgan edim. 3. Sen tug'ilgan kuningga qanday sovg'a kutgan eding? 4. Sizning ham shu yerda ekaningizni bilmagan edim. 5. Salima bu yigitni ilgari sira uchratgan emas edi.

Yodda tuting: Глаголы в форме давно прошедшего времени обозначают действие совершенное задолго до момента речи и чаще на русский переводятся не совершенным видом.

4-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Я не хотел вас обидеть. 2. Отец Карима работал на этом заводе. 3. В том году «Пахтакор» был чемпионом страны. 4. Я и не думал встретить вас здесь. 5. В прошлом году снега было больше.

45-mashg'ulot Suhbat

- Kechirasiz, do`koningiz qachon yopiladi?
- Biz soat 8.00 dan 21.00 gacha ishlaymiz.
- Tanaffus ham qilasizmi?
- Yo`q, biz dam olish kunlari va tanaffuslarsiz ishlilaymiz.
- Men mana bu kostumni xarid qilmoqchiman.
- Kiyib ko`rasizmi?
- Mumkin bo`lsa . . .
- Albatta, men bilan yuring. Mana shu yerda bemalol kiyib ko`ravering. Menimcha, u sizga yarashadi.
- Ko`ringchi. Siz nima deysiz?
- Xuddi sizga tikilgandek. Hatto yosharib ketdingiz. Didingiz zo`r ekan.
- U qancha turadi.
- 27 000 so`m.
- Yonimda pul yo`q-da.
- Hechqisi yo`q. Istasangiz kechgacha, istasangiz ertaga olib ketsangiz ham bo`ladi.
- Men bugunoq olib ketaman. Hozir uyga borib kelaman.
- Bemalol borib kelavering.

Lug`at ishi

xaridor	покупатель
o`zaro	взаимно, между собой
kifoya	достаточно
. . . dan iborat	состоит из. . .
ushlab ko`rish	трогать, щупать
yaramaydi	не годится
. . . ga xilof	против. . .
so`roqsiz	без спроса (разрешения)
kiyib ko`rish	примерить
o`zini tiymoq	воздерживаться

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Rus tiliga tarjima qiling.

XUSHMUOMALA BO‘LING

Dokonlarda «Sotuvchi va xaridor, o‘zaro xushmuomala bo‘ling» degan yozuvni ko‘p ko‘ramiz. Lekin shuning o‘zi kifoyamikan? Xarid va savdo madaniyati faqat shundan iboratmi?

Yoq, albatta. Sotuvchi ham, xaridor ham bir qator qoidalami bilishi va amal qilishi lozim. Aytaylik, non do‘konida barcha nonlarni ushlab ko‘raverish yaramaydi. Bu gigiyenaga ham xilof.

«Qol bilan tegilmasin» deb yozib qo‘yilgan mollarni so‘roqsiz olib ko‘rish ham yaramaydi. Kiyimlarni, ayniqsa, poyabzalni belgilangan joyda kiyib ko‘rish kerak.

Bir so‘z bilan aytsak, boshqalarning g‘ashiga tegadigan ishlardan o‘zini tiymoq lozim.

2-topshiriq. Xarid qilish vaziyatiga oid dialoglar tuzing va rollarga bo‘lib o‘qing. Masalan,

– Mana bu ko‘ylak qancha turadi?

– 3000 so‘m

– Xuddi shunday oq rangli ko‘ylak yoqmi?

– Bor.

– U necha pul?

– U 3500 so‘m.

– Arzonroq bo‘ladimi

– 3200 so‘m bera qoling.

3-topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, o‘zaro suhbatlashing.

O‘TGAN ZAMON DAVOM FE‘LI

(Глагол многократно-длительного прошедшего времени)

Глаголы в форме многократно-длительного прошедшего времени передают действие, которое совершалось многократно или регулярно повторялось в прошлом: O‘shanda men maktabda o‘qir edim – Тогда я учился в школе.

Эта форма прошедшего времени образуется спряжением неполного глагола edi после формы причастия будущего времени (с аффиксами – (a)r; -mas).

Birlik

1-shaxs tanir edim
 2-shaxs tanir eding
 3-shaxs tanir edi
 Отрицательная форма

Ko'plik

tanir edik
 tanir edingiz
 tanir edi(lar)

Birlik

1-shaxs tanimas edim
 2-shaxs tanimas eding
 3-shaxs tanimas edi

Ko'plik

tanimas edik
 tanimas edingiz
 tanimas edi(lar)

Эта форма может также обозначать действие, совершаемое в определенный момент в прошлом. Например: Men sinfga kirganimda, Saida kitob o'qib o'tirar edi - Когда я вошел в класс, Саида сидела и читала.

Форма эта всегда переводится несовершенным видом. Неполный глагол может писаться и слитно, при этом буква е выпадает: bilardim, bilmasdim.

4-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Bolaligimda balandlikdan qo'rqar edim. 2. Uning o'zi ham ilgari sport bilan shug'ullanardi. 3. Ozoda sevinganidan o'zini qo'yarga joy topmas edi. 4. Shahodat opa qo'shiq aytishni yaxshi ko'rardi. 5. Aziz shoshganidan nima qilishni bilmasdi.

5-topshiriq. Berilgan fe'llarni o'tgan zamon davom fe'li shaklida qo'llab, gaplar tuzing.

Qatnashmoq, bajarmoq, o'zlashtirmoq, ulgurmoq, o'rganmoq.

6-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Он никогда не зазнавался. 2. Выдающийся мастер узбекского футбола несколько лет выступал за рубежом. 3. В те годы «Пахтакор» был особенно силен против «сильных», он мог

проиграть слабым, но у лидеров всегда выигрывал. 4. Наши еще ни раз не проигрывали «Трактору» на своем поле.

7-topshiriq. Kulmoq soʻzini yaqin, uzoq va oʻtgan zamon davom feʼli shaklida qoʻllab, gaplar tuzing. Feʼllar ifodalagan harakatdagi farqni tushuntiring.

SHARQ BOZORI NEʼMATLARI

46-mashgʻulot

Suhbat

- Siz qaysi bozordan xarid qilasiz?
- Men, odatda, «Shirin» dehqon bozorida xarid qilaman?
- U qayerda joylashgan?
- TTZ dahasida.
- Bozor kattami?
- Unchalik emas. Biroq narxlar «Chorsu», «Oloy» bozorlaridagidan pastroq. Qolaversa, uyimga ham yaqin. Yolga ham vaqt kam ketadi.
- Aytingchi, u yerga nimada borsa boʻladi?
- 16-, 24-, 101-, 17-avtobus, 6-, 13-tramvay, 41-, 43-, 99-, 39-, 6-yoʻnalishli taksilarda borsa boʻladi.
- Bir borib koʻraman, albatta.
- Boring, koʻrasiz, bozor sizga yoqadi.

Lugʻat ishi

sira	здесь: никогда; совсем; никак
ogʻzim ochilib qoldi	удивился; разинул рот
quchogʻim yetmadi	я не обхватил
hoʻl meva	фрукты
koʻkatlar	зелень
zar	золото
gavhar	жемчужина
beixtiyor	непроизвольно

O‘TGAN ZAMON NIKOYA FE‘LI (Пересказительная форма прошедшего времени)

Данная форма образуется прибавлением к основе глагола аффикса (i)b и личных аффиксов спряжения.

Birlik	Ko‘plik
1-shaxs kut+ib+man	kut+ib+miz
2-shaxs kut+ib+san	kut+ib+siz
3-shaxs kut+ib+di	kut +ib+di(lar)

Отрицательная форма образуется с помощью аффикса -ma.

Birlik	Ko‘plik
1-shaxs kut+mab+man	kut+mab+miz
2-shaxs kut+mab+san	kut+mab+siz
3-shaxs kut+mab+di	kut+mab+di(lar)

Глагол в этой форме указывает на значение услышанности, т.е. говорящий не был очевидцем (участником) действия, а лишь позже узнал об этом или основывается на чужой информации: Bir kuni Xo‘ja Nasriddindan so‘rashibdi: - Yoshingiz nechada? - Однажды у Ходжы Насреддина спросили: - Сколько вам лет.

При переводе этой формы употребляют глаголы: оказывается, говорят, выходит.

1-topshiriq. O‘qing. Rus tiliga tarjima qiling.

BOZORGA TUSHDIM

Dam olish kuni dadam bilan bozorga bordik. Ilgari sira bozorga bormagandim. Og‘zim ochilib qoldi.

Bir tomonda qovun-tarvuzlar tog‘-tog‘. Bitta tarvuzga hatto qulochim yetmadi. Dadam shu tarvuzni sotib oldilar.

Boshqa bir rastada ho‘l mevalar sotilar ekan. Olma, nok, shaftoli, olxo‘ri, uzum, anor. . . Qo‘yingki, hamma-hammasi.

Sabzavotlar ham alohida rastada sotilarkan. Biz kartoshka, sabzi, piyoz sotib oldik.

Ko'katlarning xilma-xil bo'lishini shu yerda bildim.

Non rastasiga yaqinlashishimiz bilan patiming xushbo'y hidi dimoqqa urdi. Biri-biridan chiroyli patirlardan tanlab olish ham qiyin ekan...

Bozordan chiqayotib «Yerimiz-zar, suvimiz-gavhar», degan so'zlar beixtiyor yodimga keldi. Chindan ona diyorimiz noz-ne'matlarga juda boy.

2-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Говорят, вы едете на математическую олимпиаду.
2. Выходит, я зря старался.
3. Оказывается, он уже видел вас у входа.
4. А молоко у вас свежее?
5. А вы уступите, если я куплю по больше?

3-topshiriq. «Bozorda» mavzusida dialoglar tuzib, rollarga bo'lib o'qing.

4-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Bir kuni Xo'ja Nasriddindan so'rashibdi:

– Yoshingiz nechida? Xo'ja Nasriddin javob beribdi:

– 35 da.

Oradan o'n yil o'tgach yana so'rashibdi:

– Yoshingiz nechida?

Xo'ja Nasriddin yana javob beribdi:

– 35 da.

Hayron qolib, axir o'n yil oldin o'ttiz beshdaman degandingiz, nega aldayapsiz, deyishsa, Nasriddin javob beribdi:

– Aldaganim yo'q. Erkak kishi doim bitta gapiradi.

47-mashg'ulot

Suhbat

– Ayting-chi, bu tarvuzlar qachon uzilgan?

– Kechagina uzib, olib keldik.

– Shirinmi?

– Albatta shirin. Naq tilingizni yoradi. Tatib ko'rasizmi?

– Menga o'rtacharoq bir tarvuz tanlab bering.

- Mana shunisi bo'ladimi?
- Ha, necha pul bo'ladi?
- 500 so'm.
- Boy-bo'. Buncha qimmat. Arzonroq qilmaysizmi?
- Tarvuzni ko'ring, puliga yarasha-ku!
- Keling, 400 so'm bera qolay.
- Mayli, oling.
- Rahmat.
- Osh bo'lsin.

O'TGAN ZAMON MAQSAD FE'LI (Глагол намерения прошедшего времени)

Глагол намерения прошедшего времени обозначает желание, намерение совершить действие, имевшее место в прошедшем времени. При этом совершено или нет это действие он не поясняет. Форма эта образуется с применением неполного глагола *edi* после аффикса – *moqchi*:

Men sizga shuni aytmoqchi edim – Я вам хотел сказать именно это.

Birlik

1-shaxs ko'r+moqchi edim
2-shaxs ko'r+moqchi eding
3-shaxs ko'r+moqchi edi

Ko'plik

ko'r+moqchi edik
ko'r+moqchi edingiz
ko'r+moqchi edi(lar)

Отрицательная форма образуется с помощью отрицательного слова *emas*: *ko'rmoqchi emas edim*, *ko'rmoqchi emas eding* и т.д.

При переводе на русский язык этой формы употребляют глаголы хотеть, намереваться, собираться, думать и т.д. Тоққа етtagа jo'namoqchi edik – Хотели поехать в горы завтра.

Иногда эта форма может употребляться в значении будущего времени.

Lug'at ishi

mahsul	плод
mo'l	обильный
hosil	урожай

dor	канат
xonanda	певец
ko'taringki kayfiyat	преподнятое настроение
tomosha	представление
tomosha qilmoq	смотреть
kabob	шашлык

1-topshiriq. O'qing. Mazmunini aytib bering.

HOSIL BAYRAMI

Yurtimizda kuz. Bobodehqonlarimiz yil bo'yi qilgan mehnatlari mahsulini yig'ib-terib olishdi. Bu yil mo'l-ko'lchilik yili bo'ldi. Paxtadan ham, sabzavot va mevalardan ham mo'l hosil olindi.

Yurtimizda hozir har yerda hosil bayramlari o'tmoqda. Kecha Qibray tumani markazida shunday bayramda bo'ldik. Doshqozonlarda oshlar damlangan, barra kabobning hidi dumoqqa uradi.

Katta maydonda yarmarka tashkil etilgan. Sabzavot va mevalar bilan savdo qilishyapti.

Maydon markaziga dor o'rnatilgan, xalq sirki artistlari tomosha qo'yishyapti.

Yana bir sahnada taniqli xonandalar o'z qo'shiqlari bilan yig'ilganlarni xursand qilyapti. Hamma ko'tarinki kayfiyatda.

Shunday, obod yurtga bayramlar yarashadi.

2-topshiriq. O'qimoq fe'lini o'tgan zamonning barcha shakllarida tushlang. Har bir zamon shaklida qo'llab beshta gap tuzing.

3-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Fe'llarning zamon ma'nosiga e'tibor bering.

1. Navoiy ijodni juda erta boshlaydi. 2. Shu paytda qayoqqa ham bordik. 3. Mening akam shu paytda harbiy bilim yurtida o'qir edi. 4. Tohir nihoyat o'z aybini tushunib yetibdi.

4-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я хотел поздравить вас с днем рождения. 2. Я хотел познакомить вас с моим другом. 3. В детстве я ходил в музыкальную школу. 4. Сабир очень любил футбол. 5. Все мои друзья хотят стать хорошими учителями.

SOG'LIK – TUMAN BOYLIK

48-mashg'ulot Suhbat

– Kechirasiz, ko'z shifokori qachon qabul qilishini bilsam bo'ladimi?

– Ha, marhamat. Dushanba, seshanba va juma kunlari soat to'qqizdan o'n to'rtgacha, boshqa kunlari o'n to'rtidan o'n yettigacha.

– Demak, hozir qabul qilayotgan ekan-da.

– Ha, marhamat qilib talon oling. Ikkinchi qavatga chiqasiz. O'ngga yurasiz, uchinchi eshik o'n ikkinchi xona.

– Katta rahmat.

– Xayr, omon bo'ling.

HOZIRGI ZAMON FE'LI (Глагол настоящего времени)

Глагол настоящего времени обозначает действие, начатое до момента речи, но не законченное, т.е. в момент речи оно может быть приостановлено.

В узбекском языке две формы настоящего времени:

Hozirgi zamon davom fe'li (настоящее продолжительное время);

Hozirgi-kelasi zamon fe'li (настоящее-будущее время).

HOZIRGI ZAMON DAVOM FE'LI (Настоящее-продолжительное время)

Настоящее-продолжительное время образуется с помощью аффикса -уар и личных аффиксов спряжения. Мен o'zbek tilini o'rganayotman – Я изучаю узбекский язык. Как уже говорилось, в момент речи действие может быть приостановлено, но оно будет иметь продолжение.

Birlik
 1-shaxs ket+yap+man
 2-shaxs ket+yap+san
 3-shaxs ket+yap+ti
 Отрицательная форма

Ko'plik
 ket+yap+miz
 ket+yap+siz
 ket+yap+ti(lar)

Birlik
 1-shaxs ket+ma+yap+man
 2-shaxs ket+ma+yap+san
 3-shaxs ket+ma+yap+ti

Ko'plik
 ket+ma+yap+miz
 ket+ma+yap+siz
 ket+ma+yap+ti(lar)

Также в узбекском языке настоящее-продолжительное время образуется с аффиксами -yotib (устаревший): ket+a+yotib+man, -yotir (диалектный): ket+a+yotir+man и -moqda: ket+moqda+man. Однако форма с аффиксом -moqda не имеет отрицательной формы.

Lug'at ishi

shug'ullanmoq	заниматься
badantarbiya	физзарядка
yugurish	бегать; бег
turnik	перекладина
erkin kurash	вольная борьба
jismoniy	физический
og'ir atletika	тяжёлая атлетика
suzish	плавание
qilichbozlik	фехтование
badiiy gimnastika	художественная гимнастика

1-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

SOG'LOM TANDA — SOG' AQL

Kishi sog'lom bo'lishi uchun sport bilan shug'ullanishi lozimligini hamma yaxshi biladi.

Men ham shunga amal qilaman. Har tong badantarbiya qilaman. Yugurish – jonu tanim. Hovlida maxsus burchak tashkil etganman. U yerda tumikda tortilaman, tosh ko'taraman.

Men kurash bilan shug'ullanaman. Ilgari yunon-rim kurashi, erkin kurash, sambo bo'yicha musobaqalarda qatnashardim. Yaqinda milliy kurashimiz bo'yicha shahar birinchligida g'olib bo'ldim. Kurash nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kuch manbayi ham.

Oilamizda hamma sportchi. Dadam og'ir atletikachilar. Oyim badiiy gimnastika bilan shug'ullanganlar. Singlim suzish bilan, ukam qilichbozlik bilan shug'ullanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oilamizda hech kim hech qachon kasal bo'lmaydi. Siz ham sport bilan shug'ullaning.

2-topshiriq. «Hech bir narsa mamlakatni sport kabi dunyoga tez tanita olmaydi» shiorini izohlab bering.

3-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Saida endilikda sportning ushu turi bilan shug'ullanyapti. 2. Shahrimiz kundan-kun obodonlashib bormoqda. 3. Hozir u o'z ishidan pushaymon yeyapti. 4. Biz Navro'z bayramiga katta tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Помните: Настоящее – продолжительное время от глаголов состояния: tur, o'tir, yot и уюг образуется с помощью аффикса – ib: turibman (стою), yotibdi (лежит) и т.д. отрицательная форма образуется прибавлением притяжательного аффикса к причастию и словом yo'q:

O'tiribman – o'tirganim yo'q. Yotibdi – yotgani yo'q и т.д.

4-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Men o'qituvchimni kutib turibman. 2. Malika bog'da dars tayyorlab o'tiribdi. 3. Said hali ham shahmat to'garagiga qatnasyapti. 4. Mashina tekis yo'lda go'yo uchib bormoqda. 5. Ukam Fransiyaga o'qishga ketyapti.

49-mashg'ulot
Suhbat
KASALXONADA

- Assalomu alaykum buvijon. Yaxshi yuribsizmi?
- Ba alaykum assalom. Kel, bolam.
- Sog'liqlaringiz yaxshimi? Ko'rinishingiz juda yaxshi. Ko'z tegmasin.
- Ha, ancha yaxshi bo'lgandekman. Bosh og'rig'im ham qoldi. Ishtaham ham ancha yaxshi.
- Hali otday bo'lib ketasiz. Ozgina toliqqansiz. Dam olishingiz kerak. Sizga mevalar olib keldim. Quvvat bo'ladi.
- Ha, vrach ham aytgandi: «Ho'l mevani ko'p yeng», deb.
- Buvi endi men boray. Siz dam oling. O'zingizni ko'p urintirmang. Ko'proq dam oling. Ovqatni vaqtida yeng, parhezni unitmang.
- Xo'p, bolam. Sen ham yaxshi bor. Yaxshi o'qigin.
- Xayr.

HOZIRGI – KELASI ZAMON
(Настоящее — будущее время)

Глагол в настояще-будущем времени образуется спряжением деепричастий на аффикс - а (-у):

	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	tur+a+man	tur+a+miz
2-shaxs	tur+a+san	tur+a+siz
3-shaxs	tur+a+di	tur+a+di(lar)

Отрицательная форма:

	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	tur+may+man	tur+may+miz
2-shaxs	tur+may+san	tur+may+siz
3-shaxs	tur+may+di	tur+may+di(lar)

Эта форма обозначает несколько значений. Служит:

1. Для обозначения настоящего времени. При этом:

а) действие не ограничено временем; оно является естественным постоянным признаком предмета: Qush uyasida ko`rganini qiladi (maqol) – эквивалент на русском языке – Яблоко от яблони далеко не падает;

б) означает обычное, традиционное, постоянное действие лица или предмета: Ayolim qishin-yozin ichkari hovlining yumushini qiladi: kir yuvadi, uy-joyini supuradi, non yopadi, ko`gra qaviydi (O). Жена моя и зимой и летом занята делами этого дома: стирает, убирает, печет лепешки, шьет;

в) действие может относиться непосредственно к моменту речи. O`sha kuni bo`lib o`tgan shov-shuv hali ham qulog`im tagida shang`illaydi (B.K.) – Шум происшедший в тот день до сих пор звенит в моих ушах.

2. Для обозначения будущего времени: Bolang uch-to`rt kun qiynaladi, keyin o`rganib ketadi. – Ребенок твой будет мучиться три-четыре дня, а потом привыкнет.

Lug`at ishi

shifoxona	лечебница; больница
tibbiy	медицинский
tashhis	диагноз
malakali	квалифицированный
tibbiyot xodimi	медицинский работник
nafaqat	не только
dori-darmon	лекарства
bemor	больной

1-topshiriq. Matnni o`qing. Mazmunini aytib bering.

YANGI SHIFOXONA

Qishlog`imizda yangi shifokorlik punkti qurildi. Qishloq markazida joylashgan ikki qavatli chiroyli bino qayta ta`mirlanib, zamonaviy tibbiy asboblardan bilan jihozlandi.

Endi qishloq ahli tuman markaziga borib yummaydi. Chunki qishloq shifokorlik punktida barcha analizlar olinib, javobi tezda aytiladi.

Ultratovush tashxisi, elektrokardiogrammani ham shu yerda qilish mumkin. Hatto kompyuterda ham tashhis qo‘yiladi.

Shifoxonada oltita malakali shifokor, o‘ngga yaqin hamshira va tibbiyot xodimi mehnat qilishadi. Ular bemorlarni nafaqat dori-darmon, balki shirin so‘zlari bilan ham davolashadi.

2-topshiriq. «Poliklinikada» mavzusida dialoglar tuzing va rollarga bo‘lib o‘qing.

3-topshiriq. Matn mazmuniga oid 7–8 ta savol tuzing. Mazmunini aytib berishga tayyorlaning.

4-topshiriq. Sizga qanday tibbiy xizmat ko‘rsatishadi? Shu haqda kichik maqola yozishga tayyorlaning.

5-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Fe‘llar qanday zamondagi harakatni ifodalashini tushuntiring.

1. Men hozirgina yetib keldim. 2. Bobur o‘n ikki yoshda Andijon taxtiga o‘tiradi. 3. Bugun 62-poezd bilan Buxoroga jo‘nab ketyapman. 4. Kechqurun diskotekaga bordik. 5. Endigina oshni damlagan edim. 6. Sizni ko‘rmasam, qaytib ketar edim.

DAM OLISH VA TA‘TIL

50-mashg‘ulot

Suhbat

- Salom, Kamol. Dam olish kuni qalay o‘tdi?
- Salom, Odil. Ishlar yaxshimi? Dam olish kuni zo‘r o‘tdi.
- Biror yerga bordingmi?
- Ha, oilamiz bilan Amir Temur xiyoboniga bordik, Temuriylar muzeyida bo‘ldik. Keyin Saylgoh ko‘chasi bo‘ylab aylandik. O‘sha yerda ovqatlandik.
- Yaxshi dam olibsan. Kayfiyating ham a‘lo bo‘lsa kerak.
- Albatta, o‘zingchi? Nimalar qilding.
- Har doimdagidek mashg‘ulotga bordim. Kecha o‘rtoqlik uchrashuvimiz bor edi.
- Yutdinglarmi?

- Ha, uch-u nol. Keyin uyga kelib, dam oldim. Mehmonlar kelishdi.
- Mayli, keyin davom ettiramiz. Hozir qo'ng'iroq bo'ladi.
- Xo'p. Ko'rishamiz.

KELASI ZAMON GUMON FE'LI (Предположительное будущее время)

Предположительное будущее время означает действие, которое возможно совершится в будущем. Ertaga balki sayr qilgani boramiz. - В озможно, завтра пойдем на прогулку.

Форма эта образуется спряжением причастия будущего времени с аффиксами - (a)g; -mas.

	Birlik	Ko'plik
I-shaxs	borar+man	borar+miz
I-shaxs	borar+san	borar+siz
I-shaxs	borar	borar(lar)

Отрицательная форма

	Birlik	Ko'plik
I-shaxs	bormas+man	bormas+miz
II-shaxs	bormas+san	bormas+siz
III-shaxs	bormas+di	bormas (lar)

Отрицательная форма таких глаголов практически не употребляется. Кроме того, эта форма может употребляться (особенно в поэзии) в значении точного будущего времени, т.е. обозначать действие, которое непременно совершится (или не совершится) в будущем. ...ko'z tashlarsan bo'im-bo'sh makonga. (A. Oripov.) – буквально: увидешь пустой дом. Duniyoni qizg'onma mendan, azizim, sen ichgan buloqdan ichmasman aslo. (A. Oripov) - Не жалея для меня этот мир, дорогая, не буду пить с того родника, с которого ты пила (буквально).

Lugʻat ishi

odatda	обычно; как правило
kech	поздно
barvaqt	рано
mehmon boʻlmoq	гостить
mehmon qilmoq	угощать
salqin	прохладно (-ый)
kirishmoq	приниматься
choʻmilmoq	купаться

1-topshiriq. Matnni oʻqing, rus tiliga tarjima qiling.

YAXSHI DAM – MEHNATGA HAMDAM

Kecha dam olish kuni edi. Odatda, dam olish kunlari kech turaman. Lekin kecha barvaqt turdim. Chunki oilamiz bilan toqqa bormoqchi edik.

Xoʻjakent qishlogʻida dadamning kursdosh doʻstlari yashaydi. Ularnikiga mehmonga bordik. Soat oʻn ikkilargacha mehmon boʻldik. Keyin hammamiz daryo boʻyiga chiqdik. Havo biram toza, salqin. Dadam doʻstlari bilan kabob pishirishga kirishishdi. Biz bolalar mazza qilib choʻmildik, voleybol oʻynadik. Qaytishda dadam togʻdagi qadimdan qolgan rasmlarni koʻrsatdilar. Xullas, dam olish kuni maroqli oʻtdi. Kelasi yakshanbada esa, dadamning aytishlaricha shahar aylangani chiqar ekanmiz.

2-topshiriq. Soʻnggi dam olish kuningiz haqida aytib bering.

3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz qanday dam olishni yaxshi koʻrasiz? 2. Qanday musiqani xush koʻrasiz? 3. Kitob oʻqishni yaxshi koʻrasizmi, krossvord yechishni-chi? 4. Oilangiz bilan dam olishga borib turasizmi? Qayerga?

4-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Ozodaxon, oshni soat oltiga tayyor qilarsiz. 2. Dars tayyorlagani birga boramiz. 3. Siz ham futbolga biz bilan birga ketarsiz? 4. Institutni bitirib o'z shahringizga qaytarsiz? 5. Sodiqjonga mendan salom aytarsiz.

5-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Возможно, завтра мы поедем за город. 2. Очевидно, она об этом знала. 3. Вероятно, завтра мы соберемся в клубе. 4. Наверное, Саodat завтра не придет. 5. По всей вероятности, каникулы мы проведем дома.

6-topshiriq. Kelmoq fe'lini barcha zamon ikkinchi shaxs birlik shaklida qo'llab gaplar tuzing.

7-topshiriq. Gaplarni o'qing. Fe'llarning zamon shakli va ma'nosini ayting.

1. Sohiba kecha biznikiga kelgan edi. 2. Shoir Muqimiy faqirlikda kun kechiradi. 3. Umr o'tar, vaqt o'tar, xonlar o'tar, taxt o'tar. 4. Qani, hammamiz dasturxon atrofiga keldik. 5. Karimning dadasi hozir chet elda ishlaydi. 6. Bilim baxt keltirar (maqol).

51-mashg'ulot

Suhbat

- Karim, sen ta'tilni qanday o'tkazmoqchisan?
- Qishloqqa buvimnikiga boraman. Hozir bahor, dalada ish qizg'in. Ekin-tikinga yordamlashaman.
- Hamma dam olganda, sen ter to'kib ishlar ekansan-da.
- Nega endi. O'qishlar, darslardan keyin jismoniy mehnat ham bir hordiq. Qolaversa, u yerda do'stlarim ko'p. Biz varrak uchiramiz. Dalalarga chiqib, giyohlar teramiz.
- U yerda kinoteatr bormi?
- Albatta. Dam olish uchun sharoit yetarli.
- Ha, yaxshi. Ta'tilni yaxshi o'tkaz. Ko'rishmay qolsak, xayr. Qishloqlardagilarga salom ayt.
- Mayli. O'zing ham yaxshi dam ol.

KELASI ZAMON MAQSAD FE'LI (Глагол намерения будущего времени)

Глагол в этой форме обозначает реальное намерение или предположение совершить то или иное действие.

Форма намерения будущего времени образуется прибавлением к основе глагола аффикса –moqchi и личных аффиксов спряжения.

	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	qol+moqchi+man	qol+moqchi+miz
2-shaxs	qol+moqchi+san	qol+moqchi+siz
3-shaxs	qol+moqchi	qol+moqchi(lar)

Отрицательная форма образуется спряжением отрицательного слова emas:

	Birlik	Ko'plik
1- shaxs	qol+moqchi emas+man	qol+moqchi emas +miz
2- shaxs	qol+moqchi emas +san	qol+moqchi emas +siz
3- shaxs	qol+moqchi emas	qol+moqchi emas (lar)

	Lug'at ishi
ta'til	каникулы
hademay	скоро
baliq ovlash	ловить рыбу
mehnat safari	командировка
tarihiy obida	исторический памятник
yoqsa	иначе
puхта	тщательно

1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling. So'zlab berishga tayyorlang.

YOZGI TA'TIL

Hademay yozgi ta'til ham boshlandi. Ta'til yaxshi narsa. Bu yil ta'tilni qishloqda, amakimnikida o'tkazmoqchiman. U erda daryo bor. Men baliq ovlashni yaxshi ko'raman.

Avgust oyida dadam Samarqandga mehnat safariga boradilar. Meni olib ketishni va'da qilganlar. Samarqandda tarixiy obidalar ko'p. Ularni birga ziyorat qilamiz.

Uyga qaytgach, yangi o'quv yiliga tayyorgarlikni boshlayman. Maktab bozori deganday. Qolaversa, yozga ham anchagina vazifalar berishgan. Ularni puxta bajarish lozim. Yo'qsa, o'quv yili boshidan uyatga qolaman-a.

2-topshiriq. Yozgi ta'tilni qanday o'tkazmoqchi ekaningiz haqida aytib bering.

3-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Men bugun kutubxonaga bormoqchiman. 2. Siz o'zingiz uchun nimalar sotib olmoqchisiz? 3. Siz bilan bu to'g'rida gaplashmoqchi emasman. 4. Do'stim bilan yozgi ta'tilda qishloqqa ketmoqchimiz. 5. Dadam yangi yilda menga yangi kvartira olib bermoqchilar.

4-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я хочу взять своего младшего брата с собой в горы. 2. Студенты нашего курса собираются поехать в Бухару. 3. Мы все хотим иметь хорошие оценки по узбекскому языку. 4. Чтобы лучше знать узбекский, я хочу пожить у бабушки в махале. 5. Завтра мы хотим посетить Музей Тимуридов.

5-topshiriq. Bilmoq fe'lini barcha zamon shakllarida qo'llab, so'z birikmalari tuzing va tarjima qiling.

6-topshiriq. Maqollarni o'qing. Rus tilidagi muqobilini toping.

1. Erta ekkan, erta o'radi. 2. Zar qadrini zargar biladi. 3. Bola shirin, odobi undan shirin. 4. Qari bilganni pari bilmas. 5. Oy yoritadi. ammo isitmaydi.

7-topshiriq. Berilgan fe'llarning zamonini ayting.

Ishladi, kelgan edi, borgan emas edi, bormoqchi emas edim, kelmabdi, ishlayapti, ishlar, ishlamoqchi emas, ikkilanyapti.

SAFAR TARADDUDI VA TAASSUROTLLARI

52-mashg'ulot

Suhbat

- Shahringizda bog'lar bormi?
- Ha, Toshkentda bog'lar ko'p. Bobur nomidagi Bog'i eram, O'zbekiston milliy bog'i, Ulug'bek nomidagi va yana bir qancha bog'lar bor.
- Siz qaysi boqqa borishni maslahat berasiz?
- Hamma bog' ham o'zgacha. Biroq men Bobur bog'ida bo'lishni yoqtiraman. U yer juda salqin va ozoda, eng muhimi, sokin.
- U yerda attraksionlar ko'pmi?
- Ha. U yerda turli ko'ngilochar o'yinlar o'ynashingiz, qayiqda sayr qilishingiz, bir so'z bilan aytganda mazza qilib hordiq chiqarsangiz bo'ladi.
- Rahmat. Men, albatta, bu boqqa boraman.

FE'L MAYLLARI

(Наклонение глаголов)

Наклонение – грамматическая категория глагола, выражающая отношение действия или состояния к действительности.

В узбекском языке глагол имеет четыре формы наклонения: *xabar mayli* (изъявительное); *buyruq-istak mayli* (повелительно-желательное); *shart mayli* (условное); *maqсад mayli* (цели).

XABAR MAYLI

Изъявительное наклонение показывает, что говорящий считает действие фактом, относя его к прошедшему, настоящему и будущему времени.

Все формы времени, за исключением глаголов намерения прошедшего и будущего времени, относят к изъявительному наклонению, а последние две формы к наклонению цели.

BUYRUQ – ISTAK MAYLI

(Повелительно – желательное наклонение)

Повелительно-желательное наклонение обозначает волеизъявление говорящего. Основа любого глагола равна форме повелительного наклонения II лица единственного числа. Глагол в повелительно-желательном наклонении спрягается следующим образом:

Birlik

1-shaxs	qayt+ay
2-shaxs	qayt
3-shaxs	qayt+sin

Ko'plik

qayt+aylik
qayt+ing
qayt+sin(lar)

Отрицательная форма

Birlik

1-shaxs	qayt+ma+y
2-shaxs	qayt+ma
3-shaxs	qayt+ma+sin

Ko'plik

qayt+ma+y+lik
qayt+ma+ng
qayt+ma+sin(lar)

Для подчеркивания просьбы ко второму лицу иногда прибавляют аффикс – gin: aytgin, yozgin, bergin и.т.д.

Для различения форм уважения и множественного числа иногда во множественном числе прибавляют аффикс -lar: ayting (скажите уважительная форма), aytinglar (обращение к нескольким людям).

Lug'at ishi

salobatli	крупный
barpo etilgan	возведен
hashamatli	красивый
gumbaz	купол
zarhal	золотистый
ohu	олень
ta'mirlandi	реконструировано
fikrimizning dalili	подтверждение нашей мысли

1-topshiriq. Matni rus tiliga tarjima qiling. Soʻzlab berishga tayyorlang.

REGISTON

Samarqand – koʻhna tarixiy obidalarga boy shaharlardan biri. Shunday obidalardan biri – Registon uchta salobatli binodan tashkil topgan. Bular: Ulugʻbek, Sherdor, Tillaqori madrasalaridir.

Ulugʻbek madrasasi 1471-yilda barpo etilgan. Bu bino Ulugʻbek qurdirgan madrasalarning eng kattasi va eng hashamatlisi edi. Uning monumental peshtoqlari yon gumbazlari va minoralari hozir ham kishini hayratga soladi. Bu madrasa oʻz davrida ilm-fanning yirik markazi boʻlgan. Madrasada yirik olimlar, jumladan, Ulugʻbekning oʻzi ham dars bergan.

Sherdor madrasasi 1619–1636-yillarda Samarqand hukmdori Yalantoʻsh Bahodirning topshirigʻi bilan qurilgan. Bahaybat peshtoq tepasida sher va ohular rasmi solingani uchun Sherdor madrasasi deb atalgan.

Tillaqori madrasasi 1647–1660-yillarda qurilgan. U zarhal naqshlar bilan ishlangani uchun shunday nom olgan. Mazkur bino qurilishi bilan Registon maydonidagi ajoyib ansambl mukammal shakl olgan.

Hozirda bu yerga minglab sayyohlar tashrif buyurishadi. Istiqloq davrida madrasalar qayta taʼmirlandi. Endilikda u yerda koʻplab tadbirlar oʻtkazilmoqda. «Sharq taronasi» xalqaro musiqa tanlovi fikrimizning dalilidir.

2-topshiriq. Maqollarni oʻqing. Mazmunini rus tilida ayting.

1. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh. 2. Sanamay sakkiz dema. 3. Bir tup nok eksang, bir tup tol ek. 4. Bugungi ishni ertaga qoʻyma. 5. Avval oʻyla, keyin soʻyla. 6. Tiling bilan dilingni bir tut.

3-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Oʻzingni, oʻz uyingni oʻzing asra. 2. El-u yurt dardiga darmon boʻlaylik. 3. Ertaga hamma hasharga kelsin. 4. Sen, yaxshisi, buguncha dam ol. 5. Gulnoraga ayt: tepaga qoʻngʻiroq qilsin. 6. Qani, oldimga tushib koʻr-chi!

4-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Напиши-ка, мне список присутствующих.
2. Учись как правильно говорить по-узбекски.
3. В субботу он пусть остается на дежурство.
4. Карим, будь добрым, принеси мне чашечку чая.
5. Пусть брат на ужин приготовит плов.

5-topshiriq. Buyruq-istak maylidagi fe‘llar ishtirokida gaplar tuzing.

53-mashg‘ulot Suhbat uchun savollar

O‘zbekistonning qaysi shaharlarida bo‘lgansiz? Samarqand haqida nimalarni bilasiz?

Toshkentdagi Shahidlar xiyobonida bo‘lganmisiz? Xotira maydonida-chi?

Toshkentning qaysi joylarida bo‘lishni yoqtirasiz?

SHART MAYLI (Условное наклонение)

Глагол в условном наклонении обозначает действие, от выполнения которого зависит совершение другого. Форма эта образуется прибавлением к основе глагола аффикса – sa и аффиксов личного спряжения.

	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs	kul+sa+m	kul+sa+k)
2-shaxs	kul+sa+ng	kul+sa+ngiz
3-shaxs	kul+sa	kul+sa(lar)

Отрицательная форма таких глаголов образуется с помощью аффикса – ma:

	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs	kul+ ma+sa+m	kul+ ma+sa+k)
2-shaxs	kul+ ma+sa+ng	kul+ ma+sa+ngiz
3-shaxs	kul+ ma+sa	kul+ ma+sa(lar)

Глагол в условном наклонении в сочетании со словом *kerak* обозначает предположение: *borsak kerak* – возможно, поедем, *qor yog'sa kerak* – возможно, будет снег и т.д.

В сочетании со словами *mayli*, в вопросительной форме, выражает желание, просьбу: *kirsam maylimi* – можно ли я войду, *so'rasam maylimi* – могу ли я спросить и т.д.

MAQSAD MAYLI

Наклонение цели (намерения) выражает цель совершения того или иного действия. Глаголы намерения прошедшего и будущего времен относят к наклонению цели (намерения).

Lug'at ishi

<i>ramz</i>	символ
<i>ichki</i>	внутренний
<i>qal'a</i>	крепость
<i>tashqi</i>	наружный, внешний
<i>to'g'ri keladi</i>	равна, приходится,
<i>olib chiqadi</i>	выходит, выводит
<i>nurab ketgan</i>	разрушен
<i>buzib tashlangan</i>	сломан
<i>me'morchilik</i>	архитектура
<i>xom g'isht</i>	сырой кирпич
<i>qoldiq</i>	остаток
<i>ta'mirlash</i>	реконструкция

1-topshiriq. Yangi sozlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

2-topshiriq. Matni rus tiliga tarjima qiling. So'zlab berishga tayyorlang.

ICHANQAL'A

Ichanqal'a Xiva shahrining ramzidir. *Ichanqal'a* «*ichki qal'a*» demakdir. Bu nom shaharning *tashqi devori* qurilgach qabul qilingan.

Ichanqal'a maydoni o'rta asrlardagi Xiva shahri maydoniga *to'g'ri keladi*. U mustahkam devor bilan o'ralgan. Devorning balandligi 7–8 metrga teng, qalinligi 5–6 metr. Shimoliy darvoza *Bog'cha darvoza* deb ataladi va *Urganch yo'liga* olib chiqadi. Sharqiy darvoza «*Polvon darvoza*» deb atalib, *Amudaryo* va *Xazoraspga* olib chiqadi. Janubiy va G'arbiy «*Ota darvozalar*» 1920-yilda nurab

ketgani sababli buzib tashlangan. 1975-yilda esa qayta o'z holiga keltirilgan.

Ichanqal'a ichkarisida noyob me'morchilik obidalari va hovli-joylar saqlanib qolgan.

Ichanqal'a devorlari asosan paxsadan qurilgan. Ba'zi orinlarda xom g'ishtlar ishlatilgan. Arxeologiya tekshiruvlari davomida qal'a devorlari yonida qadimiy Xorazm me'morchiligining qoldiqlari topilgan.

Bu noyob san'at durdonasi davlat himoyasiga olingan bo'lib, uni ta'mirlash ishlari olib borilyapti.

3-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Shunaqa qilaversang, oxiri voy bo'ladi. 2. Istasang, bugun kinoga boramiz. 3. Kimki mehnatga chidamli bo'lsa, albatta muvaffaqiyatga erishadi. 4. Dadam uyda bosalar, zo'r bo'lardi! 5. El netib topg'ay menikim, men o'zimni topmasam (Navoiy).

4-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Если будет время, сходим с тобой в театр. 2. Даже если будет дождь, я пойду на стадион. 3. Если сильно захотеть, можно всего добиться. 4. Чем раньше ты придешь, тем раньше мы и начнем. 5. Скажи ему, как только он придет.

5-topshiriq. Maqollarni yod oling.

1. Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda. 2. Erta eksang, erta o'rasan. 3. Dehqon bo'lsang, shudgor qil. 4. Birovga choh qazisang, unga o'zing yiqilasan. 5. Izzat qilsang, izzat topasan. 6. Olim bo'lsang, olam seniki.

6-topshiriq. Shart maylidagi fe'llar ishtirokida 4–5 ta gap tuzing. Ularni rus tiliga tarjima qiling.

54-mashg'ulot

Suhbat

- Salom, Timur, jomadonlar katta-ku.
- Ha, sayohatga ketyapman.
- Uzoqqami?
- Avval Samarqand, keyin Buxoroda bo'laman. U yerdan Xiva va Urganchga o'taman.

- Biror ish bilan ketyapsanmi?
- Yo‘q. Tarixiy shaharlarimizni ko‘rmoqchiman xolos. Afsuski ta‘til qisqa. Yo‘qsa Shahrisabz va Termizga ham bormoqchi edim.
- Kelasi yil ham ta‘til berishadi-ku.
- Ha, albatta.
- Xo‘p. Oy borib, omon qayt. Safaring bexatar bo‘lsin.
- O‘zing ham yaxshi qol. Ko‘rishguncha.

Lug‘at ishi

muqaddam	ранее
quyi	нижний
xushmanzara	красивый
tarmoq	отрасль, здесь: приток
yovvoyi	дикий
maqbara	мавзолей
tarixiy obida	исторический памятник
dovrug‘	слава

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

BUXORO

Buxoro Markaziy Osiyoning ko‘hna shaharlaridan biridir. Bu shahar bundan 2300-yil muqaddam Zarafshon vodiysining quyi qismida qad ko‘targan. Dastavval daryoning Zarirud nomli quyi tarmog‘ining ikki sohili paydo bo‘lgan. Qishloqning tevarak-atrofi qadimda nihoyatda xushmanzara edi. Butun vodiylar bo‘ylab atrofni qoplab yotgan qalin daraxtzor va to‘qayzorlarda turli tuman yovvoyi hayvonlar hamda ajoyib qushlar bo‘lgan. Shuning uchun bu o‘lkani «Bug‘-oro» ya‘ni «Tangri jamoli» deb aytiladi.

Buxoro tarixiy obidalarga boy. Ismoil Samoniy madrasasi (IX-X asrlar). Chashmai Ayyub maqbarasi (XII asr), Namozgoh masjidi (XIV-XVI asrlar), Buyon Qulixon maqbarasi (XVI asr). Ulug‘bek madrasasi (1417-yil), Masjidi Kalon (1514-yil), Misr Arab madrasasi (1530-yil), Ko‘kaldosh madrasasi (1578-yil), Sitorai Mohi Xosa saroyi va boshqalar Buxoroning dovrug‘ini jahonga taratgan.

Buxoro O‘zbekistonning madaniy va obod shaharlaridan biri bo‘lib qoldi.

FE'L NISBATLARI (Залоги глагола)

Категория залога выражает отношение к субъекту и объекту действия. Это отношение обозначают специальные формы глагола. С изменением залога происходит изменение в объекте и субъекте действия.

В узбекском языке пять залогов глагола:

Aniq nisbat (действительный залог) имеет нулевой показатель. Субъект действия, обозначенного в форме этого залога, выражается подлежащим, а объект дополнением в винительном падеже: *O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirdi.* Учитель объяснил новую тему.

O'zlik nisbati (возвратный залог) выражает действие, исходящее от субъекта и возвращающееся на него. Образуется прибавлением к основе глагола аффиксов: *-(i)l*; *-(i)n*; иногда *(i)sh*; *yuvmoq* – мыть, *yuvinmoq* – мыться, *kiymoq* – одевать, *kiyinmoq* – одеваться, *kermoq* – потянуть, *kerishmoq* – потягиваться.

Majhul nisbat (страдательный залог) указывает на действие, объектом которого является подлежащее, а субъектом – косвенное дополнение (в предложении он может быть пропущен). *Xat yozildi* – Письмо было написано. Образуется эта форма прибавлением к основе аффиксов: *-(i)l*; *-(i)n*: *qurildi* – построен, *solindi* – положен, *ko'rildi* – рассмотрен и т.д.

Birgalik nisbati (взаимно-совместный залог) указывает на действие, выполненное двумя или более субъектами. Образуется с помощью аффикса *-(i)sh*: *ko'rishmoq* – видетсяя, *yozishmoq* – переписываться, *yuvishmoq* – помочь мыть и т.д. Эта форма может указывать на то, что действие совершено несколькими субъектами: *Bolalar sayrga chiqishdi* – Дети вышли на прогулку; на то, что субъект помог другому в выполнении действия: *Nadicha onasiga kir yuvishdi* – Хадича помогла матери стирать. Аффикс *-(i)sh* является синонимичным аффиксу *-lar* (множественного числа): *o'qidilar* – о'qishdi, *yozdilar* – yozishdi.

Orttirma nisbat (понудительный залог) выражает действие, производимое субъектом через другое лицо. Образуется прибавлением к основе глагола аффиксов: *-t*; *-tir(dir)*; *-gaz*; *-giz*;

-sat; -ar; -ir; -iz; **Например:** yoz-yozdir, koʻr-koʻrsat, sana-sanat, bit-bitir, chiq-chiqar, oq-oqiz и т.д. Salima yangi koʻylak tiktirdi – Салиме сшили новое платье.

2-topshiriq. Gaplarni oʻqing. Feʼllarning qaysi nisbatdalgini ayting. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Litseyimizda uch yuztaga yaqin oʻquvchi oʻqiydi. 2. Bu yil litseyimizga uch yuztaga yaqin oʻquvchi qabul qilindi. 3. Saida bilan Nozima ovqat pishirishdi. 4. Biz maktab bogʻiga terak nihollarini oʻtqazdik. 5. Akam bu yil institutni bitiradi. 6. Shahodat shirin hayollarga berildi. 7. Tohir shu kuni uzoq yoʻlga otlandi.

3-topshiriq. Feʼllarning mumkin boʻlgan nisbat shakllarini yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Boʻl (раздели), oʻqi (учись), tush, toʻpla, tani.

4-topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы с Нигорой готовимся поступать в медицинский институт. 2. Мои родители подписались на журнал «Jannat-makon». 3. Мы изучали устройство автомобиля. 4. Пособие написано авторским коллективом. 5. Сегодня мои родители возвращаются из командировки. 6. Сегодня в Ташкенте начинается чемпионат мира по кикбоксингу. 7. Данияр очень грамотно выполнил курсовую работу

5-topshiriq. Maqollarning oʻzbekcha muqobilini ayting. Feʼl nisbatlarini tushuntiring.

1. Друзья познаются в беде. 2. Знание – сила. 3. Яблоко от яблони далеко не падает. 4. Куда большая телега, туда и маленькая. 5. Семь раз отмерь, один раз отрежь.

Yodda tuting: в одной словоформе может быть несколько аффиксов залогов, в этом случае он определяется по последнему аффиксу, образующему залог: yuvintirishdi – глагол взаимно-совместного залога.

6-topshiriq. Fe'l nisbatlari yasalishiga doir misollar yozing.

MILLIY AN'ANA VA UDUMLAR
55-mashg'ulot
Suhbat

- Kolya, sen o'zbek urf-odatlari haqida bilasanmi?
- Rosti, juda oz bilaman.
- O'zbek to'ylarida bo'lganmisan?
- Ha, bir-ikki marta bo'lganman.
- Xo'sh, yoqdimi?
- Ha, yoqdi. Senda urf-odatlar, marosimlar haqida kitob bormi?
- Ha, bor.
- Berib turasanmi?
- Ha, biroq u o'zbek tilida.
- Hechqisi yoq. O'zbekchani yaxshi tushunaman.
- Xo'p. Ertagayoq olib kelib beraman.

RAVISH
(Наречие)

Наречие – часть речи, обозначающая признак действия, качества, реже предмета.

В узбекском языке наречия делятся на:

1. Holat (tarz) ravishlari – наречия образа действия
2. Payt ravishlari – наречия времени
3. O'rin ravishlari – наречия места
4. Maqsad ravishlari – наречия цели
5. Daraja-miqdor ravishlari – наречия меры и степени
6. Sabab ravishlari – наречия причины

Наречия образа действия отвечают на вопросы qanday? – как?, qanday qilib, qay tarzda? – каким образом? и указывают на способ совершения действия. К ним относятся: jīm (спокойно), to'satdan (вдруг), tez (быстро), sekin (медленно), yaуov (пешком), ketma-ket (вслед), astoydil (от души) и т.д.

Наречие времени отвечают на вопросы: qachon? – когда? qachongacha – до каких пор? qachondan (beri) – с каких пор? Обозначают время совершения действия: bugun (сегодня), indinga (послезавтра), o'tgan yili (в прошлом году), oyda-yilda (изредка), kechasi (ночью) и т.д.

Наречия места отвечают на вопросы: qayerda? – где?, qayerga? – куда?, qayerdan? – откуда?, qayergacha? – до куда?

Обозначают место совершения действия: oldinda (впереди), olisda (вдали), olisdan (издали), yuqoriga (вверх) и т.д.

Наречия цели ограничены в количестве: ataylab, jo'rttaga, atayu, atayin (нарочно, специально).

Так же ограничены в количестве наречия причины: poiloj, ilojsizlikdan, chorasiz, chorasizlikdan (находясь в безвыходном положении).

Наречия меры могут указывать как на количество действия, так и на количество предмета: ko'r (много), kam (мало), ancha (много), jindak (мало) и т.д. Наречия степени указывают на степень как действия, так и признака: eng (самый), juda (очень), a'lo (отлично), zo'r (прекрасно) и т.д.

Lug'at ishi

salom	приветствие
suhbatdosh	собеседник
tilamoq	желать, пожелать
qo'l uzatish	протягивать руку
ko'pchilik	большинство
marosim	обряд
urf-odat	обычай

1-topshiriq. Rus tiliga tarjima-qiling.

ODOB SALOMDAN BOSHLANADI

Salom – suhbatning boshi. Salomlashayotib suhbatdoshlar birbiriga sog'lik va tinchlik tilaydilar.

Bu yaxshi odat qadimdan insoniylik ziynati hisoblanadi. Salomlashishda ham ma'lum qoidalarga rioya etish zarur.

Unutmag: birinchi bo‘lib yoshi kichiklar salomlashadi. Ammo qo‘l uzatish kattalardan, birinchi bo‘lib sira qo‘l uzatmang.

2000-yillar ilgari Hindistonda «Mangu qoidalar» degan kitob yozilgan. Unda yoshi kattalarga birinchi bo‘lib salom beruvchilar to‘rt narsaga ega bolishi: uzoq umr ko‘rishi, obro‘li, bilimli va kuchli bo‘lishi aytilgan.

Odatda, bir kishi ko‘pchilikka salom beradi. Xonaga kirgan kishi u yerdagilarga salom berishi lozim.

Ayrim joylarda (hojatxonada) esa salomlashilmaydi.

O‘zingizdan kattalarga «Assalomu alaykum» deb salom bering. «Salom», «yaxshimisiz» kabi so‘zlarni aytib salomlashmang. Bu ham odobdan emas.

Odatda, tengdoshlar shunday salomlashishadi.

2-topshiriq. O‘zbek urf-odatlarini haqida bilganlaringizni aytib bering.

3-topshiriq. Yod oling.

Do‘stlar, yaxshilarni avaylab asrang,
Salom degan so‘zning salomin oqlang.
O‘lgan so‘ng ming soat yig‘lab turgandan,
Uni tirigida bir soat yo‘qlang.

(M. Shayxzoda)

4-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling. Ravishning ma‘no turini ayting.

1. Doniyor jimgina xonasiga kirib ketdi. 2. Anvar ohista yiqildi. 3. Akam ozgina xayolparastlar. 4. Gapni oz so‘zla, ishni ko‘p ko‘zla (maqol). 5. U birpas o‘ylab oldi-da, ko‘chaga qarab chopdi. 6. Ilgari men o‘zbek tilini bilmas edim. 7. Tonggi shabada juda yoqimli esardi.

5-topshiriq. Ravishlar ishtirokida gaplar tuzing.

Hozir, ertaga, bexosdan, do‘stona, ilojsiz.

6-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Aziza wysluchala menya spokoyino. 2. Ozoda hotela uexat' zavtra. 3. Beseda proshla v druzhestvennoy obstanovke. 4. Posle-zavtra my vse edem v gory. 5. Inogda my sobiraem'sya so svoimi byvshimi odnoklassnikami.

56-mashg'ulot Suhbat

- Saida, sen insonlarda qaysi fazilatlarni qadrlaysan?
– Men rostgo'y, o'ziga istamaganini boshqalarga ham istamaydigan kishilarni hurmat qilaman. Chunki, ular hech kimga zarar yetkazmaydi, yaxshilik qila olmasa, yomonlik ham qilmaydi.
– To'g'ri aytasan. Men ham bunday kishilarni hurmat qilaman. Yana men shirinso'z kishilarni qadrlayman. Chunki, tez yarasi bitadi, ammo til yarasi bitmaydi. Yomon gap kishi ko'nglida uzoq qoladi. Uni qiynaydi.
– To'g'ri.

Lug'at ishi

dil	душа
pok	чистый
qamoq	букв; кусаться
ehson	дар, подарок
baxil	жадный
siylamoq	уважить
suyak	кость
bukur	горбатый
qabr	могила

1-topshiriq. Maqollarni yod oling. Rus tilida muqobili bo'lsa, ayting.

1. Dili pokning yo'li pok.
2. Hunarli elda aziz.
3. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi.
4. Yaxshining ehsoniga baxilning boshi og'rir.
5. Shirin oshing bo'lmasa ham, shirin so'zing bo'lsin.
6. Boshga balo tildan.

7. Egasini siylagan itiga suyak tashlaydi.
8. Bukurni qabr to'g'rilaydi.
9. Qon bilan kirgan jon bilan chiqadi.
10. Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi.

2-topshiriq. Maqollar asosida kichik hikoya yozing.

RAVISHLARNING YASALISHI (Образование наречий)

Наиболее активны следующие аффиксы, образующие наречия:

- cha**: yaxshilikcha (по-хорошему), o'zbekcha (по-узбекски);
- larcha**: bolalarcha (по-детски), mardlarcha (мужественно);
- chasiga**: dehqonchasiga (по-дехкански), yigitchasiga (по-мужски);
- sig**: tikkasiga (по вертикали), ko'tarasiga (оптом);
- ona**: qahramonona (героически), do'stona (дружески);
- lab**: oylab (месяцами), yillab (годами);
- an**: majburan (насильно), tasodifan (случайно);

В образовании сложных наречий активно участвуют слова har, hech, bir: har qachon (всегда), har vaqt (всегда), hech mahal (никогда), biroz (немного), bir yo'la (сразу) и т.д.

3-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. U biroz o'ylanib qoldi-da, keyin uyi tomon yo'l oldi.
2. Yaxshilikcha kelmasang, o'zim seni sudrab olib kelaman.
3. Qayoqqa qaramang, xalqimiz fidokorona mehnat qilmoqda.
4. U o'zi ustida tinimsiz ishlaydi.

Yodda tuting: Некоторые разряды наречий имеют степени сравнения: tez-tezroq – juda tez, ko'p-ko'proq – juda ko'p.

Наречия также имеют свойство переходить в имена существительные: Ko'pdan quyon qochib qutulmas (maqol). – Сила в единстве. Ko'pni ko'rgan ko'p biladi. – Кто много повидал, тот много знает (буквально) и т.д.

4-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Неожиданно грянул гром, и пошел дождь. 2. В будущем году мы надеемся на большой урожай риса. 3. Ташкент всегда привлекал иностранных туристов. 4. Я никогда не видел такого прекрасного пейзажа. 5. Туристы очень интересовались историей города.

57-mashg'ulot **Suhbat**

- Siz sportga qiziqasizmi?
- Albatta, qiziqaman.
- Sportning qaysi turiga qiziqasiz?
- Futbolga, xokkeyga, bilyardga.
- O'zbekistonda xokkey bo'yicha birinchilik o'tkaziladimi?
- Yo'q, men Rossiya va MXL birinchiliklarini kuzatib boraman.
- Futbolda-chi? Kimga muxlislik qilasiz?
- «Paxtakor»ga.
- Ozingiz ham o'ynab turasizmi?
- Ha, ish joyimda futbol jamoasi a'zosiman.
- Muvaffaqiyatlar bormi?
- Har holda bo'sh kelmayapmiz.

YORDAMCHI SO'ZLAR **(Служебные слова)**

Служебные слова служат для грамматической связи самостоятельных частей речи. К ним относятся: bog'lovchi (союзы), ko'makchi (послелого), yuklama (частицы).

BOG'LOVCHILAR **(Союзы)**

Союзы – служебные слова, связывающие однородные члены предложения или части сложного предложения.

Они делятся на сочинительные (teng) и подчинительные (ergashtiruvchi).

Сочинительные союзы связывают равные грамматические компоненты: однородные члены предложения, а также части сложносочиненных предложений. Они делятся на три группы:

biriktiruvchi bog'lovchilar – сочинительные союзы: va, ham, hamda (и, тоже).

Zidlov bog'lovchilari – противительные союзы: ammo, lekin, biroq (но, однако).

Ayiruv bog'lovchilari – разделительные союзы: yo, yoki, yohud (или); goh, dam, ba'zan (то). Они часто употребляются повторно.

Подчинительные союзы служат как для связи членов предложения, так и для связи частей сложноподчиненного предложения. К ним относятся: -ki, chunki, negaki, go'yo, agar, shuning uchun, toki (потому что, чтобы, так как).

Lug'at ishi

ibrat	пример
ayamasdan	не шадя
savalayotgan emish	колотит
tuppa-tuzuk	здесь: приличный
rahmi kelibdi	стало жалко
mushtumzo'r	обидчик
ko'hlik(kina)	красивый (красивенький)
do'pposlay boshlabdi	начал избивать
adabini beryapman	проучаю
farosatingga balli	здесь: ну и сообразительна ты...
ko'ngliga tugibdi	задумал

1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

IBRAT

Bir ota o'smir o'g'lini uyidan olib chiqib, ko'chaning o'rtasida ayamasdan savalayotgan emish. Bu simi kim qanday tushunadi, degan ma'noda ana shu usulni tanlagan ekan. Shu payt qo'shni darvozadan bir qiz chiqib qolibdi. Qarasa, tuppa-tuzuk yigitchani otasi urayotganmish. Qiz bunga chiday olmay so'rabdi:

- Amaki, bu kimingiz bo'ladi?
- O'g'lim bo'ladi, – debdi otasi.
- O'g'lingiz nima gunoh qildiki, ko'chaga chiqib urasiz.
- Gunohi shuki, – debdi ota, – aytganimni qiladi.

Qiz hayron qolibdi. Qanaqa ota bu, o'g'li aytganini qilsa-yu, rahmat eshitish o'rimga kaltak yesa. Qizning ko'z yosh qilayotgan bolaga rahmi kelibdi. «Mushtumzo'r» otadan xafa bo'libdi. Ota qizning holatini ko'rib, ichida debdi: «Hoy qizim, sendan yaxshi kelin chiqmaydi. Sen sirning nimaligiga tushunmading...»

Qiz yo'liga ketibdi. Ota yon-veriga qarasa, uzoqdan ko'hlikkina bir qiz kelayotganmish. Qiz yaqinlashishi bilan ota yana o'g'lini do'pposlay boshlabdi.

Qiz to'xtab otadan so'rabdi:

– Amakijon, o'g'lingiz nima gunoh qildiki, uyda emas, ko'chaga chiqarib uryapsiz?

– Nima desam, aytganimni qiladi, qizim. Shuning uchun adabini beryapman, - debdi ota.

– Qattiqroq uring, aqli kirsin, ana o'shanda o'z aqli bilan ish qiladigan bo'ladi,- deb qizcha yo'lida davom etibdi.

Buni ko'rgan ota: «E, farosatingga balli-ey, ona qizim,- deb izidan termulib qolibdi, – albatta, bir kuni seni kelin qilaman», – deb ko'ngliga tugibdi.

2-topshiriq. Maqollarni yod oling. Rus tilida muqobilini ayting.

1. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh.
2. Gap bilganga bir tanga, ish bilganga ming tanga.
3. Bir yil tut ekkan kishi yuz yil dur teradi.
4. Rejasiz ish – qolipsiz g'isht.
5. Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lur.
6. Dangasaga ish buyursang, aql o'rgatadi.

3-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Карима и Хадича поступили в юридический институт.
2. Ходить было трудно, так как ветер бил в лицо.
3. Не сетуйте на жизнь, ибо она полна тревог и забот.
4. Мы продолжали путь то на машине, то пешком.

4-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

Ilm olishning afzalligi haqida hikmatli so'zlarni to'plab, daftaringizga yozing.

5-topshiriq. Bog‘lovchilarning har bir turi qatnashgan ikkitadan gap tuzing.

TARIXNI O‘RGANAMIZ

58-mashg‘ulot

Suhbat

- Ahrorbek, sen tarixga qiziqasanmi?
- Ha, qiziqaman. Ko‘proq O‘zbekistonning shaharlari, tarixi, buyuk allomalar faoliyatini o‘rgangim keladi.
- Yaqinda «Navoiy va Lutfiy» ko‘rsatuvi berildi ko‘rdingmi?
- Ha. Ajoyib ekspeditsiya. Qani endi shunaqa safarlarda ishtirok etsang.
- Sen tarix muzeyida bo‘lganmisan.
- Ha, bir necha marta bo‘lganman.
- Biz ertaga shu muzeyga bormoqchimiz.
- Albatta bor. Ko‘p qiziq narsalarni bilib olasan.

Lug‘at ishi

yaqindan bilgan	знавший близко
istilo	порабощение
xiyonatchi	предатель
o‘z qo‘li bilan bitgan	написанное собственноручно
tarixiy manba	исторический источник
xolisona	объективно
ta‘sis etish	учредить

KO‘MAKCHI

(Послелог)

Послелог – служебные слова, связывающие имена существительные и слова, употребляемые вместо них с другими частями речи, особенно с глаголом. Они выражают условные, причинные, временные пространственные, направительные и другие отношения между именами или между субъектом и предикатом.

Послелог в узбекском языке делятся на:

1. **Asl ko'makchilar** (собственно послелогои): bilan (с), uchun (для), kabi (как), singari (как), go'yo (будто) и др.

2. **Ot ko'makchilar** (отыменные послелогои): tomon (в сторону), ilgari (прежде), yonida (рядом), ichida (внутри, среди) и т.д.

3. **Fe'l ko'makchilar** (отглагольные послелогои): ko'ra (по сравнению), yarasha (по), boshlab (с, начиная), qaraganda (по отношению).

Также послелогои разделяют на группы исходя из того, со словами в каком падеже они употребляются.

Со словами в bosh kelishik употребляются послелогои:

bilan: non bilan (с хлебом), akasi bilan (со старшим братом), qo'li bilan (руками, вручную), qalam bilan (карандашом); kechasi bilan (всю ночь), chiqishi bilan (как только вышел);

uchun: ukam uchun (для моего младшего брата), yozish uchun (для письма, чтобы написать), sovuqligi uchun (так как было холодно), kelganingiz uchun (за то, что пришли) и т.д.

kabi: olmos kabi (как алмаз), men kabi (как я);

sayin: kun sayin (с каждым днем), yil sayin (с каждым годом);

sababli: betobligi sababli (так как был болен, из-за болезни);

orqali: pochta orqali (через почту), telefon orqali (по телефону);

bo'ylab, yoqalab: yo'l bo'ylab (по дороге), daryo yoqalab (вдоль по речке);

Со словами в jo'nalish kelishigi употребляются;

tomon: uyiga tomon (в сторону дома, домой), kechga tomon (ближе к вечеру);

ko'ra: shunga ko'ra (поэтому), tuzilishiga ko'ra (по строению), ma'nosiga ko'ra (по смыслу);

qarshi: shamolga qarshi (против ветра);

qarab: qishloqqa qarab (в сторону села);

qaramay, qaramasdan: shunga qaramay (несмотря на это);

Со словами в chiqish kelishigi употребляются:

so'ng, keyin: shundan so'ng (после этого);

burun, avval: undan avval (до того), bormasdan avval (прежде чем поехать, до того как поехать);

Yodda tuting: Послелогои bilan, -и(-уи) могут употребляться вместо соединительных союзов. Karim va Salim, ota-yu ona.

1-topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, o'zaro suhbatlashing, matn mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning. Matnni ma'noli qismlarga ajrating va reja tuzing.

AMIR TEMUR

Amir Temur 1336-yilning 8-aprelida Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'jailg'or qishlog'ida tug'ildi. U yoshligida xat-savod chiqarib, tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix ilmi va me'morchilikni o'rgandi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatini ikki davrga bo'lish mumkin:

– birinchi davr (1360–1385) – Movaraunnahrning mo'g'ul istilosidan ozod qilinib, yagona markazlashgan davlat tuzilishi, o'zaro urushlar barham topishi;

– ikkinchi davr (1386–1405) esa boshqa mamlakatlarga ikki yillik, uch yillik, to'rt yillik deb ataluvchi yurishlardan iborat.

Atoqli nemis olimi M. Beberning yozishicha, «Amir Temur o'z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edi».

Amir Temur ilm-fan, ma'naviyat ahliga alohida e'tibor, mehribonlik ko'rsatgan. U davlat, jamiyat oldida turgan har bir muhim masala yuzasidan kengash chaqirar va bu kengashga nafaqat davlat arboblari, sarkardalar, temuriyzodalarni, balki sayyidlar, shayxlar, ilm-fan arboblarni ham taklif etar edi.

Sohibqiron bu haqda o'z qo'li bilan bitgan, muhim tarixiy manba sanalgan «Tuzuklari»da bayon etgan.

Mustaqillik davrida tarixni xolisona o'rganish, buyuk ajdodlar ruhini yod etish yaxshi an'anaga aylandi. Xususan, Amir Temur nomini tiklash borasida katta ishlar qilindi. 1996-yilning Vatanimizda Amir Temur yili deb e'lon qilingani, Amir Temur ordeni ta'sis etilgani fikrimizning yorqin dalilidir.

2-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Biz o'z tariximiz bilan faxrlanamiz. 2. Asfalt ho'l bo'lgani uchun mashinalar sekin yurardi. 3. Aziza bu ko'ylakni ukasi uchun sotib olgandi. 4. Har kim mehnatiga yarasha daromad qiladi. 5. Daryo bo'ylab ohista suzib borardik. 6. Dengiz ko'lga qaraganda chuqur. 7. Biz uydagilar bilan telefon orqali gaplashdik.

3-topshiriq. Ko‘makchilar ishtirokida gaplar tuzing. Kabi, qaramasdan, bo‘ylab, keyin, ichida, oldida, yonida.

4-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Ты с Бабуром встречайте гостей у входа.
2. Днем и ночью кипит работа.
3. Я прочитал статью про аномальные явления.
4. Встречают по одежке, а провожают по уму.

59-mashg‘ulot **Suhbat uchun savollar**

1. Shahringizda qanday tarixiy obidalar bor.
2. Mustaqillik yillarida tarixiy obidalarni saqlash va ta‘mirlash ishlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Qaysi tarixiy shaharlarda bo‘lgansiz?

YUKLAMA **(Частица)**

Частицы – служебные слова, придающие предложению или отдельным словам различные дополнительные значения. Частицы делятся на две группы:

1. **Yuklama-so‘z** (слова-частицы): *hatto* (даже), *faqat* (только), *xolos* (всего, только) *ham* (тоже), *nahot* (*ki*) (неужели), *xuddi* (точно);

2. **Yuklama-qo‘shimcha** (частицы-аффиксы): *-mi*, *-chi*, *a(ya)*, *-ki*, *-da*, *-oq* (*-yoq*) и т.д.

Частицы придают слову или предложению значение утвердительное, отрицательное, ограничительное и т.д.

1. **So‘roq va taajjub yuklamalari** (вопросительные частицы): *-mi*, *-chi*, *-a*, *-ya*. *Dadang keldilarmi?* Отец приехал? *Oying-chi?* – А мама? *Oh, qanday so‘lim kecha-ya!* – Ах, какой прекрасный вечер!

2. **Kuchaytiruv va ta‘kid yuklamalari** (усилительные и утвердительные частицы): *-ki*, *ham*, *-u*, *-uy*, *-da*, *-oq*, *-yoq*, *-ku*, *-kim*. *Bugunoq* – сегодня же, *aytdim-ku* – сказал же, *bitta ham* (*yo‘q*) – ни одного (нет), *yozda ham* – даже летом.

3. **Ayiruv – chegaralov yuklamalari** (разделительные и разграничительные частицы): *-gina*, *xolos*, *faqat*. *Faqat bitta* –

только один, ikkitagina – всего два, shu uchun holos – только для этого.

4. Aniqlov yuklamalari (уточняющие частицы) xuddi, naq: xuddi kechagiday – точно как вчера.

Все частицы – аффиксы за исключением -mi, -oq, -yoq, -gina пишутся через дефис, а перечисленные слитно.

Частица -u (yu) может употребляться вместо сочинительных и противительных союзов: ota-yu ona – отец и мать, yozdi-yu o'qimadi – написал, но не прочел.

Lug'at ishi

qad rostlagan	воздвигнут
ulug'vor	величественный
muhtasham	красивый
manba	источник
qandil	люстра
bunyodkorlik	созидательство
guvohlik bermoq	свидетельствовать

1-topshiriq. Matnni o'qing. Gapirib berishga tayyorlaning.

TEMURIYLAR MUZEYIDA

Shahrimizda muzeylar ko'p. Ular boy tariximiz, madaniyatimizdan hikoya qiladi.

Amir Temur xiyobonida Temuriylar tarixi Davlat muzeyi qad rostlagan. Ulug'vor, muhtasham bino shahrimiz ko'rkiga ko'rk qo'shdi.

Muzeyda Temur va uning davri, temuriylar haqidagi haqiqat tarixiy manbalar asosida yoritilgan. U yerdagi eksponatlar o'sha davr hayoti va ruhiyatini aks ettiradi.

Muzey interyeri ajoyib. Ulkan qandil unga alohida ulug'vorlik baxsh etgan.

Bu muzey nafaqat boy tarix, balki bugungi kundagi bunyodkorlik ishlariga ham guvohlik berib turibdi.

2-topshiriq. Temuriylar muzeyi haqidagi matnni to'ldiring.

3-topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Har bir olma naq kosadek. 2. Shu ham ish bo'ldi-yu. 3. Ertayoq biznikiga yetib kel. 4. Hamma yoq gulu chechaklar bilan qoplandi. 5. Sen-u, bularning hammasini o'ylab topgan.

4-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Ты же придумал поехать в горы. 2. Мы поедем туда сейчас же. 3. А ты знаешь, что приехал Сабит. 4. Делай как тебе объяснили.

60-mashg'ulot **Suhbat uchun savollar**

1. O'zbekistonning tarixiy shaharlari qaysilar? Ularda bo'lganmisiz?

2. Qanday tarixiy yodgorliklarni bilasiz?

3. Siz yashab turgan shahar (qishloqda) tarixiy obidalar bormi? Ular haqida nimalarni bilasiz?.

4. O'zbekiston tarixidagi shonli sanalar haqida aytib bering.

Lug'at ishi

qurilish	строительство
inshoot	здание, объект
barpo etildi	построен
me'moriy yechim	архитектурное решение
kichik halqa yo'li	малая кольцевая дорога
ta'mirlash	ремонтировать, реконструировать
manfaat	интерес
yanada	здесь: далее

1-topshiriq. Matnni o'qing. Qayta hikoya qilib bering.

ULKAN QURILISH MAYDONI

Istiqlol yillari poytaxtimiz ulkan qurilish maydoniga aylandi. Ko'plab yangi inshootlar barpo etildi va barpo etilmoqda.

O'zbekiston Miliy Drama teatri, Milliy konservatoriya binosi, «Interkontinental», «Sheraton» kabi mehmonxonalar, me'moriy

obidalar bilan birga yo‘llar, ko‘priklar qurildi. Kichik halqa yo‘li qurib bitkazilishi ko‘pchilikning uzog‘ini yaqin qildi.

Shahrimizning bosh maydoni – Mustaqillik maydonida olib borilgan qurilish, ta‘mirlash ishlaridan so‘ng uning chiroyi yanada ortdi.

Ko‘plab litsey va kollejlari qurildi, eski binolar ta‘mirlandi. Bular hammasi xalq manfaatini ko‘zlab amalga oshirildi.

Ishonamanki, shahrimiz yanada obod bo‘lib boraveradi.

2-topshiriq. Shahringiz (qishlog‘ingiz)dagi obodonlashtirish ishlari, yangi qurilgan binolar haqida so‘zlab bering.

SO‘ZLARNING ALOHIDA GURUHLARI

(Особые группы слов)

В узбекском языке имеются три особых групп слов: Modal so‘zlar (модальные слова), undovlar (междометия), taqlidiy so‘zlar (подражательные слова).

MODAL SO‘ZLAR

(Модальные слова)

Модальные слова, указывая отношение говорящего к высказываемой мысли, могут выражать:

– уверенность: albatta (обязательно), shubhasiz (несомненно), haqiqatan (ham) (и вправду);

– сомнение: ehtimol (возможно), balki (может быть), aftidan (по видимому), chapasi (кажется);

– цель, условие: kerak (надо), lozim (нужно), zarur (необходимо);

– отрицание: yo‘q (нет);

– сожаление: afsus, attang, esiz (жаль, к сожалению);

– источник мысли: meningcha (по-моему).

UNDOVLAR

(Междометия)

Междометия – слова, употребляемые для передачи различных чувств или волевых побуждений: e, eh, ey, oh, uh, o‘ho‘, voh и т.д.

Особую группу образуют междометия, служащие для призыва и отгона животных: tu-tu-tu, beh-beh, pish-pish, kisht, po‘shht и т.д.

TAQLIDIY SO‘ZLAR (Подражательные слова)

Подражательные слова представляют собой словесное воспроизведение различных звуковых явлений, так же подражание некоторым действиям: yalt-yalt (к сверканию), taqur-tuqur (стуку колес), lip (быстрому движению) и т.д.

В узбекском языке много глаголов, образованных именно от подражательных слов: pichirlamoq (шептать), taqillamoq (стучать), g‘ichirlamoq (скрипеть), yaltiramoq (сверкать), qiqirlamoq (хихикать) и т.д.

3-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Ах, как мне нравится эта лилия! 2. По вашему, я ошибаюсь? Несомненно, это был лучший матч «Пахтакор» в этом сезоне. Издали слышался скрип арбы. 5. Ох, как же я мог забыть. 6. Неужели, этого не может быть.

4-topshiriq. Berilgan undov, modal, taqlidiy so‘zlar ishtirokida gap tuzing va rus tiliga tarjima qiling.

Voy, voy-bo‘, xayriyat, shekilli, taqir-tuqur, yalt-yalt.

5-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Tarixchilarning bayon etishicha, sayyoramizdagi ilk hayvonot bog‘i eramizdan avvalgi I asrda Rim imperatori Avgust buyrug‘iga binoan tashkil etilgan. Unda yer yuzining turli burchaklaridan keltirilgan 3500 atrofida jonivor saqlangan.

MILLIY BAYRAMLAR

61-mashg‘ulot Suhbat uchun savollar

- Kechirasiz, siz shu yerlikmisiz?
- Ha. Men mana shu dahada yashayman.
- Aytib berolmaysizmi, 14-uyni qanday topsam bo‘ladi?
- Hozir to‘g‘riga borasiz, o‘ng qo‘lga ko‘cha keladi. Shu ko‘cha bo‘ylab 50 qadamlar yursangiz, chap tomonda 9 qavatli uy bor. Mana shu 14-uy bo‘ladi.

- Rahmat.
- Salomat bo‘ling.

SINTAKSIS

Синтаксис – раздел языкознания, изучающий словосочетания и предложения. В нем рассматриваются формы и типы предложений, структура словосочетаний и связи слов в предложении.

В синтаксисе изучается и слово, но оно изучается не как лексическая единица или часть речи, а как тот или иной член предложения.

GAPDA SO‘ZLARNING BOG‘LANISHI (Связь слов в предложении)

В узбекском языке различают два типа синтаксической связи: **teng bog‘lanish** (сочинительная связь) и **tobe bog‘lanish** (подчинительная связь).

TENGLIK BOG‘LANISH (Сочинительная связь)

Сочинительная связь – это связь равноправных, независимых синтаксически слов.

Сочинительная связь осуществляется с помощью: сочинительных союзов: **Akmal va Ozod; yozdi, lekin o‘qimadi; Anvar yoki O‘ktam**; слов, употребляемых вместо сочинительных союзов: **bo‘ri bilan qo‘zichoq** (волк и ягненок); **ota-yu ona, keldi-yu, ishlamadi**; интонации перечисления: **olma, o‘rik, shaftoli**.

Слова, соединенные сочинительной связью, являются однородными членами предложения. **Bog‘imizda atirgul, chinnigul, binafshalar o‘sadi** – В нашем саду растут розы, гвоздики, фиалки. **Bugun Anvar yoki O‘tkir navbatchilik qiladi.** – Сегодня дежурят Анвар или Уткур.

Lug'at ishi

orziqib kutmoq	ждать с нетерпением
tantana qilinadi	празднуется
ko'tarinki	преподнятое
umumxalq	всенародный
obodonlashtirish	благоустройство
xayrli	доброе, благородное
tadbir	мероприятие
shodiyona	торжество
shu bois	поэтому

1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

MUQADDAS BAYRAM

1-sentabr mamlakatimiz ahli orziqib kutadigan yorqin kun. Zero shu kuni xalqimizning asriy orzusi – Mustaqillik kuni tantana qilinadi.

Bayram arafasida umumxalq hashari o'tkazilib, obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Katta-yu kichik bu xayrli ishga birdek bel bog'laydi. Ko'cha va xiyobonlar o'zgacha tozalanadi, bezatiladi. Hammaning kayfiyati ko'tarinki, labida tabassum.

Shodiyonalar mamlakatimizning har bir viloyat, tuman, qishloq markazida o'tadi. San'at ustalari xalqimiz xizmatida bo'lib, ularga ko'tarinki kayfiyat baxsh etadi.

O'quv yurtlari, korxonalar va muassasalarda – barcha-barcha joyda bayram tadbirlari bo'lib o'tadi. Davlat va jamoat arboblari, faxriylar bilan uchrashuvlar uyushtiriladi. Bugungi kunga shukrona aytiladi.

Mustaqillik O'zbekiston xalqining asriy orzusi. Shu bois bu kunni hamma birdek yaxshi ko'radi.

2-topshiriq. Matn mazmunini so'zlab bering. Shu mavzuga oid suhbat uyushtiring. Gazetaga maqola tayyorlang.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Ona bilan bola – gul bilan lola (maqol). 2. Har birimiz a'lo o'qish va halol mehnatimiz bilan yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shaylik. 3. Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy g'azallarini sevib o'qiyman. 4. Tohir, Adham va G'ofur barcha fanlardan a'lo baholar olishdi. 5. Yig'ilganlarga palov va sumalak tortildi.

4-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qilib, bog‘lovchi vositalarni izohlang.

1. Чтобы хорошо знать узбекский язык я много читаю, пишу и перевожу. 2. На собрании высказали свое мнение Акрам, Хадичча и Наргиза. 3. В нашем университете работают факультеты практических психологов и повышения квалификации учителей. 4. Самиг ушел в магазин со своим братом Акмалем. 5. Хлопок, пшеница, овощи – все это мы выращиваем в школьном опытном хозяйстве.

62-mashg‘ulot **Suhbat uchun savollar**

1. Qaysi bayramlarni bilasiz? 2. Qaysi bayramni yaxshi ko‘rasiz, nima uchun? 3. Navro‘z bayramini odatda qanday o‘tkazasiz? Yangi yilni-chi?

Lug‘at ishi

kecha-kunduzning to‘rtidan biri	одна четвертая суток
Kayumars (Jamshid)	мифологический падишах Ирана
Ajam	Древний Иран
joriy qilish	учредить, ввести
burj	знак зодиака
mubar	священник у зороастридов
mehr- muravvat	доброта, радушие
...bayrami sifatida	как праздник...
ajoyib	замечательный

1-topshiriq. Matnni o‘qing.

NAVRO‘ZI OLAM

Umar Hayyomning (1048–1132) «Navro‘znoma» asarida o‘qiyimiz «Navro‘zning joriy qilinishi sababini aytsak, u shundan iboratki, oftobning ikki aylanishi mavjud, ulardan biri quyidagicha: Oftob har yuz oltmish besh kun-u kecha-kunduzning to‘rtidan birida Hamal burjining birinchi daqiqasiga chiqib ketgan paytining o‘zida yana qaytib keladi va har yili bu davr kamaya boradi.

Jamshid bu kunni tushunganidan keyin Navro‘z deb atadi va bayram qilishni odatga aylantirdi.

Aytishlaricha, birinchi Ajam podshosi Kayumars podshoh bo'lgandan keyin yilning kunlari va oylariga nom berishga hamda odamlar bilsin deb yilnoma joriy qilishga qaror qilgan, u tongda oftob Hamal burjining avvalgi daqiqasida kirgan kunni aniqlab, Ajam mubadllarini yig'di va yil hisobini shu paytdan boshlashni buyurdi».

Mana shunday qadimiy bayram sobiq sho'rolar tuzumi davrida deyarli unutildi. Uni taqiqlab ham qo'yishdi.

Shukrki, istiqlol bu ajoyib bayramni xalqimizga qaytarib berdi. Endilikda u O'zbekistonda bahor, mehr-muruvvat, do'stlik bayrami sifatida keng nishonlanmoqda.

2-topshiriq. Matn yuzasidan savol-javob o'tkazing. Navro'z haqida bilganlaringizni aytib bering.

TOBE BOG'LANISH (Подчинительная связь)

При подчинительной связи одно слово называется **bosh so'z** (главное слово), другое **ergash so'z** (придаточное слово). Придаточное (зависимое) слово поясняет значение главного слова. Подчинительная связь бывает трех видов: *moslashuv* (согласование), *boshqaruv* (управление), *bitishuv* (примыкание).

MOSLASHUV (Согласование)

При согласовании зависимое слово ставится в том же числе и лице, что и главное.

В узбекском языке согласование возможно только между подлежащим и сказуемым (так как это предикативное отношение как словосочетание оно не рассматривается), а также между словом в притяжательном падеже и словом зависящим от него: *kitobning varag'i*. В узбекском языке слова согласуются в лице и числе (не всегда) *dadamning xonalari*. Этой связи служат аффиксы падежа и принадлежности. Но они могут быть пропущены: *maktab bog'i*, *bizning ko'cha*, *sizning mahalla*.

BOSHQARUV (Управление)

При управлении главное слово требует постановки зависимого в определенной форме. Управление бывает двух типов:

1. **Fe'l boshqaruv** (глагольное управление), главное слово выражено глаголом: g'ishtdan qurilgan, akasi bilan ketmoq.

2. **Ot boshqaruv** (именное управление), главное слово выражено любой частью речи, за исключением глагола: otdan baland, dengizdan chuqur, mehnatga yarasha daromad.

В зависимости от средства связи различают:

1. **Kelishikli boshqaruv** (падежное управление): o'qishga ketmoq, uydan baland.

2. **Ko'makchili boshqaruv** (послелоговое управление): akasi uchun olmoq, daromadga qarab buromad.

BITISHUV (Примыкание)

Примыкание – это способ подчинительной связи, где главное и придаточное слова не принимают морфологического показателя. В узбекском языке имеет значение порядок слов. Придаточное всегда идет перед главным словом: issiq non (горячий хлеб), shirin so'z (ласковое слово). Если нарушится порядок слов, то получится простое нераспространенное предложение. Сравните: sovuq havo – холодный воздух. Havo sovuq – Воздух холодный (Холодно).

В узбекском языке примыкание возможно между:

- прилагательным и существительным: chiroyli gul;
- существительным и существительным: temir eshik;
- числительным и существительным: birinchi muhabbat;
- местоимением и существительным: hamma o'quvchilar;
- причастием и существительным: o'qigan bola;
- наречием и существительным: ko'p kitoblar;
- наречием и глаголом: sekin gapirmoq;
- прилагательным и глаголом: yaxshi tanimoq;
- деепричастием и глаголом: kulib gapirmoq.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Soʻzlarning bogʻlanishiga eʼtibor bering. Soʻz birikmalarini koʻchirib yozing.

1. Salima ukasini bolalar bogʻchasiga olib ketdi. 2. Men kitobni bir kechada oʻqib bitirdim. 3. Oʻzbekistonda chiroyli joylar koʻp. 4. Shahrimizga har kuni minglab sayyohlar kelishadi. 5. Tongda boshlangan qor kechga borib ham tinmadi.

4-topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Моя старшая сестра работает директором школы. 2. В заводской библиотеке много книг узбекских авторов. 3. Наш город всегда славился своим гостеприимством. 4. Наталья и Андрей уехали отдыхать в горы. 5. Наш край богат хлопком, шелком.

63-mashgʻulot **Suhbat**

– Lena, sen oʻzbek xonandalarining qoʻshiqlarini eshitib turasanmi?

– Ha. Men Rayhon Gʻaniyeva, «Se tanho» guruhi qoʻshiqlarini yaxshi koʻrib eshitaman.

– Yana qaysi xonandalarni bilasan?

– Lola, Joʻrabek, Yodgor Mirzajonov, Tohir Sodiqovlarni bilaman.

– Oʻzbekcha qoʻshiqlarni toʻliq tushunasanmi?

– Deyarli, hammasini tushunaman.

– Milliy ijrochilarni ham eshitasanmi?

– Maqomlarni eshitib koʻrganman. Menga yoqdi. Biroq hamma sozlarni tushuna olmadim.

GAPNING IFODA MAQSADIGA KOʻRA TURLARI **(Типы предложений по цели высказывания)**

По цели высказывания предложения делятся на три группы: darak gap (повествовательное предложение); soʻroq gap (вопросительное предложение); buyruq gap (побудительное предложение).

Darak gap. Повествовательное предложение сообщает о каком-либо факте, явлении и т.п. *Ulug'bekning ilmiy faoliyati ning shuhratini olamga yoydi* – Научная деятельность Улугбека прославила его на весь мир.

So'roq gap. Вопросительными называются те предложения, при помощи которых говорящий стремится что-либо узнать от собеседника. В узбекском языке они образуются тремя способами:

1. При помощи вопросительных частиц: *Sen institutda o'qiyasanmi?*

– Ты учишься в институте? *Akang-chi?* – А твой старший брат? *Shu kicnkina bola-ya?* – Этот маленький мальчишка?

2. При помощи вопросительных местоимений: *Kim she'ni yoddan aytib beradi?* – Кто прочитает стихи наизусть? *Vozordan nimalar olmoqchisiz?* – Что вы собираетесь купить на базаре?

3. При помощи вопросительной интонации: *Soat besh bo'ldi* – *Soat besh bo'ldi?* Время – пять часов – Время – пять часов?

Buyruq gap. Побудительные предложения выражают различные оттенки волеизъявления: приказ, просьбу, угрозу и т.д. Сказуемое в этих предложениях чаще выражено глаголом повелительного наклонения: *Sen gaplaringma xafa bo'lma* - Ты не обижайся моим словам.

Все типы предложений по цели высказывания могут произноситься с восклицанием или в нормальном тоне. В конце восклицательных ставится восклицательный знак. После вопросительного предложения произносимого с восклицанием ставятся два знака: вопросительный и восклицательный: *Shu kicnkina bola-ya?!* – Этот маленький мальчишка?!

Lug'at ishi

masxaraboz	клоун
dorboz	канатоходец
befarq	равнодушный
nimaga qodir	на что способен
miriqib	с удовольствием

1-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

QADRIYATLAR QADR TOPMOQDA

Xalqimizning bayramlari ko'p: Navro'z, Mehrjon, Hosil bayrami. Men bu bayramlarni yaxshi ko'raman. Bu bayramlarda xalq sayllari o'tadi.

Navro'zga bag'ishlangan xalq sayllari ayniqsa zo'r o'tadi. Kattakatta doshqozonlarda osh, sumalak kabi taomlar tayyorlanadi.

Lekin muhimi bu emas. Shahar markazlari, dalalarda, bog'larda xalq sirki artistlarining tomoshalari boshlanadi. Masxarabozlar, dorbozlar yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashadi.

Sayllar milliy o'yinlarsiz o'tmaydi. Uloq, qizquvdi kabi o'yinlar hech kimni befarq qoldirmasa kerak...

Polvonlar ham shu kuni o'zlarining nimaga qodirligini ko'rsatish uchun gilamga chiqishadi. Dunyoga yuz tutayotgan o'zbek milliy kurashisiz sayl bo'larmidi axir.

Saylda hamma xursand. Har kim miriqib dam oladi. Bayramlar ertangi kunimizga ishonchimizni mustahkamlaydi.

Xullas, ozod yurtga bayramlar yarashadi. Ona O'zbekistonimizning har kuni bayram bo'laversin.

2-topshiriq. Turli bayramlar munosabati bilan ota-onangiz, ustozlaringiz, do'stlaringizga tabrik yozing.

3-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Искренне желаю вам счастья. 2. Разрешите поздравить вас. 3. Всего вам самого наилучшего.

4-topshiriq. Navro'z, bahor haqida she'r yod oling.

MADANIYATIMIZ FIDOYILARI

64-mashg'ulot

Suhbat

- Siz o'zbek xalq afsonalari va rivoyatlari bilan tanishmisiz?
- Rosti, faqat bir-ikkita rivoyatni bilaman, ularni ham rus tilida o'qiganman.

- Ular nima haqida?
- Ular mard choʻpon Shiroq, Navoiy haqida rivoyatlar.
- Nima, siz ularga qiziqmaysizmi?
- Nega endi. Shunchaki oʻqishga qiynalardim. Endi, oʻzbek tilini yaxshi bilib olgach, albatta oʻqiyman.
- Qaysi dostonlarni bilasiz?
- «Tohir va Zuhra», «Abu Muslim jangnomasi» dostonlari haqida eshitganman.
- Siz oʻzbek adabiyotini koʻp oʻqishingiz kerak ekan.
- Toʻgʻri aytasiz.

GAP BOʻLAKLARI (Члены предложения)

Член предложения – это слово или сочетание слов, выполняющее в предложении какую-либо функцию и отвечающее на конкретный вопрос. Например, в предложении *Bugun biz maktab bogʻida ishladik*. Слово *biz* отвечает на вопрос *kim?* и указывает на то, о ком идет речь. Слово *ishladik* отвечает на вопрос *nima qildik?*, выносит суждение о подлежащем и т.д.

Члены предложения делятся на: **bosh boʻlaklar** (главные члены) и **ikkinchi darajali boʻlaklar** (второстепенные члены).

Главными членами предложения являются: **ega** (подлежащее) и **kesim** (сказуемое). Они выражают основную мысль в предложении.

BOSH BOʻLAKLAR (Главные члены предложения)

Ega. Подлежащее – главный член предложения, указывающий о ком или о чем идет речь в предложении. В узбекском языке оно может выражаться различными частями речи:

Существительным: **Oʻqituvchimiz qiziq bir voqeani aytib berdi.**

Местоимением: **Bu – mening Vatanim.**

Прилагательным: **Oqlar boshlaydi va ikki yurushda mot qiladi.**
(Белые начинают и делают мат в два хода);

Числительным: **Ikki – toʻrtning yarmi.**

Причастием: **Koʻkka boqqan qoqilar (maqol).** (Буквально: смотрящий в небо споткнется).

Именем действия: **O‘qish** – yuksalish

Подражательным словом: Uzoqdan otlarning **dupuri** eshitildi. (Издали слышался топот лошадей).

Фразеологизмом: **Uning oyoq olishi** bizga yoqmadi. (Нам не понравилось его поведение).

Kesim. Сказуемое – главный член предложения, грамматически зависящий от подлежащего. Оно выносит суждение о подлежащем. Различают **fe’l kesim** (глагольное сказуемое) – выражается различными формами глагола, и **ot kesim** (именное сказуемое) – выражается другими частями речи. Так же различают **sodda kesim** (простое сказуемое) и **murakkab kesim** (составное сказуемое).

Сказуемое в узбекском языке выражается всеми частями речи:

Существительным: Toshkent – chiroyli **shahar**. Прилагательным: Hayot naqadar **go‘zal!** Жизнь так прекрасна!

Числительным: Bizning uyimiz – **yettinchi**. Наш дом – седьмой.

Местоимением: Hamma gap – **shu**. Вот весь разговор.

Наречием: Aytish **oson**, bajarish **qiyin**. Сказать легко, сделать трудно.

Глаголом (чаще всего): Men o‘zbek tilini yaxshi **bilaman**.

Модальными словами: Bugun yig‘ilish **bor**. Фразеологизмом: U nima deyishini bilmay, **tilini tishladi**. Он прикусил язык, не зная что сказать.

Lug‘at ishi

havaskor(lik) sahna	любитель(ский)
sahnalashtiruvchi	сцена
sahna	постановщик
san'ati zamin	сценическое искусство
yaratdi sazovor	заложил фундамент
bo‘lgan	был удостоен
tarjimon	переводчик

1-topshiriq. Matnни o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

MANNON UYG'UR

O'zbek teatr san'ati namoyandalaridan biri Mannon Uyg'ur 1894-yilda Toshkentda tug'ilgan.

Sahna faoliyatini 1916-yilda havaskor aktyor sifatida boshlagan.

1924–27-yillarda Moskvadagi O'zbek drama studiyasida o'qib K. Stanislavskiy metodi, E. Vaxtangov rejissurasi bilan tanishadi.

O'zbek Davlat akademik drama (hozirda o'zbek milliy akademik) teatri asoschisi bo'lgan Mannon Uyg'ur umrining oxirigacha shu yerda ijod qildi.

U sahnalashtiruvchi rejissyor sifatida sahna san'atimiz rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Yuzdan ortiq spektaklni sahnalashtirdi. Ular orasida «Otello», «Revizor», «Gamlet» kabi buyuk asarlar ham bor. Uyg'ur sahnaga qo'ygan «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Arshin mol olan» asarlari o'zbek sahnasida musiqali drama janri rivojiga zamin yaratdi.

Mannon Uyg'ur sahnalashtirgan «Alisher Navoiy» spektakli 1947-yilda Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Mashhur teatr arbobi, tarjimon, dramaturg, pedagog Mannon Uyg'ur 1955-yilda vafot etdi.

Hozirda Toshkent san'at instituti uning nomini olgan.

2-topshiriq. Gaplarni o'qing, kesimni aniqlang, ifodalanishini tushuntiring.

1. Aqldan ortiq boyluk yo'q (maqol). 2. Bahorda kunlar iliy boshlaydi. 3. Salim, menga kitobingni berib tur. 4. Aytmoqchi bo'lganim mana shular. 5. Orzuim – yaxshi muhandis bo'lish. 6. Mana bu yigit sportchi. 7. Tohirning hamma ishi aniq va puxta. 8. Xabarni eshitib, Salimaning boshi ko'kka yetdi.

65-mashg'ulot

Suhbat uchun savollar

- O'zbekiston Respublikasida nechta viloyat bor?
- O'zbekiston aholisi qancha?
- O'zbekistonning yirik shaharlarini aytib bering?
- O'zbekistonda qaysi sohalar yaxshi rivojlangan?
- O'zbekistonning hududi qancha?
- Respublika qaysi davlatlar bilan chegaradosh?

IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLAR (Второстепенные члены предложения)

Второстепенные члены предложения служат для пояснения главных: подлежащего и сказуемого. К ним относятся: aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol.

ANIQLOVCHI (Определение)

Определение указывает на признак любого члена предложения, выраженного именем существительным или субстантивированным словом.

В узбекском языке оно бывает трех видов: **sifatlovchi** (качественное), **qaratqich** (притяжательное) и **izohlovchi** (изъяснительное).

Качественное определение указывает на признак предмета и может быть выражено:

прилагательным: Saidaning chiroyli ko‘ylagi bor.

существительным: Yana keldi oltin kuz.

числительным: Biz to‘rtinchi qavatda yashaymiz.

местоимением: Bu o‘lkada har narsa bordir (H.Olimjon).

причастием: O‘ylagan ishlarim amalga oshdi.

Притяжательное определение указывает на принадлежность одного предмета другому и может быть выражено лишь словом в притяжательном узбекском падеже (qaratqich kelishigi) – Yurtimizning suvi – zar, tuprog‘i – gavhar.

Изъяснительное определение называет предмет по-новому: Vatan – ona so‘zi naqadar laziz!

Lug‘at ishi

tashkil topgan

iste‘dod sohibi

tilga tushib ulgurgan

sozanda

qo‘shiqsevar

ijodiy

образован

буквально: обладатель таланта

успел прославиться

музыкант

любитель песни

творчески(й)

1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

«YALLA»

«Yalla» vokal-cholgʻu ansambli 1966-yilda tashkil topgan. Dastaga yosh isteʼdod sohiblari jamlangan. Yosh jamoa tez orada muxlislar tiliga tushib ulgurgan.

Ansamblda turli yillarda bir qancha mohir sozanda va xonandalar ijod qilishgan. Uning doimiy qatnashchisi va rahbari Farux Zokirovni hamma yaxshi biladi.

Ansambl repertuaridan oʻzbek, rus va boshqa tillardagi qoʻshiqlar oʻrin olgan. Bular orasida «Yalla», «Uchquduq», «Shahrisabz», «Pozovet menya doroga» nafaqat oʻzbekistonlik, balki koʻplab xorijiy mamlakatlar tinglovchilari ham yuksak baho berishgan.

Ansamblning gramplastinkalari katta miqdorda chiqarilib, qoʻshiqsevarlar orasida qoʻlma-qoʻl boʻlgan.

Hozirda ham guruh aʼzolari yangi-yangi qoʻshiqlar yaratmoqdalar.

«Yalla» koʻplab ijodiy safarlarda boʻlmoqda. Oʻzbek estradasini olamga tanitmoqda.

2-topshiriq. Bosh boʻlaklarni aniqlang.

1. Bugun kursdoshlarimiz Samarqandga joʻnab ketishadi.
2. Yurtimizda chiroyli joylar koʻp.
3. Men bahor faslini yoqtiraman.
4. Ikki karra ikki – toʻrt.
5. Koʻpni koʻrgan koʻp biladi (maqol).
6. Saodat boʻlgan voqeani kula-kula gapirib berdi.

3-topshiriq. «Yalla» matnidagi barcha aniqlovchilarni oʻzi bogʻlanib kelgan soʻz bilan birga koʻchiring, ifodalanishini tushuntiring.

66-mashgʻulot

Suhbat

- Oilada necha kishisiz?
- Oilada besh kishimiz. Bular: dadam, oyim, men, ukam va singlim.
- Dadang ishlaydilarmi?
- Ha. dadam maktabda matematikadan dars beradilar.
- Oying-chi?

- Oyim uy bekasilar.
- Singling necha yoshda?
- U sakkiz yoshda, ukam esa o'n birda.
- Ular qaysi maktabda o'qishadi?
- Ular 100-maktabda o'qishadi. Ukam 4-sinfda, singlim esa ikkinchida.

TO'LDIRUVCHI

Дополнение – второстепенный член предложения, обозначающий предмет, на который направлено действие. Оно бывает двух видов: **vositasiz** (прямое) и **vositali** (косвенное).

Прямое дополнение обозначает предмет, на который непосредственно направлено действие, и стоит в форме *tushum kelishigi* (винительного падежа) – *Ko'rgan eshitganni yengibdi* (Слышавший переспорил видившего).

Косвенное дополнение обозначает объект, действие на который направлено косвенно, и может выражаться словами в форме дательного, местного и исходного падежей, а также именительного в сочетании с послелогом: *Dekan davlat attestatsiyasi haqida gapirdi* – Декан говорил о государственной аттестации.

Lug'at ishi

arbob	деятель
yaratgan	создавший
bastakor	композитор
atoqli	именитый
xalq ashulalari asosida	на основе (по мотивам) народных песен
yozib olishga kirishgan	взялся записывать
nashr eta boshlagan	начал публиковать
o'qib yurganida	когда учился
mumtoz	классический

1-topshiriq. Matnni o'qing. Uning yuzasidan savol-javob qiling. Matn mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning.

XALQ OLQISHLAGAN SAN'ATKOR

Yunus Rajabiy O'zbekistonda maqom maktabini yaratgan madaniyat arbobidir. 1940–1941-yillarda Moskvada bastakorlar kurslarida o'qib, Yevropa mumtoz musiqasi, klassik bastakorlar ijodi bilan tanishdi.

Yunus Rajabiy atoqli madaniyat arboblari domla Halim Ibodov, Xoji Abdulaziz Rasulov, Shorahim Shoumarov, Mulla To'yshi Toshmuhammedovlardan maqomlar o'rgandi.

Yunus Rajabiy «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Xolisxon» kabi spektakllarga xalq ashulalari asosida kuylar yaratdi.

«Bayot», «Girya», «Dugoh Husayniy», «Ko'cha bog'i» kabi ashulalarni xalqimiz Yunus Rajabiy tufayli sevib qolgan.

Bastakor 1930-yillardayoq xalq musiqasi namunalarini notaga yozib olishga kirishgan, keyinroq ularni nashr eta boshlagan. "O'zbek xalq muzikasi" kitobining I–V- jildlari Yunus Rajabiy yozib olgan musiqa namunalaridan iborat. Unda Toshkent-Farg'ona maqom yo'li, Buxoro «Shosh maqomi» alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston xalq artisti, Respublika Fanlar Akademiyasining akademigi Yunus Rajabiy yaratgan taronalarni xalqimiz hanuz sevib tinglaydi.

Hozirda uning ishlarini farzandlari: o'g'li – O'zbekiston xalq hofizi Hasan Rajabiy va nevarasi – Aziz Rajabiylar davom ettirmoqda.

2-topshiriq. Matndagi barcha to'ldiruvchilarni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga ko'chiring, ifodalanishini tushuntiring.

3-topshiriq. O'zingiz yoqtirgan san'atkorga tavsif bering.

4-topshiriq. O'zbek san'atida yana qaysi sulolalarni bilasiz? Ular haqida aytib bering.

INSONDAN XOTIRA QOLADI

67-mashg'ulot

Suhbat

– Tohir, sen Badiiy akademiyaning ko'rgazmalar zalida bo'lgan-misan?

– Ha, men u yerga tez-tez borib turaman.

– Senga tasviriy san'atning qaysi yonalishi yoqadi.

- Men peyzajlarni, portretlarni yoqtiraman.
- Menga naturmortlar ko‘proq yoqadi.
- O‘zing ham rasm chizasanmi?
- Yoq, menda qobiliyat yoq, shekili.
- Men esa chizaman. Do‘stlarim maqtashadi.
- Men ham ko‘rsam bo‘lar ekan.
- Vaqt topib biznikiga kel, ko‘rasan.
- Albatta, boraman.

HOL (Обстоятельство)

Обстоятельство — это второстепенный член предложения, уточняющий характер (образ) действия, обстановку, условие, место, время, цель, причину, меру и степень совершения действия.

В узбекском языке различают следующие разряды обстоятельств:

1. **Vaziyat holi.** Обстоятельство образа действия обозначает способ совершения действия, отвечает на вопросы *qanday?* (как?), *qanday qilib?* (каким образом?). Выражается наречием, деепричастием, а также прилагательным: *U juda chiroyli yozadi. O‘qituvchimiz doim kulib gapiradi.*

2. **O‘rin holi.** Обстоятельство места обозначает место происхождения действия, отвечает на вопросы *qayerga?* (куда?), *qayerda?* (где?), *qayerdan?* (откуда?), *qayergacha?* (до какого места?): *Universitetgacha tramvayda yarim soat yugaman.*

3. **Payt holi.** Обстоятельство времени указывает на время совершения действия, отвечает на вопросы *qachon?* (когда?), *qachondan (beri)?* (с каких пор?), *qachongacha?* (до каких пор), *qachonga?* (на какое время?): *Majlis dushanbaga belgilandi.*

4. **Sabab holi.** Обстоятельство причины указывает на причину совершения действия, отвечает на вопрос *nima sababdan?* (по какой причине?): *U sevinganidan qichqirib yubordi.*

5. **Maqsad holi.** Обстоятельство цели указывает на цель выполнения действия, отвечает на вопрос *nima maqsadda?* (с какой целью?): *Buvimni ko‘rgani kasalxonaga bordim.*

6. **Daraja — miqdor holi.** Обстоятельство меры и степени указывает на меру и степень действия, иногда и предмета,

отвечает на вопросы qancha? (сколько), necha marta? (сколько раз?), nechanchi marta? (в который раз?), qanchalik? (насколько?), qanchalab? (по сколько?): Senga necha marta aytaman?

7. **Shart holi.** Обстоятельство условия указывает на условие выполнения действия, отвечает на вопрос qay sharoitda? (при каких условиях?), выражается глаголом в условном наклонении: U bugun ulgursa keladi.

8. **To'siqsizlik holi.** Обстоятельство уступительное, указывает на действие, вопреки которому совершается действие, обозначаемое сказуемым. Выражается глаголом в условном наклонении в сочетании со словом ham: Nodira charchasa ham ishida davom etdi.

Lug'at ishi

musavvir	художник
rahnamolik	покровительство
chaqirtirmoq	позвать, вызвать
imtiyoz	льгота, привилегия
taxt	трон
harakatchan	подвижный
manzara	пейзаж
manzarachi	пейзажист

1-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

SHARQ RAFAELI

Buyuk o'zbek musavviri Kamoliddin Behzod 1455-yilda Hirotda hunarmand oilasida tug'ilib, yoshlik chog'idayoq yetim qolgan. Mikar naqqosh Behzodning musavvirlikdagi iste'dodini payqab, uni o'z tarbiyasiga olgan. Behzod musavvirlikni naqqosh Pir Said Ahmad Tabriziydan o'rgandi. Musavvirlardan Shoh Muzaffar, Qosim Ali, Mavlono Hakim Muhammad kabi Behzod ham Alisher Navoiyning rahnamoligidan bahramand bo'lgan. Behzod ijodi 1470-yillarda boshlangan.

1520-yillarning boshida Behzod shoh Ismoil I ning chaqirig'i bilan Tabrizga boradi. Shoh Ismoil I dan keyin uning o'g'li Tahmosga musavvirlikni o'rgatadi. Lekin shoh Behzodning san'atini qadrlamadi. Rassom ona yurti Hirotda qaytdi. Shayx Sa'diyning «Bo'ston»iga ishlangan miniaturalari (1478) musavvirning ilk asarlaridir. 1488-yilda Sulton Husayn buyurtmasi bilan u 4 ta miniatura ishlagan. Behzod asarida hayot manzaralarini jo'shqin tasvirlaydi. Turli ranglar bir-biriga mos, asarlaridagi shaxslar harakatchan, tabiatan jonli. Ilk asarlaridayoq Behzod mohir manzarachi rassom sifatida ko'zga tashlanadi.

Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa», «Layli va Majnun», Xisrav Dehlaviyning «Layli va Majnun» asariga ishlangan miniaturalari butun dunyoga mashhur. Behzod ijodi o'z davridayoq rassomchilik maktabi bo'lib qolgan. Darvesh Muhammad, Maqsud Muzahhib kabi rassomlar uning maktabida ta'lim olgan.

Buyuk musavvir Sharq Rafaeli Kamoliddin Behzod 1535-yilda Hirotda vafot etgan.

2-topshiriq. Maqollarni o'qing, yod oling. Hol vazifasidagi so'zlarni toping. Holning turini aniqlang.

1. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi. 2. O'ynab-gapirsang ham, o'ylab gapir. 3. Yer haydasang, kuz hayda. 4. Ishni ko'p ko'zla, gapni oz so'zla. 5. Ishtaha ovqat mahalida keladi.

3-topshiriq. Holning har bir turini qatnashtirib gap tuzing.

4-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling

1. Он неустанно трудится над повышением качества продукции. 2. Придя домой, я немного отдохнул. 3. Подумав немного он согласился с моим мнением. 4. Он никогда так не задерживался.

68-mashg'ulot

Suhbat uchun savollar

- Siz O'zbek Milliy akademik teatrida bo'lganmisiz?
- O'zbekiston Davlat konservatoriyasida-chi?
- Istiqlol yillarida qurilgan yana qaysi inshootlarni bilasiz?

UNDALMA (Обращение)

Обращение — это слово (или группа слов), называющее того, к кому обращена речь. Обращение грамматически не связано с членами предложения. В письме оно выделяется запятыми. Обращение произносится с особой интонацией:

Vatan, sen bunchalar ko'rkam! Dunyoni qizg'onma mendan, azizim. (A.Oripov). Sabr qil, bolam, avval akang kelsin.

KIRISH SO'Z VA BIRIKMALAR (Вводные слова и сочетания слов)

Вводные слова (сочетания слов) могут указывать:

– на источник высказывания: Menimcha, bu yigit universitetimizda o'qiydi.

– на последовательность мысли: Avval o'yla, keyin so'yla.

– на вывод, заключение, способ выражения мысли: Xullas, safar hammamiz uchun ham foydali bo'ldi.

– выражать уверенность: Albatta, biz bilan ketasiz.

– сомнение: Ehtimol, biz bilan ketarsiz и т.д.

– на источник информации: tabibning ta'biricha, tuzalmaidigan kasal yo'q (По мнению табиба, нет неизлечимой болезни).

Lug'at ishi

sovrindor	лауреат; призер
bo'lajak	будущий
tinmay	неустанно, непрерывно
alohida	особый; отдельный
jonajon	родной
aks etgan	отражен
tasvir	изображение
san'atsevar	любитель искусства

1-topshiriq. Matnni o'qing. Unga savollar tuzing.

O'ROL TANSIQBOYEV

(M. Usmonovadan)

Badiiy akademiyasining haqiqiy a'zosi, xalq rassomi, Davlat mukofoti sovrindori O'rol Tansiqboyevning ijodini tasviriy san'at muxlislari yaxshi bilishadi.

Bo'lajak rassom 1904-yilda ishchi oilasida tug'ildi. U Toshkent San'at muzeyi qoshidagi rassom H.Rozanov studiyasida (1924–1928), Penza badiiy pedagogika texnikumida (1929) I. Goryushkin-Sorokopudov qo'lida ta'lim oldi.

Asosan, 30-yillarda rassom sifatida tanilgan O'rol Tansiqboyev o'z asarlari xalqqa yaqin va tushunarli bolishi uchun tinmay mehnat qildi.

1940-yilda yaratilgan Navoiy portreti rassom ijodida alohida o'rin egalladi.

O'. Tansiqboyev, asosan, liro-epik rassom edi. Uning har bir asarida jonajon o'lkaga bo'lgan cheksiz muhabbat aks etgan. Ana shu muhabbat bilan u O'zbekiston manzarasining ulug'vor tasvirini chizdi, tomoshabinda Vatanga muhabbat uyg'otdi, uni tabiatni asrashga chorladi.

O'rol Tansiqboyev 1974-yilda vafot etdi. Uning boy va rang-barang merosi esa hamon kishilarga estetik zavq bag'ishlamoqda. Rassom asarlari mashhur Tretyakov gelereyasi, Olmota, Kishinyov, Samarqand va boshqa shaharlar muzeylarida saqlanadi.

Rassomning uy-muzeyi ham doim san'atsevarlar bilan gavjum.

2-topsiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. По-моему, вы ошибаетесь. 2. Продавец и покупатель, будьте взаимно вежливы. 3. Сегодня, ребята, просто мы обязаны выиграть. 4. Вахид, принеси-ка воды.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Oybek, yosh bola bo'lmagin. 2. Lekin seni yo'qotdim, birinchi muhabbatim (A.Oripov). 3. Hakimning aytishicha, bayramda qishlog'iga ketar ekan. 4. O'ylashimcha, siz bu yerlik emassiz. 5. O'qishdan keyin sof havoda dam olamiz, albatta.

4-topshiriq. O'zbek rassomlari, haykaltaroshlaridan kimlarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.

69-mashg'ulot

Subbat

1. O'zbekistonning iqlimi qanday?
2. Kunning uzunligi yozda necha soat-u, qishda necha soat?
3. Respublikada eng sovuq oy qaysi oy, bunda shimolda va janubda harorat qancha bo'ladi?
4. Qishda havo eng sovuganda simob ustuni necha darajaga yetadi?
5. O'zbekistonning qaysi qismida qish davri deyarli besh oyga cho'ziladi?
6. Yilning eng issiq oyi qaysi?
7. Bu davrda o'rtacha harorat tekisliklar va tog'-yonbag'rida, janubda necha darajani tashkil qiladi?

GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI

(Однородные члены предложения)

Однородными членами предложения являются такие члены предложения, которые выполняют одинаковые синтаксические функции и отвечают на один и тот же вопрос, они связаны друг с другом сочинительной связью.

Однородными могут быть любые члены предложения:

Подлежащие: Shahrimizda ko'plab yangi maktab, litsey va kollejlari qurildi.

Сказуемые: O'zbek tili darsida biz o'qiyamiz, yozamiz va tarjima qilamiz.

Определения: Shahrimizda baland va ko'rkam binolar ko'p.

Дополнения: Ma'ruf do'kondan daftar, qalam va bo'yoqlar sotib oldi.

Обстоятельства: Kecha va bugun yomg'ir yog'di.

Обращения: Xayr, yashil o'rmonzor, moviy dengizlar.

Lug'at ishi

(keng) tarqalgan	(широко) распространенный
haykaltaroshlik	скульптура
rangtasvir	живопись
voqelik	действительность
muhit	среда

haykal	памятник, скульптура
izlanish	поиск
manzara	пейзаж, картина

1-topshiriq. Matnni o‘qing va gapirib bering.

TASVIRIY SAN’AT

(N. Oydinovdan)

Tasviriy san’at – eng qadimiy va keng tarqalgan san’at turlaridan biridir.

Tasviriy san’at o‘z o‘rnida haykaltaroshlik, rangtasvir va grafika kabi turlarga bo‘linadi. Tasviriy san’atda voqelik, borliq shakllar, chiziqlar, ranglar orqali tasvirlanadi.

Tasviriy san’at monumental va dastgoh ko‘rinishlariga ham ega. Monumental deyilganda hajm jihatidan katta, Me’morchilik, park, bog‘ san’atiga, shuningdek, biror-bir badiiy muhitga mo‘ljallangan tasviriy san’at asarlari tushuniladi. Dastgoh asari asosan erkin ijodiy faoliyat tufayli yaratiladi. Ularni xohlagan joyga qo‘yish, namoyish qilish mumkin bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston Milliy bog‘idagi Alisher Navoiy haykali monumental asardir. Agar haykal ijodkorning o‘z xohishi va ijodiy izlanishi miqyosida ishlansa hamda shu yo‘sindagi asarlarga xos jihatlar amalga oshirilsa, bu dastgoh asari bo‘lib, uni muzeyga yoki o‘quv darsxonalariga qo‘yish mumkin.

Tasviriy san’at janrlariga portret, manzara, naturmort kabilar kiradi.

XALQIMIZNING ASL FARZANDLARI

70-mashg‘ulot

Suhbat

– Siz Toshkent muzeylarida bo‘lganmisiz? Sizga qaysi muzey ko‘proq yoqadi?

– Ha, men bir necha muzeylarda, xususan, Olimpiya shuhrati, Temuriylar tarixi, Adabiyot muzeylarida, Mukarrama Turg‘unboyeva muzeyida, Muxtor Ashrafiy va O‘rol Tansiqboyevning uy-muzeyida bo‘ldim. Menga, ayniqsa, Temuriylar tarixi muzeyi manzur bo‘ldi.

– Sizga u nimasi bilan yoqdi?

– Avvalo, meʼmoriy yechimi bilan. qolaversa, u juda koʻrkam va ozoda, u yerdagi eksponatlar xalqning shavkatli tarixidan dalolat beradi.

GAPNING TUZILISHIGA KOʻRA TURLARI (Типы предложений по структуре)

По структуре предложения в узбекском языке делятся на **sodda gap** (простое предложение) и **qoʻshma gap** (сложное предложение).

SODDA GAP

Простым называется предложение, в котором одно подлежащее и сказуемое, т.е. в котором повествуется об одном действии: Yurtimizda soʻlim joylar koʻp.

По главным членам простое предложение делится на **bir bosh bolakli gap** (односоставное предложение) и **ikki bosh boʻlakli gap** (двусоставное предложение). Двусоставным называется предложение, в котором участвуют оба главных члена: подлежащее и сказуемое. Nodira bu yil universitetni tamomlaydi. Односоставными называют предложения, в составе которых один главный член — подлежащее или сказуемое. Они делятся на:

shaxsi maʼlum gap (определенно-личные) – лицо подлежащего можно определить по сказуемому: Bolaligidan musiqa va sportga qiziqaman.

shaxsi nomaʼlum gap (неопределенно-личные предложения) – лицо подлежащего невозможно определить по сказуемому, которое выражено глаголом в третьем лице множественного числа: Margʻilonda kichiklarni ham sizlashadi.

shaxsi umumlashgan gap (обобщенно-личные предложения) – сказуемое таких предложений выражено глаголом в форме второго лица единственного числа, но высказывание относится ко всем лицам. Многие пословицы и поговорки являются односоставными предложениями: Nima eksang, shuni oʻlasan.

shaxsi topilmas gap (безличные предложения) – в них невозможно определить подлежащее: Xom suvni ichib boʻlmaydi.

atov gap (номинативные предложения) – указывают на наличие, существование предмета или явления: Bahor. Barqut kiyib bezandi bog'lar.

so'z – gap (слова-предложения) — предложения, состоящие из одного слова, чаще модального:

– Ertaga Yangiyerga borasizmi?

– Ha.

Слова-предложения делятся на modal so'z-gaplar (модальные), undov so'z-gaplar (слова-предложения – междометия), tasdiq – inkor so'z – gaplar (утвердительные – отрицательные), taklif so'z – gaplar (означающие приглашение, предложение).

Lug'at ishi

qabila	племя
mantiq	логика
mukammal	совершенный, в совершенстве
shuhrat qozondi	прославился
sharh	комментарий
notiqlik	ораторство
meros	наследие
taraqqiyarvar	прогрессивный

ABU NASR FOROBIY

Abu Nasr Forobiy IX asrning 70-yillarida Sirdaryo bo'yidagi Forob qishlog'ida tug'ildi. Forobiylar oilasi turkiy qabiladan edi. Forobiy Bag'dodda o'qidi, arab, grek, yana bir necha tillarni mukammal o'rgandi. Falsafa mantiq, astronomiya, matematika, tabobat va musiqa bilan shug'ullandi. «Sharq Arastusi» (Sharq Aristoteli) va Aristoteldan keyingi ikkinchi ustoz – «Muallim-assoniy» nomlari bilan shuhrat qozondi. Forobiy Aristotelning «Metafizika», «Fizika», «Meteorologiya» va boshqa asarlariga sharhlar yozdi. (Buyuk alloma ibn Sino ham uning sharhlaridan foydalanganligini yozadi.)

Forobiyning falsafa, mantiq, matematika, fizika, kimyo, tabobat, tabiat hodisalari, tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, axloq, ta'lim-tarbiya va boshqa sohalarga oid asarlari keyinchalik boshqa tillarga ham tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan.

Forobiy 160 dan ortiq asar yaratgan. Afsuski, ulardan bizga 40 ga yaqiniga yetib kelgan, xolos. Forobiy olim bo'lish bilan birga, mohir musiqachi va shoir ham edi. U kamtar va kamsuqum inson bo'lib, faqirona kun kechirgan, saroy olimi bo'lishni istamagan.

Umrining oxirida Misrda, so'ng Damashqda yashab, o'sha yerda vafot etgan.

Ulug' Sharq olimining merosi keyingi avlodlar uchun katta xazinadir. 1975-yili Abu Nasr Forobiyning 1100 yillik to'yini butun taraqqiyparvar insoniyat tomonidan nishonlanishi ulug' olimning jahonshumul mavqeidan dalolatdir.

2-topshiq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Havo bulut bo'ladi, lekin yog'ingarchilik bo'lmaydi. 2. O'qituvchi sinfga kirdi va bolalar bilan salomlashdi. 3. Go'zal goh kuladi, goh ko'z yoshi yuzini yuvadi. 4. Tadbir so'ngida konsert berildi va badiiy film namoyish qilindi.

3-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я много думал, но так и не пришел к конкретному решению. 2. Было многолюдно, и мы чуть не потеряли друг друга. 3. Раньше я его не знал, но был о нем слышан. 4. То солнце светит, то ветер поднимает пыль с полей и становится прохладно.

4-topshiriq. Bog'langan qo'shma gapning har bir turiga ikkitadan misol yozing.

71-mashg'ulot

Suhbat uchun savollar

- Siz o'zbek shoirlaridan kimlarni bilasiz?
- Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini o'qiganmisiz?
- O'tmishda ijod qilgan qaysi shoirlarni bilasiz?
- Nodira, Uvaysiy kabi shoirlaning hayoti haqida nimalarni bilasiz?

QO'SHMA GAP

(Сложное предложение)

Сложное предложение состоит из двух или более простых предложений: Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi.

Сложные предложения делятся на: **bog'langan qo'shma gap** (сложносочиненные предложения); **ergashgan qo'shma gap** (сложноподчиненные предложения); **bog'lovchisiz qo'shma gap** (бессоюзные сложные предложения).

BOG'LANGAN QO'SHMA GAP

Сложносочиненные предложения состоят из двух или более простых предложений, соединенных между собой сочинительными союзами и словами, употребляемыми вместо этих союзов. Компоненты таких предложений независимы друг от друга. Сложносочиненные предложения делятся на:

Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap (сложносочиненные предложения с сочинительными союзами) обозначают действия, происходящие одновременно или друг за другом: *Bahor keldi va kunlar iliy boshladi.*

Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gap (сложносочиненные предложения с разделительными союзами): Сложносочиненные предложения с разделительными союзами *yo, yoki, yohud* указывают на то, что совершается одно действие из нескольких, названных в разных компонентах: *Bugun yo biz g'olib bo'lamiz, yo durang bo'ladi.* Сложносочиненные предложения с разделительными союзами *goh, dam, ba'zan* называют действия (события) взаимозаменяющиеся: *Goh yomg'ir yog'adi, goh quyosh charaqlaydi.*

Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gap (сложносочиненные предложения с разделительными союзами) выражают отношения противопоставления: *Biz ko'p kutdik, biroq undan darak bo'lmadi.*

Inkor munosabatli bog'langan qo'shma gap (сложносочиненные предложения с отрицательными союзами); В сложносочиненных предложениях с отрицательными союзами компоненты связываются через отрицание, несмотря на то что, сказуемое находится в положительной форме: *Na sen kelding, na men bordim.*

Yodda tuting: частица *-(y)u* может употребляться в сложносочиненных предложениях вместо соединительных и противительных союзов: *Qo'ng'iroq chalindi-yu, dars boshlandi. Havo bulut bo'ladi-yu, yog'ingarchilik bo'lmaydi.*

Lugʻat ishi

yetim	сирота
oqim	течение
kuzatish	наблюдение
ixtiro	изобретение
madaniyat	культура
din	религия
risola	монография
falsafa	философия
taʼsis etilgan	учрежден

1-topshiriq. Matnni oʻqing. Mazmunini hikoya qiling.

ABU RAYHON BERUNIY

(973–1043)

Beruniy 973-yil 4-oktabrda Xorazmda tugʻildi. Erta yetim qolgan boʻlsa ham, u yaxshi odamlarning qoʻlida tarbiyalandi. Yoshligidanoq ilm-fanga juda qiziqdi. Ayniqsa, matematika, astronomiya, geografiya va tibbiyot fanlariga doir koʻp kitoblar oʻqidi. Qadimgi Xorazm tilini, turkiy, fors va arab tillarini puxta oʻrganib oldi. Boshqa tillarda ham mashq qildi.

Soʻngra oʻzi ham matematika va astronomiya, geografiya va tarixdan kitoblar yoza boshladi. Yulduzlarni kuzatdi, daryo oqimini oʻlchadi. Turli fanlar sohasida kuzatishlar olib borish maqsadida oʻzi koʻpgina tajriba asboblari ixtiro etdi.

Beruniy kamtar va odobli, haqgoʻy va olijanob inson edi. 22 yoshida Xorazmni tashlab chiqib ketishga majbur boʻlgan. Ancha vaqt Afgʻonistonning Gʻazna shahrida yashadi. Soʻng Hindistonga bordi. Hindistonda boʻlganida eski hind tili – sanskrit tilini oʻrgandi. Bu uning hind madaniyati, adabiyoti va oʻsha davr olimlari bilan yaqindan tanishuviga imkon berdi. Hindiston yeri, togʻlari, daryolari, oʻsimlik va hayvonlar dunyosi, xalqi, dini va urf-odatlarini taʼriflagan mashhur «Hindiston» asarini yozdi.

Beruniy har bir ishga masʼuliyat bilan qarar, boshlagan ishini oxiriga yetkazishga harakat qilardi.

Beruniy Oʻrta Sharq olimlari orasida birinchi boʻlib Yerning shar shaklida ekanligini isbotladi va Yer Quyosh atrofida aylanadi,

degan to'g'ri fikrga keldi. U Yer shari o'lchamini aniqladi. Eni 5 metr keladigan globus yasadi, dunyo xaritasini chizdi. Dunyoning qaerida qanday boyliklari borligini aniqladi. Dengiz suvining har kuni ikki marta qalqib-qaytib turishini, Oy va Quyosh tutilishining sababini soddagina qilib izohlab berdi. Amudaryo qaysi vaqtda toshib, qaysi vaqtda sayozlanib qolishi jadvalini tuzdi.

Beruniy 75 yil umr ko'rdi. Shu davr ichida turli sohalarga oid 160 ga yaqin kitob va risolalar yaratdi. Asarlari matematika, astronomiya, geografiya, geologiya, farmakologiya, kartografiya, tarix, til, adabiyot sohalariga, shuningdek, etnografiya, falsafa va boshqa fanlarga bag'ishlangan.

Beruniyning jahon fani oldidagi buyuk xizmatlari jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan va yubileylari ko'p mamlakatlarda nishonlangan. Uning tug'ilgan shahri, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Toshkent Politexnika instituti Beruniy nomi bilan ataladi. Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti ta'xis etilgan.

2-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. U darsda qatnashmadi, ammo uy vazifasini bajaribdi. 2. Na uyga bordim, na kinoga. 3. Xoh bugun, xoh erta sen baribir borishing kerak. 4. Havo bulut bo'ldi, ammo yomg'ir yog'madi. 5. Yaxshilik qilolmasang, yomonlik ham qilma (maqol).

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Mana Hirot. Husayn Boyqaro saroyi. Hamma motamda. 2. Vaqtni to'xtatib bo'lmaydi. 3. Erta eksang, erta o'rasan. 4. Sharqda keksalarni donishmandlarga tenglashtirishadi. 5. Ertaga barvaqtroq kelaman.

4-topshiriq. To'liq gaplarni to'liqsiz gaplarga aylantirib yozing.

– Nodir, sen bugun kutubxonaga borasanmi?
– Ha, do'stim, men kutubxonaga darsdan keyin boraman.
– Sen kutubxonadan qaysi kitoblarni olmoqchisan?
– Men pedagogikadan amaliy mashg'ulotga tayyorlanaman.
Shunga men Kaykovusning «Qobusnoma» kitobini olaman.

72-mashgʻulot

Suhbat

- Akmal, sen sportga qiziqasanmi?
- Ha, qiziqaman, ayniqsa futbolga.
- Qaysi jamoaga muxlislik qilasan?
- Oʻzimizning «Paxtakor»ga, yana Kiyevning «Dinamo»siga.
- Oʻyingohga tez-tez borib turasanmi?
- Birorta ham oʻyinni oʻtkazmaslikka harakat qilaman, juda boʻlmasa televizordan koʻraman. Oʻzing-cni, futbolga qiziqasanmi?
- Ha, biroq koʻproq kurashga qiziqaman. Hatto toʻgarakka ham qatnayapman.

ERGASH GAPLI QOʻSHMA GAP (Сложноподчиненное предложение)

Сложноподчиненное предложение состоит из двух или более простых предложений. В составе сложноподчиненного предложения имеются bosh gap (главное предложение) и ergash gap (придаточное предложение). Главное предложение несет в себе основную мысль, придаточное же поясняет главное предложение (или отдельный его член). К примеру, в предложении *Biz zalga kirganimizda, konsert hali boshlanmagan edi* (Когда мы вошли в зал, концерт еще не начинался) главным является второй компонент, а первый компонент (придаточное предложение) указывает на время совершения действия, обозначенного главным. В предложении *Kim halol mehnat qilsa, oʻsha elda hurmat topadi* (Кто трудится честно, тот заслуживает уважения) придаточное предложение (первый компонент) поясняет лишь подлежащее в составе главного предложения.

Эти предложения условно можно разделить на две группы. Первая из них – СПП с придаточным подлежащим, сказуемым, определительным, изъяснительно — объектным относятся к конкретному члену предложения (подлежащему, сказуемому, определению, дополнению), выраженному местоимением или пропущенному. Например: *Shunisi maʼlumki, u kecha mashgʻulotlarga qatnashmagan* (Известно то, что он отсутствовал вчера на занятиях). Подлежащее в главном предложении выражено указательным местоимением *shunisi*, а придаточное поясняет его

значение. Bilginki, sening ulug' noming bor (Знай, что у тебя гордое имя) — придаточное предложение поясняет значение дополнения, пропущенного в составе главного и т.д.

Ко второй группе можно отнести все остальные виды сложноподчиненных предложений, которые поясняют главное предложение, указывая на способ совершения, место, время, цель, последствия, условие совершения, меру действия, обозначенного в главном предложении. Например: Shamol oldindan esar edi, shuning uchun yurish qiyin bo'ldi (Ветер бил в лицо, поэтому ходить было трудно) придаточное (первый компонент) указывает на причину действия, обозначенного главным предложением.

EGA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

(СПП с придаточным подлежащим)

В нем придаточное поясняет подлежащее, выраженное местоимением или пропущенное в составе главного: Shunisi hayajonliki, men uning ko'zlarida zarracha ham yosh ko'rmadim. (Волнует то, что в её глазах я не видел ни капли слез).

KESIM ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

(СПП с придаточным сказуемым)

В нем придаточное поясняет сказуемое, выраженное указательным местоимением в составе главного: Gapning rosti shuki, yig'loqi torlarni chertishga o'zinning ham toqatim yo'q. (Правда в том, что играть на печальных струнах я и сам не желаю).

Lug'at ishi

yaqinidagi	вблизи
go'daklik	младенчество
shuhrat orttirdi	прославился, снискал славу
ko'chib o'tmoq	переехать
badiiy ijod	художественное творчество
risola	монография
qasida	ода

1-topshiriq. Matnni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

ABU ALI IBN SINO

Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tugildi. Go'daklik chog'ida uning oilasi Buxoroga ko'chib o'tadi. Ibn Sino shu yerda bilim oladi. U 18 yoshidayoq tabib sifatida shuhrat orttiradi.

Ibn Sino tibbiyot, falsafa, mantiq, fizika, fors-tojik va arab tillarida badiiy ijod bilan shug'ullandi. Uning «Al Qonun fit tibb» (Tibbiyot qonuni) kitobi bir necha asr davomida Yevropada meditsinadan asosiy o'quv qo'llanma sifatida o'rganib kelingan. Ibn Sinodan «Donishnoma», «Musiqqa haqida risola», «Arab tili», «She'r to'g'risida kitob», «Mantiq haqida manzuma» kabi ilmiy hamda «Qasidalar va she'rlar», «Hay' ibn Yazg'on», «Salomon va Ibsol «Qushlar risolasi», «Yusuf qissasi» singari badiiy asarlar qolgan.

Abu Ali ibn Sino 1037-yilda Hamadon shahrida vafot etdi.

1952-yil 18-avgustda jahon jamoatchiligi Abu Ali ibn Sino tavalludining 1000 yilligini keng nishonladi.

1-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Kim o'z qadrini bilmasa, boshqalarning qadriga ham yetmaydi. 2. Kim haddidan oshsa, tuproqqa qoriladi. 3. Iltimosim shuki, men bilan safarga borsangiz. 4. Gapning rosti shuki, sizga ishona olmayman. 5. Muhimi shuki, hech kim zarar ko'rmasin.

2-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Главное в том, что я достиг своего. 2. Я надеюсь, вы не ушиблись. 3. Кто рано посеет, тот рано пожнет.

3-topshiriq. Ega va kesim ergash gaplarga 3 tadan misol topib yozing.

73-mashg'ulot Suhbat

- Kechirasiz, hozir soat necha?
- Hozir 16.40.
- Aytolmaysizmi, G'azalkentga oxirgi avtobus soat nechida jo'naydi?

- Menimcha, 17.00 larda.
- Demak, shoshilishim kerak ekan.
- Siz yaxshisi metroga tushing. Buyuk ipak yoʻli bekatigacha borasiz, shu yerdan avtobusga chiqib olasiz.
- Ulgurarmikinman?
- Bemalol ulgurasiz. Metro atigi 7–8 daqiqa yuradi.
- Rahmat.
- Salomat boʻling.

ANIQLOVCHI ERGASH GAPLI QOʻSHMA GAP

СПП с придаточным определительным. В нем придаточное поясняет признак члена предложения в составе главного, выраженного существительным, указательным местоимением: *Kimning bilimi kuchli boʻlsa, uning mulohazalari ham chuqur boʻladi.* (У кого глубокие знания, у того и широкие рассуждения).

TOʻLDIRUVCHI ERGASH GAPLI QOʻSHMA GAP

СПП с придаточным изъяснительно – объектным. В нем придаточное поясняет дополнение, выраженное местоимением или пропущенное в составе главного: *Bilasizmi, xoʻjayinning Nuri degan qizlari bor* (Oybek). (Знаете, у хозяина есть дочь Нури).

1-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Qayoqqa qaramang, u yerda odamlar yaratuvchilik mehnati bilan band. 2. Fan choʻqqisini egallasin deb, oliy maktab quchogʻin ochgan. 3. Qoshlari chimirilib Mahkam Eshonboyevga qaradi. 4. U sayohatga borolmadi, chunki akasi mehnat safaridan qaytishi kerak edi.

Lugʻat ishi

sayyoh	путешественник
mudarrislik qilgan	преподавал, учительствовал закончил
yozib bitkazdi	писать
manba	источник
bosib chiqarildi	был напечатан
keltirilgan	приведен, приведенный
taʼkidlab oʻtmoq	подчеркнуть

2-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

MAHMUD KOSHG'ARIY

Mahmud Qoshg'ariy XI asrda yashagan taniqli sayyoh va tilshunos, folklorshunos olim. U hozirgi Koshg'ariyning O'pol mavzesida tug'ilgan. Bir necha yil O'pol madrasasida mudarrislik qilgan.

1073-yilda Qoshg'ariy «Devonu lug'otit-turk» (Turkiy so'zlar devoni) nomli kitobini yozib bitkazdi. Asar turkiy tillar tarixini o'rganish bilan birga eng qadimgi she'riyatimizni bilishga yagona manba hisoblanadi. «Devonu lug'otit-turk» asari 1960–1964-yillarda S. Mutalibov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, Toshkentda bosib chiqarildi. Devonda keltirilgan 200 ga yaqin maqol hozirgi o'zbek tilida ham o'sha shaklida qo'llanishini olimlarimiz ta'kidlab o'tganlar.

Shuningdek, u «Turkiy tillarning sintaksisi» nomli asar yozgan.

3-topshiriq. O'zbek olimlaridan kimlarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.

4-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Bilasizmi, biz ertaga jo'nab ketaymiz. 2. Shuni unutmangki, men ham shu yurtning farzandiman. 3. Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi (G'.G'ulom). 4. Shuni bildimki, hech nimani bilmabman.

74-mashg'ulot

Suhbat

- Sizning sevimli mashg'ulotingiz qaysi?
- Men kitob o'qishni yoqtiraman.
- Qanday kitoblarni o'qiysiz?
- Men she'riyatni, ayniqsa, Sharqning mumtoz she'riyatini xush ko'raman. Hofiz, Bedil, Sheroziy, Navoiy, Bobur g'azallarini sira qo'ldan qo'ymayman.
- Firdavsiyning «Shohnoma»sini o'qiganmisiz?
- Ha, o'qiganman. Ajoyib asar. Yana Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Xo'jandiyning «Latofatnoma»sini ham o'qiganman.
- Zamonaviy shoirlardan kimlarni sevib o'qiysiz?
- Marhum Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Azim Suyunlarni sevib o'qiyman.

PAYT ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAP (СПП с придаточным времени)

В нем придаточное указывает на время совершения действия, выраженного главным: Qachon uni ko‘rmaу, u yoshlar orasida bo‘ladi (Когда его ни увижу, он среди молодежи).

O‘RIN ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAP (СПП с придаточным места)

В нем придаточное указывает на место совершения действия, выраженного главным: Ko‘z qayerda bo‘lsa, ko‘ngil ham shu yerda bo‘ladi (maqol). (Где глаза, там и душа).

Lug‘at ishi

donishmand	мудрец
yetib kelmagan	не дошел
yaratildi	был создан
Qohira	Каир
qo‘lyozma	рукопись
ilmiy-tadqiqot	научно-исследовательский
parcha	отрывок
to‘la matni	полный текст

1-topshiriq. «Yusuf xos Hojib» matnini o‘qing va qayta so‘zlab bering.

YUSUF XOS HOJIB

Atoqli shoir, donishmand va davlat arbobi Yusuf xos Hojib taxminan 1019–1020 yillarda Bolasog‘unda tug‘ildi. Uning yoshligi qayerlarda o‘tganligi haqida ma‘lumotlar yetib kelmagan. Vafot etgan yili ham noma‘lum.

1069–1070-yillarda uning «Qutadg‘u bilig» (Saodatga yo‘lovchi bilim) nomli she‘riy didaktik asari Koshg‘arda yaratildi. Hozirgacha bu kitobning faqat uch nusxasi yetib kelgan. Bular «Vena» (yoki «Hitot»), «Qohira» va «Namangan» nusxalari deb yuritiladi.

«Namangan» nusxasi 1913-yilda topilgan. U namanganlik Muhammadhoji Eshonning shaxsiy kutubxonasidan olingan. Hozir bu qoʻlyozma Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida saqlanadi.

Kitobning ayrim parchalari 1928-yilda birinchi marta professor Fitrat tomonidan eʼlon qilindi.

1971-yilda «Qutadgʻu bilig»ning tola matni alohida kitob holida Toshkentda chop qilindi.

2-topshiriq. Quyidagi soʻz birikmalari ishtirokida gaplar tuzib, oʻzaro suhbatlashing.

Bolalik paytimda, birga shugʻullanmoq, sportga qiziqar edi, tez-tez toʻplanib turamiz, tezda sogʻinib qolmoq.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Ergashgan qoʻshma gap turini aniqlang.

1. Mening fikrim shu, siz uni bekorga xafa qildingiz. 2. Sen ketgach, hamma tarqaldi. 3. Barchin kelgach, biz oʻyinni boshladik. 4. Umid qilamanki, bizni unutib yubormaysiz. 5. Qayerda ahillik boʻlsa, shu yerda muvaffaqiyat boʻladi.

4-topshiriq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Когда я окончу учебу, мы переедем в Самарканд. 2. Если хорошо постараться, эту работу можно закончить за два дня. 3. Карим настолько увлекся чтением, что не заметил как я ушел. 4. Мы все знаем, что счастья можно добиться лишь честным трудом. 5. Несмотря на то, что шел дождь, болельщики не покидали стадион.

75-mashgʻulot.

Suhbat uchun savollar

1. Siz oʻzbek klassik adabiyoti bilan tanishmisiz? 2. Qaysi oʻzbek shoirlarini bilasiz? 3. Lutfiy haqida nimalarni bilasiz? 4. Oʻzbek klassik adabiyotida qanday janrlarda koʻproq ijod qilingan? 5. Navoiygacha yashab ijod qilgan shoirlardan kimlarni bilasiz?

SABAB ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP (СПП с придаточным причины)

В нем придаточное указывает на причину возникновения действия, выраженного главным: Olim qiziqroq gap aytdi shekilli, Nodir qah-qah urib yubordi (Кажется, Олим сказал что-то интересное, Умиджан захохотал).

MAQSAD ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP (СПП с придаточным цели)

В нем придаточное указывает на цель, преследующую от совершения действия, выраженного главным: Novuz atrofi soya-salqin bo'lsin deb, turli daraxtlar ekdik (Дабы возле пруда было прохладно, мы посадили разные деревья).

Lug'at ishi

tarixchi	историк
ahamiyat	значение
ahamiyat kasb etdi	приобрело (имело) значение
butun umr	на всю жизнь
Sab' ai sayyor	Семь планет
Saddi Iskandariy	Вал Искандера
Hayrat-ul-abror	Смятение праведных
muassasa	учреждение

1-topshiriq. Matnni o'qing va qayta so'zlab bering.

G'AZAL MULKINING SULTONI

Alisher Navoiy o'zbek adabiy tili va adabiyotining asoschisi, g'azal mulkining sultonidir. U 1441-yilda Hirotda tug'ildi.

1447-yilda Alisherlar oilasi Iroq shahriga ko'chib o'tadi. Yo'lda Alisher buyuk tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv Navoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi.

1459-yilda Navoiy Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Bu buyuk do'stlik butun umr davom etdi.

1467–1469-yillari Navoiy Samarqandda o'qidi. Zamonasining juda ko'p olimlari, me'morlari, boshqa san'at turlari vakillari bilan tanishdi.

Navoiy juda qisqa muddatda «Xamsa» yarata olgan buyuk ijodkor. Uning «Xamsa»si quyidagi dostonlardan iborat: «Hayratul - abror»(1483), «Farhod va Shirin» (1484), «Layli va Majnun» (1484), «Sab' ai sayyor» (1485), «Saddi Iskandariy» (1485).

Buyuk ijodkor «Foniy» taxallusi bilan fors-tojik tilida ham ijod qildi.

Navoiy g'azali bilan aytiladigan qo'shiqlar o'zbek qo'shiqchilari va qo'shiqsevarlarining jon-u dili.

Mamlakatimizda 9-fevral Navoiy kuni deb e'lon qilingan. Viloyat, shahar, Respublika Milliy kutubxonasi, Davlat adabiyot muzeyi, O'zbekiston milliy bo'g'i, respublika opera va balet teatri, Samarqanq Davlat Universiteti, ko'chalar, xo'jaliklar, maktablar, madaniy va boshqa muassasalar uning nomi bilan ataladi.

2-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Fan cho'qqisin egallasin deb, oliy maktab quchog'in ochgan.
2. Tog'day og'ir bilak berdim, yovlarni mushtlasin deb (H. Olimjon).

3. Yurish qiyin edi, chunki shamol oldindan esardi. 4. Salimning bu gapini eshitgach, bormasdan ilojim yo'q edi.

3-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Салим сильно расстроился, потому что его команда проиграла. 2. Отец делает все, чтобы ты учился хорошо. 3. Когда ты придешь, меня не будет дома.

76-mashg'ulot

Suhbat

- Alisher Navoiy kim?
- U qachon she'r yoza boshladi?
- U o'zining «Xamsa» asarida qanday masalalarni yoritdi?
- Bu asar qaysi dostonlardan iborat?
- Bu dostonlarda shoir nimalarni kuylagan?
- Uning asarlari asosida qanday sahna asarlari yaratilgan?
- Navoiy haqida qanday asarlar yozildi?
- Qayerlar uning nomi bilan atalgan?
- Toshkentda Navoiy haykali qayerga o'rnatilgan?

NATIJA ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAP (СПП с придаточным следствия)

Придаточное в данном предложении указывает на последствия действия, выраженного главным: *Bo‘lim mudiri shunday kuldiki, ko‘zoynagi siljib ketdi.*

SHART ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAP (СПП с придаточным условным)

Придаточное в данном предложении указывает на условие выполнения действия, выраженного главным: *Qalb salomat bo‘lsa, fikr ham salomat bo‘ladi (Said Ahmad).*

Lug‘at ishi

sarkarda	воевода
davlat arbobi	государственный деятель
taxt	престол
tan olinadi	признан
tarixnavislik	историография
tengsiz	несравненный

1-topshiriq. Yangi so‘zlar ishtirokida birikmalar tuzib, yod oling.

2-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini hikoya qilib bering.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Shoir, davlat arbobi, shoh va sarkarda Bobur 1483-yilda Andijonda dunyoga keldi. Otasi Umarshayx Mirzo vafotidan keyin 1494-yilda Bobur Andijon taxtiga chiqadi.

Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotida Navoiydan keyin eng katta meros qoldirgan shoir sifatida tan olinadi.

1519-yili Bobur o‘z lirik she‘rlarini to‘plab birinchi devonini tuzdi. U «Parij devoni» nomi bilan mashhur.

1528–1529-yillarda tuzilgan ikkinchi devon «Hindiston devoni» Hindistonda saqlanmoqda.

1499–1529-yillar voqealarini o‘z ichiga olgan «Boburnoma» asari o‘zbek adabiyotida, tarixnavisligida tengsiz manbalardan sanaladi.

1503–1504-yillarda «Xatti Boburiy» deb atalgan alifbeni yaratdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur aruz nazariyasiga oid «Mufasssal», musiqa, huquq va falsafaga doir «Musiqiy ilmi», «Mubayyin», «Volidiya» kabi asarlar ham yaratgan.

Bobur 1530-yilda Agrada vafot etdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati haqida Pirimqul Qodirov «Yulduzli tunlar» romanida hikoya qiladi. Bobur nomi bilan bogʻlar, koʻchalar, xoʻjaliklar va taʼlim muassasalari yuritilib keladi.

3-topshiriq. Rus tiliga tatjima qiling.

1. Qalb salomat boʻlsa, aql ham, fikr ham salomat boʻladi (S. Ahmad). 2. Sen bormasang, men bir ozim u yerda nima ham qildim. 3. Qor shunday tez yogʻardiki, bir zumda hamma yoq oppoq boʻldi. 4. U shunday gapirdiki, hech kim eʼtiroz bildira olmadi.

77-mashgʻulot

Suhbat

– Siz matematika fani rivojiga hissa qoʻshgan markaziy osiyolik olimlardan kimlarni bilasiz?

– Men Beruniy, Xorazmiy, Jamshid al Koshiylarni bilaman.

– Kechirasiz Xorazmiy shoir emasmi?

– Toʻgʻri aytdingiz, Xorazmiy taxallusi bilan sheʼr bitgan shoir ham yashab oʻtgan. Jami boʻlib fanga 8 ta Xorazmiy maʼlum. Muhammad ibn Muso Xorazmiy esa buyuk matematik boʻlgan.

– U qaysi asrda yashagan?

– Al Xorazmiy VIII–IX asrlarda yashagan.

TOʻSIQSIZ ERGASH GAPLI QOʻSHMA GAP

(СПП с придаточным уступительным)

Придаточное в данном предложении указывает действие, вопреки которому совершается действие, выраженное главным: Havo bulut boʻlsa ham, yogʻingarchilik boʻlmaydi – Будет облачно, но осадков не будет.

RAVISH ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAP (СПП с придаточным образа действия)

СПП с придаточным образа действия указывает на то, каким образом совершено действие, описанное в главном предложении: Yol chetidagi jar uzoqlashib, qushlarning ovozlari ham tindi. (Sh. Xolmirzayev) – Удалялся овраг возле дороги, птицы смолкли

Lug‘at ishi

hajvchi	сатирик
masalchi	баснописец
navkar	солдат
jur‘at	смелость
tayinlamoq	назначить
yashirin	тайный, скрытый
cho‘ktirmoq	утопить
ilmiy-tanqidiy	научно-критический

1-topshiriq. Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering.

GULXANIY

Atoqli hajvchi shoir, o‘zbek masalchiligining yirik vakili Gulxaniy XVIII asrning so‘nggi choragida tog‘li Darvozda tug‘ildi. Ayrim manbalarda shoir Qo‘qonda tug‘ilgan, deyiladi.

Muhammad Sharif Gulxaniy Qo‘qonda o‘qiydi. Shu davrda o‘zining she‘r va askiyalari bilan shuhrat topadi. Qo‘qon amiri Olimxon uni navkarlikka oladi.

1810-yilda Qo‘qon taxtiga Umarxon chiqdi. Endi Gulxaniy uning navkari bo‘lib xizmat qila boshladi.

1822-yilda Umarxonning topshirig‘i bilan shoir o‘zining mashhur «Zarbulmasal» nomli asarini yozadi.

Shoir Gulxaniy va Jur‘at taxallusi bilan lirik she‘rlar va qasidalar yozgan. O‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan.

Shoiring o‘limi haqida turli ma‘lumotlar bor. Ba‘zilar uni Qo‘qonda vafot etgan, deyilar. Boshqa ma‘lumotlarga ko‘ra, Umarxonning o‘g‘li Muhammad Alixon taxtga o‘tirgach, shoirmi hozirgi Namangan viloyatidagi Yangiqo‘rg‘on qishlog‘iga hokim

qilib tayinlaydi. Ammo xonning yashirin buyrug'iga binoan, Jo'ja qishlog'ida uni tutib, Sirdaryoga cho'ktirib yuboradilar.

1951-yilda uning «Zarbulmasal va she'rilar» degan kitobi nashr qilindi.

1980-yilda «Zarbulmasal»ning ilmiy-tanqidiy matn xarakteridagi nashri yaratildi.

2-topshiriq. Gulxaniy bilan zamondosh ijodkorlardan kimlarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Havo bulut bo'lsa ham, yog'ingarchilik kutilmaydi.
2. Yulduzlar bitta-bitta so'nib, ufq oqara boshladi. 3. Mening rang-ro'yim o'chganini ko'rib, onam yugurib chiqdi (A. Qahhor). 4. Said rus tilida gaplasha olmasa ham, unung nima demoqchiligini tushundi.

78-mashg'ulot

Suhbat

– Siz Navoiy g'azallarini o'qiganmisiz?

– Ha, Navoiy ijodi bilan maktabda tanishganman. Ko'p g'azallarini o'qigan emasman. Ammo «Topmadim», «O'xshamas» kabi g'azallarini bilaman.

– Navoiy yana qaysi janrlarda ijod qilgan?

– Navoiy tuyuq, fard, mustazod kabi janrlarda qalam tebratgan. Yana u dostonlar ham yaratgan. Beshta dostonidan iborat «Xamsa»ni yaratgan.

– «Xamsa»ga qaysi dostonlar kirgan?

– «Hayrat-ul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlari Navoiy «Xamsa»sini tashkil etgan.

– Navoiy asarlari qaysi tillarga tarjima qilingan?

– Navoiy asarlari rus, fransuz, nemis, arab tillariga tarjima qilingan.

BOG‘LOVCHISIZ QO‘SHMA GAP (Бессоюзные сложные предложения)

Сложные предложения, образованные соединением двух или более простых без союзов или грамматических средств, используемых вместо союзов называют бессоюзными сложными предложениями: Mard bir o‘lar, nomard ming o‘lar (maqol).

	Lug‘at ishi
muharrir	редактор
xiyonatkor	предатель
jaholat	зло
elchixona	посольство
ma‘rifatparvar	просветитель

1-topshiriq. Matni rus tiliga tarjima qiling.

ABDULLA AVLONIY

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkent shahrining Mergancha mahallasida to‘quvchi oilasida tug‘ilgan.

7 yoshida O‘qchidagi eski maktabda o‘qiydi. 1890-yilda O‘qchidagi madrasaga, so‘ngra Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasiga o‘tadi.

Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Sa‘diy Sheroziy ijodi bilan tanishadi. 1894-yilda adabiy ijodi boshlandi.

Abdulla Avloniy birinchi jumalist, birinchi muharrirlardan sanaladi. 1907-yil 4-dekabr kuni «Shuhrat» gazetasining 1-sonini chiqaradi. «Saodat», «Osioy», «Sadoi Turkiston», «Ishtirokiyun» gazetalarida ishlaydi.

1913-yilda birinchi o‘zbek truppasi «Turkiston» (yoki «Turon»)ni tuzadi.

Shu yili yuqori sinf o‘quvchilari uchun «Turkiy guliston yohud axloq» darsligini nashr ettiradi. Shuningdek, u «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari muallifi ham.

Avloniy «Advokatlik osonmi», «Ikki muhabbat», «Biz va siz» kabi dramalar yozgan, «Qotili Karima», «Xiyonatkor», «Jaholat» kabi dramalarni tatar, ozarbayjon tillaridan tarjima qildi.

1919–1929-yillarda Afgʻoniston elchixonasida ishladi.

Avloniy Toshkent harbiy maktabida, Oʻrta Osiyo davlat universitetida oʻqituvchilik ham qilgan.

Shoir, teatr arbobi, aktyor, rejissyor, dramaturg, jurnalist, maʼrifatparvar, oʻqituvchi, yozuvchi, tarjimon, elchi Abdulla Avloniy 1934-yilda vafot etdi.

2-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Oʻzi yuzsiz – soʻzi tuzsiz (maqol). 2. Otam, onam bor: hech bir armon bilmayman. 3. Vaqting ketdi – naqding ketdi (maqol). 4. Suv keldi – nur keldi (maqol).

3-topshiriq. Avloniyning «Turkiy guliston yohud axloq» asaridan tarbiyaga oid oʻrinlarini oʻqib oʻrganing.

79-mashgʻulot

Suhbat

- Bugun darsdan keyin nima qilmoqchisan?
- Darslardan keyin kutubxonaga boraman, ertaga seminar mashgʻuloti bor, dars tayyorlab boʻlgach, buvimni koʻrgani boraman.
- Esizgina, biz shahar aylangani bormoqchimiz, biz bilan borarsan degandik.
- Jon deb borgan boʻlardim-u, lekin ilojim yoʻq.
- Balki avval biz bilan biroz aylanib, keyin buvingnikiga borarsan.
- Yoʻq, uzr. Shundoq ham dars tayyorlab boʻlgunimcha ancha vaqt boʻlib qoladi. Boshqa safar birga boramiz.
- Mayli. Buvingga bizdan salom ayt.

KOʻCHIRMA VA OʻZLASHTIRMA GAP

(Прямая и косвенная речь)

Чужая речь, переданная без всяких изменений называется прямой речью. Предложение автора, связываемое с прямой речью с помощью слова *demoq*, может разместиться перед, после или в середине прямой речи.

Rustam ichi shoshib soʻradi: «Xoʻsh, qanday yangiliklar bor?».

«Kambag'al bo'lsang ko'chib boq», – dedi kulib O'ktam.

«Gap avvalo, kadrlarda, – deb ta'kidladi ma'ruzachi. – Kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish zarur».

Salima uyalibgina: «Bilmasam, ixtiyor sizda», – deb qo'ya qoldi.

Передача содержания чужой мысли, изменив ее с грамматической и лексической точки зрения называется косвенной речью. Сказуемым таких предложений в узбекском языке являются глаголы: аytmoq, gapirmoq, so'gamoq, сочетающиеся с послелогоми haqida, to'g'risida или причастной формой глагола, и том числе и неполного ekan в винительном падеже: O'tkir ish qay ahvolda ekanini so'radi. Salima sovuqdan oyoqlari zirqirab og'riyotganini aytdi. Umidjon maktabida dzu-do to'garagi ochilgani haqida aytdi.

Lug'at ishi

mashq qildi	упражнялся
chop etildi	был напечатан
hayot varaqalari	листочка жизни
she'riy to'plam	сборник стихов
saodat	счастье
sazovor bo'ldi	был удостоен
sohibi	обладательница, владелица
ta'sis etilgan	учрежден

1-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini aytib bering.

ZULFIYA

Shoira Zulfiya 1915-yilda Toshkentning O'qchi mahallasida hunarmand oilasida tug'ildi.

1931–1934-yillarda Xotin-qizlar bilim yurtida o'qidi. Adabiy to'garaklarda qatnashdi va she'rlar mashq qildi.

Birinchi she'ri «Men ishchi qiz» «Ishchi» gazetasida 1931-yilning 17-iyulida chop etildi.

1932-yilda «Hayot varaqalari» nomli birinchi she'riy to'plami bosilib chiqdi.

Zulfiya O'zbekiston Davlat nashriyotida, bolalar nashriyotida «Saodat» va «O'zbekiston xotin-qizlari» jurnallarida ishladi. Fanlar Akademiyasi qoshidagi Til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qidi.

Atoqli shoira «Hulkar», «Dugonalar bilan suhbat», «Yuraginga yaqin kishilar» kabi kitoblarni yozdi, «Kamalak» kitobi uchun davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Zulfiya Neru xalqaro mukofoti laureati, Bolgariya Xalq Respublikasining I darajali Kirill va Mifodiy ordeni, Mehnat Qahramoni unvoni sohibasi.

O'zbekistonda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan.

2-topshiriq. O'qing. Tinish belgilarining ishlatilishiga e'tibor bering. O'zlashtirma gapga aylantirib yozing.

– Boshim qattiq og'riyapti, – dedi Ozoda. 2. Rais: «Bu masalani puxta o'rganib chiqish zarur», deb aytdi. 3. «Juda to'g'ri, – dedi Akram, – fikringizga to'la qo'shilaman».

80-mashg'ulot **Suhbat**

– Ahrorbek, hozir soat nechki bo'ldi?

– Hozir to'rt dan o'n besh daqiqa o'tdi.

– Avtobus yaqin orada o'tmadimi?

– Nechanchi avtobus?

– 38-yoki 57-avtobus, Oloy bozoriga ketyapman.

– Hozirgina 57-avtobus ketdi. Ana 67-avtobus keldi. Shunga chiqaqol.

– Yo'q u shahar hokimiyati yonidan o'tib, aylanib boradi. 38-avtobusni kuta turaman.

– Kechirasan, mening avtobusim keldi. Men ketdim. Ko'rish-guncha.

NUTQ USLUBLARI **(Стили речи)** **SO'ZLASHUV USLUBI** **(Разговорный стиль)**

Разговорный стиль отличается сравнительно вольностью выбора и использования языковых единиц. Этот стиль по своим особенностям делится на: литературный разговорный стиль и простой разговорный стиль (просторечие).

Adabiy so‘zlashuv uslubi. Литературный разговорный стиль является распространенным и приемлемым для всех отраслей видом общенародного литературного языка. Он используется в повседневном общении. Обучение, воспитание и агитационная работа осуществляется в этом стиле, также в этом стиле создается художественная литература.

Og‘zaki so‘zlashuv uslubi. Просторечие характеризуется использованием в процессе речевого общения элементов литературного языка и диалекта. В этом стиле проявляется не соответствие норме порядка слов в предложении (kecha konsert bo‘ldi klubda); больше переносных, образно-эмоциональных средство (g‘ayrat qil, shalvirama; Alini qarang, og‘zi qulog‘ida), будучи в диалогической форме, в них употребляется много неполных предложений и жестов (Kelyarti (navbatchi), Ketdimi? – Ha.) повторов (Kelib-kelib shu gapni topdingmi?); проявляется свободное произношение (na‘lat (la‘nat), harqattan (haqiqatan)). Просторечие широко испльзуется в художественной литературе для индивидуализации речи персонажа.

Lug‘at ishi

to‘liqsiz	неполный
mas‘ul kotib	ответственный
hukm	1. приговор
	2. суждение
qissa	повесть
beqiyos	несравненный
qahr	злость
g‘oliblar	победители

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Rus tiliga tarjima qiling.

SHAROF RASHIDOV

Davlat arbobi va shoir Sharof Rashidov 1917-yilda Jizzax shahrida tug‘ilgan. To‘liqsiz o‘rta maktabni bitirib, Jizzax Pedagogika texnikumiga o‘qishga kirdi. Texnikumni imtiyozli diplom bilan tamomlab, Narimonov nomidagi to‘liqsiz o‘rta maktabda o‘qituvchilik qildi.

1937–1941-yillarda Samarqand Davlat Universiteti filologiya fakultetida o‘qidi, sheʼrlar yoza boshladi.

1938–1939-yillarda Samarqand viloyat gazetasida muharrir o‘rinbosari, keyinroq mas’ul kotib bo‘lib ishladi.

Sharof Rashidovning «San’ating kulsin», «Quvonchli dillar», «Erkim» kabi dastlabki sheʼrlari 1938-yilda yozildi. U «Tarix hukmi» kitobi, «G‘oliblar» qissasi, «Qahrim» sheʼriy to‘plami, «Ikki dil dostoni» kinossenariysi muallifi.

Sharof Rashidov O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi. Oliy Kengash Prezidiumi Raisi, partiya markaziy komiteti birinchi kotibi lavozimlarida ishladi. Ikki marta Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi.

Sharof Rashidov 1983-yil 31-oktabrda hayotdan ko‘z yumdi.

Shoir, yozuvchi, davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidovning respublikamiz oldidagi xizmatlari beqiyosdir.

2-topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzib, o‘zaro suhbat quring.

3-topshiriq. So‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan gaplar tuzing.

81-mashg‘ulot

Suhbat

– Siz bu ko‘chada anchadan beri yashaysizmi?

– Yo‘q biz ilgari Qibrayda yashar edik. Bu yerga ko‘chib kelganimizga uch oy bo‘ldi.

– Qibray tumanining qaysi joyida turar edingiz?

– Biz «Rohat» hissadorlik jamiyati yaqinida istiqomat qilardik. Dadam ham shu yerda ishlar edilar. Havosi ham salqinroq edi.

RASMIY-IDORAVIY USLUB

(Официально-деловой стиль)

Официально-деловой стиль отличается точностью и краткостью фраз, в нем широко используются конкретные речевые штампы, термины, готовые синтаксические построения, что обеспечивает точность и ясность речи. Готовые речевые формулы (shu asosida, ... ni e‘tiborga olib, biz, quyida imzo chekuvchilar и т.д.) требуют повествовательно-информационный характер текста документа, употребление слов в одном значении, широкое употребление страдательного залога и повелительного наклонения глагола, видов сложного предложения.

Lugʻat ishi

boʻlim mudiri	заведующий отделом
lavozim	должность
mitti yulduz	маленькая звезда
ruhim	букв.: мой дух
chashma	родник
birin-ketin	один за другим
jannatga yoʻl	дорога в рай
bastalangan	написан
loyiq topildi	удостоен
jild	том

1-topshiriq. Matni oʻqing.

ABDULLA ORIPOV

Abdulla Oripov 1941-yil 21-mart kuni Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi Nekoʻz qishlogʻida tugʻilgan. Oʻrta maktabni oltin medal bilan tugatib, ToshDU jurnalistika fakultetida oʻqidi.

A. Oripov turli yillarda «Yosh gvardiya» nashriyotida muharrir, «Sharq yulduzi» jurnalida boʻlim mudiri, Yozuvchilar uyushmasi Toshkent boʻlimi kotibi, uyusma raisi lavozimlarida ishladi.

1965-yilda «Mitti yulduz» nomli birinchi sheʼriy toʻplami nashr qilindi. Shundan soʻng «Koʻzlarim yoʻlingda», «Ruhim», «Onajon», «Oʻzbekiston», «Chashma» kabi kitoblari birin-ketin bosildi.

A. Oripov Dantening «Ilohiy komediyasi»ni oʻzbek tiliga tarjima qildi.

1978-yilda «Jannatga yoʻl» dramatik dostonini yaratdi.

1981-yilda «Najot qalʼasi» kitobi uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor boʻldi.

Abdulla Oripovning sheʼrlariga koʻplab qoʻshiqalar bastalangan. Xalqimiz ularni sevib tinglaydi. Shoirming sheʼrlari rus va boshqa tillarga ham tarjima qilingan.

1998-yilda Abdulla Oripov Oʻzbekiston Qahramoni unvoniga loyiq topildi.

2000-2001-yillarda toʻrt jildlik «Tanlangan asarlari» bosilib chiqdi.

2-topshiriq. Rasmiy – idoraviy uslubga xos boʻlgan birliklardan foydalanib gaplar tuzing.

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Oʻz arizasiga koʻra egallab turgan lavozimidan ozod qilinsin.
2. Sizga maʼlum qilamanki... . 3. Shu masalani oʻrganib chiqib taklif kiritсин. 4. Qaror ijrosi ustidan nazorat ilmiy kengash raisi A. Azizov zimmasiga yuklatilsin.

82-mashgʻulot

Suhbat

- Kechirasiz, siz shu yerlikmisiz?
- Ha. Shu yerlikman.
- Men Sobirjon akaning uylarini izlayotgan edim...
- Mahallamizda ikkita Sobir ismli kishi yashaydi. Birlari oʻqituvchi, birlari esa shifokor.
- Men oʻqituvchi Sobir akani izlayapman.
- Unday boʻlsa toʻgʻriga yuz qadamcha yurasiz, chap qoʻlga koʻcha ketgan. Oʻng tomondan ikkinchi eshik Sobir akaniki. Katta koʻk eshik.
- Rahmat sizga.
- Salomat boʻling.

ILMIY USLUB

(Научный стиль)

Научный стиль употребляют для передачи точной, обоснованной, систематизированной информации о всех предметах и явлениях в природе и общественной жизни. Важным считается описание сущности предмета – явления, анализ, установление причин и доказательность, изложение обоснованных результатов. Лексику данного стиля составляют специальные термины. Строго соблюдая литературные нормы в данном стиле широко используются глаголы в страдательном залоге и предложения со сложной конструкцией.

Стиль понятный широкой общественности, с присутствием эмоциональности и образности в изложении называют *ilmiy-ottnabor uslub* научно-популярным. В нем специальные термины используются реже (с пояснениями).

Lugʻat ishi

samimiy	искренний
dilrabo	задушевный
hassos	здесь: талантливый
bulbulga bir gapim bor	есть слово к соловью
uyqudagi qiz	спящая девушка
ishq kemasi	корабль любви
sheʻrxon	читатель, любитель стихов
qatagʻon qurbonlari	жертвы репрессий
manzur boʻlgan	понравился

1-topshiriq. Matnni oʻqing va rus tiliga tarjima qiling.

MUHAMMAD YUSUF

Samimiy sheʻrlari, dilrabo qoʻshiqlari bilan xalq koʻnglidan mangu joy olgan otashin shoir Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanida Qovunchi qishlogʻida tugʻildi.

1978-yilda Respublika Rus tili va adabiyoti institutini tamomlagach, turli yillarda Kitobsevarlar respublika uyushmasida, «Toshkent oqshomi», «Oʻzbekiston ovozi» gazetalarida, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyotida ishladi.

1995–1996-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va Jamiyat qurilishi akademiyasida oʻqidi. 1997-yildan Oʻzbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi boʻlib ishladi.

1985-yilda nasr etilgan ilk toʻplami «Tanish teraklar» unga katta shuhrat olib keldi. «Bulbulga bir gapim bor», «Uyqudagi qiz», «Ishq kemasi», «Erka kiyik», «Osmonimga olib ketaman» kabi toʻplamlari sheʻrxonlar orasida yaxshi maʼlum.

Shoirning sheʻrlari bilan qoʻshiq aytmagan taniqli oʻzbek xonandasini topish qiyin. Uning qatagʻon qurbonlari xotirasiga yozgan sheʻrlariga bastalangan qoʻshiqlar xalqimizga ayniqsa manzur boʻlgan edi.

1998-yilda Oʻzbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor boʻldi.

Bemahal oʻlim 2002-yilda chinakam xalq shoiri Muhammad Yusufni oramizdan olib ketdi, lekin uning qoʻshiqlari har bir oʻzbek xonadonida yangrashda davom etmoqda va shunday boʻlib qolaveradi.

2-topshiriq. Matnga reja tuzing. Shu reja asosida uning mazmunini aytib bering.

3-topshiriq. Muhammad Yusuf she'ri bilan aytilgan qaysi qo'shiqlarni bilasiz? Ularni aytib bera olasizmi?

83-mashg'ulot

Suhbat

– Sen ertaga nimalar qilmoqchisan?

– Ertaga dam olish kunim. Qarindoshlarimni ko'rgani bormoqchiman. Ular bilan bir mazza qilib gaplashib o'tirmoqchiman. O'zing-chi?

– Bir do'stim kasalxonada davolanyapti. Shuni ko'rgani bormoqchiman. Keyin kurs ishimni tamomlash uchun kutubxonaga boraman. Bir-ikkita kitoblarni ko'rib chiqmoqchiman. Kechqurun kursdoshlar bilan kinoga tushmoqchimiz. Seni taklif qilmoqchi edim.

– Qayerda uchrashamiz?

– Soat 7 larda Alisher Navoiy nomidagi San'at saroyi yonida yig'ilmoqchi edik.

– Men ham albatta yetib kelaman.

– Yaxshi bo'lardi.

PUBLISISTIK USLUB

(Публицистический стиль)

Публицистический стиль служит для отношений в политическо-социальных кругах. К письменной форме данного стиля относятся публицистические статьи, фельетоны, письма, а к устной форме относят ораторство. Стиль отличается преобладанием политической активности, острого и действенного ораторства, логических рассуждений и доказательным объяснением.

Lug'at ishi

ajoyib	прекрасный, удивительный
tahsil oldi	обучался
olam yuzini ko'rdi	увидел свет
oq olamlar	белые миры
muqaddas ayol	священная женщина
she'riyat ixlosmandlari	любители стихов
taqdim etdi	представил, подарил

1-topshiriq. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA

Ajoyib shoira Halima Xudoyberdiyeva 1948-yilda Sirdaryo viloyati Boyovut tumanida dunyoga keldi. 1972-yilda ToshDU ni tamomladi. 1975–1977-yillarda Moskva Oliy adabiyot institutida tahsil oldi.

Halima Xudoyberdiyeva «Saodat» jurnalida bo'lim boshlig'i, bosh muharrir o'rinbosari, bosh muharrir lavozimlarida, «Yosh gvardiya» nashriyotida ishladi. Hozirda «Sanam» jurnalida bosh muharrir o'rinbosari.

14 yoshlaridan she'r yoza boshlagan shoiraning ilk to'plami – «Ilk muhabbat» 1968-yilda olam yuzini ko'rdi.

Halima Xudoyberdiyeva «Oq olamlar», «Suyanch tog'larim», «Bobo quyosh», «Muqaddas ayol», «Himoya so'zi» kabi she'riy to'plamlarni she'riyat ixlosmandlariga taqdim etdi. U «Yuragimning og'riq nuqtalari» publisistik kitobining ham muallifi.

Shoira she'rlari rus tilida «Gordost» nomli to'plamda (R. Kazakova tarjimasida) ham chop etilgan.

Shoiraning ko'plab she'rlariga kuy bastalangan, «Muqaddas ayol» qo'shig'i esa ayolga madhiya sifatida yuraklardan alohida o'rin egallagan.

84-mashg'ulot Suhbat

- Kolya, sen futbolga qiziqasanmi?
- Ha, «Paxtakor»ning hamma o'yiniga boraman. O'zing-chi?
- Men tennisga qatnashaman. Futbol ham o'ynab turaman. Umuman, oilada hammamiz sportchimiz. Akam suzuvchi, ukam kurashchi.
- Chempionlar oilasi, degin.
- Kim bilsin, shunday bo'lishini istardim.
- Intilganga tole yor, – deyishadi. Yaxshi shug'ullansangiz, balki, chempion ham bo'larsizlar.
- Aytganing kelsin. Sen futbolni faqat tomosha qilasanmi? Yo o'ynaysan hammi?
- Ha, o'ynayman ham. Hozir universitet jamoasida o'ynayap-

man.

- Yutuqlar qanday?
- Yomon emas. Rahmat.

BADIIY USLUB **(Художественный стиль)**

Художественный стиль отличается тем, что охватывает все сферы человеческой жизни, направленностью на эмоционально – эстетическое воздействие на читателя или слушателя. В данном стиле автор с целью повышения эстетического влияния произведения умело и творчески пользуется лексико-грамматическими средствами языка, разными изобразительными средствами, а также может создавать новые. Все литературные произведения создаются в этом стиле.

Lug‘at ishi

dastlab	вначале
qadimgi davr	древний период
yodgorlik	памятник
muhofaza	защита
faoliyat	деятельность
tadqiqot	исследование
sug‘orish	поливать, полив
haqiqiy a‘zo	действительный член

1-topshiriq. Matnni o‘qing va so‘zlab bering.

BIRINCHI ARXEOLOG

Yahyo G‘ulomov 1908-yilda Toshkentda tug‘ildi. U avval «Namuna» internatida, so‘ngra shahardagi erlar bilim yurtida ta‘lim oldi. Samarqand Davlat Pedagogika akademiyasini tamomladi.

Mashhur olim dastlab Toshkent Pedagogika texnikumida dars berdi. Keyinroq O‘zbekiston Qadimgi davr va san‘at yodgorliklarini

muhofaza qilish qoʻmitasida ilmiy xodim, ilmiy kotib, Oʻz FA Tarix, til va adabiyot instituti boʻlim mudiri, Tarix va arxeologiya instituti direktori sifatida faoliyat yuritdi.

1937–1949-yillarda Yahyo Gʻulomov Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasida tadqiqotlar olib bordi. «Xorazmning sugʻorilishi tarixi» asarini yaratdi.

Olim ikki tomlik Oʻzbekiston tarixini yaratishda ishtirok etdi.

Oʻzbekiston FA haqiqiy aʼzosi, tarix fanlari doktori, xizmat koʻrsatgan fan arbobi oʻzining qirq yillik ilmiy faoliyati davomida koʻplab ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qildi, ilmiy kadrlarni tarbiyaladi.

Oʻzbekistonda arxeologiya rivojiga ulkan hissa qoʻshgan olim 1977-yilda vafot etdi. Uning ishlarini shogirdlari davom ettirib kelyapti.

2-topshiriq. Oʻzingiz tanlagan sohada tanilgan olimlardan kimlarni bilasiz? Shular haqida aytib bering.

85-mashgʻulot

Suhbat

- Tohir, bugun Adhamni koʻrdingmi?
- Yoʻq, tinchlikmi?
- Ha, tinchlik. Unda ishim bor edi. Mabodo koʻrsang, aytib qoʻy, menga uchrashsin.
- Sen oʻzing qayerda boʻlasan?
- Hozir darsga ketyapman. Bugun 4 soatgina oʻqiymiz. Keyin kutubxonada boʻlaman.
- Yaxshi, uni uchratsam, qidirayotganingni, albatta, aytaman.

TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

(Пунктуация)

Nuqta – точка ставится в конце повествовательных предложений: Bahor keldi.

Иногда ставится перед противительными союзами: Ular birga dars tayyorlashni oddiy hol deb bilishadi. Biroq qiz Toʻraxonovni hurmat qiladi, ... ishonadi.

Ставится после побудительных предложений, содержащих просьбу, совет, пожелание: O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.

После цифр, указывающих на порядок и предложение пишется с заглавной буквы: Har bir o‘quvchining vazifasi:

1. A‘lo baholarga o‘qish.
2. Kattalarni hurmat qilish.
3. Hamma yerda boshqalarga o‘rnak bo‘lish.

Vergul — запятая ставится:

1. Однородные члены предложения разделяют запятыми: Bog‘imizda olma, o‘rik, olxo‘ri gulladi.

2. Вводные слова и предложения, обособленные члены предложения выделяются запятой: Menimcha, siz adashdingiz.

3. После восклицаний, отдельных частиц – аффиксов: Oh, naqadar go‘zal! U shoshib kiyindi-da, ko‘chaga otildi.

4. Иногда запятыми выделяют слова, обозначающих подтверждение или отрицание: Ha, men uni taniyman. Saidani ko‘tmadim, yo‘q.

Lug‘at ishi

foydali qazilmalar	полезные ископаемые
tog‘ fakulteti	горный факультет
... huzuridagi	при...
sanoat	промышленность
nazariya	теория
istiqbolli	перспективный

1-topshiriq. Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

HABIB ABDULLAYEV

Habib Muhamedovich Abdullayev - geolog olim, davlat va jamoat arbobi, O‘zbekiston FA akademigi, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi.

U 1912-yilning 31-avgustida tug‘ilgan. O‘rta Osiyo Politehnika instituti geologiya-razvedka fakultetini tamomlagan. Moskva

Geologiya – razvedka instituti aspiranturasida o‘qigan. Shu institut Foydali qazilmalar kafedrasida assistent, O‘rta Osiyo Industrial instituti Tog‘ fakulteti huzuridagi Foydali qazilmalar kafedrasida dotsent, shu institutning direktori, O‘zbekiston Partiya Markaziy Qo‘mitasi Sanoat bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida ishladi.

O‘zbekiston Ministrlar kengashi raisi o‘rinbosari, O‘zbekiston FA prezidenti sifatida faoliyat yuritdi.

H. M. Abdullayev endogen ruda hosil bo‘lishi nazariyasi ustida ish olib bordi. Uning tadqiqotlari O‘zbekistonning istiqbolli kon rayonlarini o‘z ichiga oldi.

H. M. Abdullayev birinchi bo‘lib O‘rta Osiyoni alohida metallogenik zona sifatida ajratdi. Bu zonaning kontaminatsion tipdagi va muayyan fansiyadagi gersin granitoid intruziyalari bilan bog‘liqligini aniqladi. Uning tadqiqotlari O‘zbekiston geologiya fani rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi va hozirda ham ulardan keng foydalanib kelinmoqda.

Bir necha xorijiy geologiya jamiyatlari a‘zosi H. M. Abdullayev 1962-yilda vafot etdi.

86-mashg‘ulot Suhbat

– Kechirasiz, bu yerdan Qo‘yliq dahasiga boradigan transport bormi?

– Ha, bu yerdan Qo‘yliqqa yo‘nalishli taksi boradi.

– Nechanchi yo‘nalishli taksi?

– 99-yo‘nalishli taksi. U Qo‘yliq bozorigacha boradi.

– Yo‘nalishda «Otoyo‘l» avtobuslari qatnaydimi?

– Yoq. Xususiy mashinalar. «Raf», «Gazel» kabi mikroavtobuslar qatnaydi. Yo‘lning u tomoniga o‘tib, qarama-qarshi yo‘nalishga chiqasiz. Bu tomonga TTZ dahasiga boriladi.

– Rahmat.

– Xayr. Yaxshi yetib oling.

TIRENING ISHLATILISHI

Sodda gaplarda.

1. Между подлежащим и именным сказуемым: Toshkent – non shahri.

2. В предложениях с однородными членами, когда обобщающее слово находится после них: Qalam, qog‘oz, ruchka –

barchasi tayyor.

3. Иногда типе выделяют обособленные члены или вводные предложения: Ikkalamiz – Sobir va men – ishga joylashdik. Nizomiy nomidagi TDPU – men shu universitetda o‘qiyman – respublikamizning tayanch oily o‘quv yurtlaridan biri.

4. Когда два имени собственных идут подряд и означают расстояние между двумя местами или равное отношение какому-то предмету: Toshkent – Samarqand poezdida ketamiz. Djoul – Lens qonuni.

Qo‘shma gaplarda. В бессоюзных сложных предложениях, означающих условность или противность: Qo‘shning tinch – sen tinch. To‘g‘ri bo‘ling behavotir bo‘lasiz.

Для разделения прямой речи от авторской после запятой: «Hoziroq uyga boraman, – dedi Salima, – qani dadamlardan ham bir so‘rab ko‘ray».

Lug‘at ishi

me‘morchilik	архитектура
mohir	умельный
ta‘mirlash	1) ремонт 2) реконструкция
ma‘muriy	административный
bezak	1) украшение 2) отделка
mashaqqatli	кропотливый

1-topshiriq. Matnni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

USTA SHIRIN

O‘zbek xalq me‘morchiligi butun dunyoga tanilgan. Bunda o‘z kasbining mohir ustasi nozik iste‘dod sohibi Usta Shirin Murodovning ham hissasi katta.

Ustaning otasi Murod va bobosi Buxoroning mohir ganchkorlari bo‘lishgan. 14 yoshida yetim qolgan Shirin amakisi taniqli usta Hayot qo‘lida tarbiya oladi.

Kamana saroyini bezashda qatnashib mustaqil usta sifatida tanilgan Usta Shirin ko‘pgina me‘moriy yodgorliklarni ta‘mirlashda

jonbozlik qilgan, klublar, ma'muriy binolarga ganch bilan bezak bergan.

Poytaxtimizning ramzlaridan biri – Toshkent kuranti, Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi, Rus yosh tomoshabinlar teatri, Muqimiy teatri binosi Usta Shirinning mashaqqatli mehnati evaziga shunday ko'rkam bolgan.

Usta Shirin Navoiy nomidagi teatrning Buxoro zali bezagi uchun Davlat mukofotiga loyiq topilgan.

Qo'li gul usta Samarqand ta'mirlovchilar maktabi, Toshkent qurilish-san'at maktabida, Moskva Badiiy san'at bilim yurtida, Benkov nomidagi Respublika Badiiy bilim yurtida o'zbek milliy me'morchiligi sirlarini yoshlarga o'rgatdi. O'ziga munosib shogirdlar tayyorladi. Endilikda ular ustaning ishlarini davom ettirmoqda.

O'ZBEK TILIDA ISH YURITISH

87-mashg'ulot

ARIZA

(Заявление)

Заявление – документ, составленный на имя конкретной организации, должностного лица, содержащий какую-либо просьбу, предложение или жалобу.

Необходимыми элементами заявления являются следующие:

1. Наименование организации или **Ф.И.О.** должностного лица, кому направлено заявление;
2. **Ф.И.О.**, местожительство, должность заявителя;
3. Наименование документа (Заявление);
4. Основной текст (предложение, просьба, жалоба);
5. Прилагаемые документы (при необходимости);
6. Подпись, фамилия и инициалы заявителя;
7. Дата подачи заявления.

Необходимые части заявления не всегда повторяются одинаково, к примеру, сотрудник, пишущий заявление на имя руководителя предприятия, где он работает, не указывает своего адреса, а лишь указывает отдел (часть), где работает и свою должность.

Части заявления располагаются следующим образом:

Kimga yoki qayerga
ariza yozuvchining
ismi-familiyasi, manzili

ARIZA

Ariza matni

Sana

imzo

Familiyasi I. O.

Namunalar

Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek
tili va adabiyoti fakulteti dekani
dotsent I. Yo‘ldosheva IV kurs «A»
guruhi talabasi Avazov Ahrorbek
Azizovichdan

ARIZA

Kasalligim tufayli shu yilning 10-sentabridan 25-sentabrigacha pedagogik amaliyotda qatnasha olmadim. Pedagogik amaliyotni 26-sentabrdan davom ettirishimga ruxsat etishingizni so‘rayman.

Ilova qilindi: Shahar 1-sonli kasalxonasidan olingan ma‘lumot-noma.

2002. 25. 09.

Imzo

A. A. Avazov

Toshkent viloyati Qibray tumani
Salor shaharchasi IIB boshlig'i
O. Muhammadovga Salor shaharchasi
Guliston ko'chasi 40-uyda yashovchi
Olim Oqilovdan

ARIZA

Meni 2002-yil 12-avgust kuni avtobusda ketayotib Qibray tumani IIB tomonidan berilgan fuqarolik pasportimni yo'qotdim. Menga yangi pasport berishingizni so'rayman.

Ilova qilindi: Topilmalar idorasidan ma'lumotnoma. Tug'ilganlik haqida guvoohnoma.

2002. 17. 08.

Imzo

O. Oqilov

1-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkasi ajratishingizni so'rayman. 2. Betobligim sababli darslardan ozod qilishingizni so'rayman. 3. Egallab turgan lavozimimdan o'z ixtiyorim bilan ozod qilishingizni so'rayman. 4. O'rindoshlik asosida ishlashimga ruxsat berishingizni so'rayman.

2-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Прошу выделить путевку в санаторий-профилакторий университета. 2. Прилагается: больничный лист за № 170632. 3. Прошу выдать новый студенческий билет. 4. Прошу принять соответствующие меры.

3-topshiriq. Namunalardan foydalanib ariza matni yozing.

88-mashg'ulot
TAKLIFNOMA
(Приглашение)

Приглашение – письменное сообщение, употребляемое для приглашения на какое-либо мероприятие.

Основные необходимые элементы:

1. Наименование (Taklifnoma).
2. Текст: а) по видам приглашений: фамилия или имя (отчество) приглашаемого:
 - б)наименование приглашающей организации;
 - в)на какое мероприятие приглашается.
3. Дата и время проведения мероприятия.
4. Место проведения.
5. Подпись (наименование организации, проводящей мероприятие).

Если мероприятие организовано несколькими организациями, то их наименование указывается в тексте по отдельности, но в конце приглашения указывать приглашающих не обязательно.

Namunalar

TAKLIFNOMA

Hurmatli _____

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi sizni o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, ulug' shoir

G'AFUR G'ULOM

tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjumanga taklif etadi. Ilmiy anjuman shu yil 12- yanvar soat 10 da Til va adabiyot instituti majlislar zalida boshlanadi. (I. Mo'minov ko'chasi, 9- uy, 2-qavat).

TAKLIFNOMA

Hurmatli _____

Sizni 2003-yil 21-avgust kuni soat 10.00 da Toshkent shahrining «Yunusobod» sport majmuyida bo'lib o'tadigan tennis bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Kubogi musobaqalarining ochilish marosimiga taklif etamiz.

Tashkiliy qo'mita.

Тексты приглашений пишутся произвольно. Поэтому порядок необходимых элементов строго не соблюдается.

В приглашении может быть включена программа или распорядок мероприятия. Но чаще они прилагаются как отдельные программы.

В официальных приглашениях чаще пишется фамилия приглашенного. А в личных только имя, иногда из уважения к приглашаемому употребляют различные звания, слова обозначающие родственность.

TAKLIFNOMA

Muhtaram(a) _____

Sizni farzandimiz Iqboljonning sunnat to‘yi munosabati bilan 2003-yil 10-yanvarda nahorda yoziladigan dasturxonimizga taklif etamiz.

Hurmat bilan Qobilovlar oilasi Manzil: «Tabassum» kafesi.

ASSALOMU ALAYKUM

Hurmatli _____

Sizni va oila a‘zolaringizni aziz farzandimiz Dilnozaxon va Dilshodbeklarning nikoh to‘ylari munosabati bilan 2002-yil 19-oktabr soat 19.00 da yoziladigan dasturxonimizga kelib, quvonchimizga sherik bo‘lasiz degan umiddamiz.

Hurmat va ehtirom ila Turdi Eraliyevlar oilasi

Manzil: Zangiota tumani Ittifoq ko‘chasi

81-uy. Mo‘ljal; «Shavkatxoji» masjidi,

45-, 99-avtobuslarning «Ittifoq» bekati

1-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы будем рады видеть вас за нашим столом. 2. Нас очень обрадует ваш визит. 3. Приглашаем вас и членов вашей семьи... .
4. Приглашаем вас на конференцию посвященную...
5. Торжества пройдут по адресу... .

2-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Quvonchimizga sherik bo'lasiz degan umiddamiz. 2. Sizni ... yoziladigan dasturxonimiz atrofida ko'rishdan mamnun bo'lar edik. 3. To'y oshi ... da tortiladi. 4. Ilmiy kengash yig'ilishining muddati haqida sizga alohida xabar qilinadi.

89-mashg'ulot MAJLIS BAYONI (Протокол)

Официальный документ, регистрирующий выступления участников собраний, заседаний и других, а также их постановления.

Оно может быть кратким (повестка дня, фамилии докладчика и выступавших в прениях, постановление) и полным (приводятся все высказывания участников).

Необходимыми частями протокола являются:

1. Наименование организации, учреждения.
2. Заглавие (наименование совещающегося органа или собрания).
3. Наименование документа (Протокол).
4. Дата.
5. Номер.
6. Место собрания.
7. Регистрация утверждения (при необходимости).
8. Фамилии председателя и секретаря.
9. Текст:
 - список или число участников; – повестка дня; – заслушали; – выступили; – постановили.
10. Приложения (если имеются).
11. Подписи.

Протокол оформляется по данной схеме:

Tashkilot nomi

MAJLIS BAYONI

Sana.

Joyi.

Rais.

Kotib.

Qatnashdilar:

Kun tartibi:

1.

2.

3.

1. ESHITILDI:

Ma'ruzachi ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi).

SO'ZGA CHIQQILAR:

So'zga chiquvchilar ism-familiyasi -

QAROR QILINDI:

2. ESHITILDI:

Ma'ruzachi ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi)

SO'ZGA CHIQQILAR:

So'zga chiquvchilar ism-familiyasi -

QAROR QILINDI:

3. ESHITILDI:

Ma'ruzachi ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi)

SO'ZGA CHIQQILAR: So'zga chiquvchilar ism-familiyasi - ...

. QAROR QILINDI:

Rais

Imzo

Familiyasi I.O.

Kotib

Imzo

Familiyasi I.O.

1-topshiriq. Sxemadan foydalanib, guruh majlisi bayonini yozing.

2-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Внес предложение, предложил, возложить на доцента Имамова, объявить выговор, представить на утверждение Научного совета университета, утвердить состав комиссии в следующем порядке, контроль за исполнением возложить на ...

3-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. ... borasida olib borilayotgan ishlar qoniqarli deb topilsin.
2. Ilmiy rahbar etib tayinlansin.
3. ...haqidagi taklifi ma`qullansin.
4. ... guruh sardori etib tayinlansin.
5. Tegishli bo`linmalar o`z faoliyatlarini mazkur qaror asosida tashkil etsinlar.

4-topshiriq. Guruh yig`ilishi majlis bayoni namunasini yozishga tayyorlaning.

90-mashg`ulot
MAJLIS BAYONIDAN KO`CHIRMA
(Выписка из протокола)

При необходимости оформляются выписки из постановлений, принятых в ходе заседаний. Выписка из протокола заверяется подписями.

Выписка из протокола состоит из следующих основных частей:

1. Наименование организации, учреждения.
2. Наименование документа (Выписка из протокола).
3. Дата (дата заседания).
4. Условный номер.
5. Место оформления выписки из протокола.
6. Текст:
– повестка дня; – Заслушали; – Постановили.
7. Подписи.
8. Пометка о заверении выписки.

Иногда в выписке из протокола приводятся фамилии или число участников заседания, а также выступавших в прениях, что является не целесообразным.

В тексте выписки приводится лишь часть, которая должна быть доведена до лица или учреждения. Если было рассмотрено несколько вопросов, то приводится лишь постановление по нужному вопросу.

Части выписки из протокола размещаются следующим образом:

Tashkilot nomi
MAJLIS BAYONIDAN KO‘CHIRMA

Sana.
Joyi.

Kun tartibi:
1.

ESHITILDI:
Ma’ruzachi ism- familiyasi (ma’ruzaning qisqa bayoni).

QAROR QILINDI:

2.

Rais	Imzo	Familiyasi I.O.
Kotib	Imzo	Familiyasi I.O.

Namuna

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,
Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy kengashining 11-raqamli.

MAJLIS BAYONIDAN KO‘CHIRMA

2002. 21. 04.

Toshkent shahri.

Kun tartibi:

1. «Tilshunoslik atamalarining izohli lug‘ati» kitobini nashrga tavsiya etish. Z. Mirholiqov axboroti.

2. Eshitildi:

Z. Mirholiqov kengash a'zolarini «Tilshunoslik atamalarining izohli lug'ati» bilan batafsil tanishtirdi. Ushbu lug'at 3000 so'zni qamraganligi, ularning bugungi kun talablari darajasida izohlan-ganini aytib o'tdi.

3. Qaror qilindi:

1. «Tilshunoslik atamalarining izohli lug'ati» kitobi nashrga tavsiya etilsin.

2. Mas'ul muharrir etib filologiya fanlari doktori S. Ashirboyev tasdiqlansin.

Rais	(imzo)	B. Qodirov
Kotib	(imzo)	Q. Safoyev

1-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Mazkur qarorni tasdiqlash ... dan so'ralsin, ilmiy rahbar etib ... tayinlansin, belgilab qo'yilsinki ..., ... qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, ... qarorning 3- bandi quyidagicha o'zgartirilsin.

2-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Признать результаты голосования действительными.

2. Очередное заседание Научного совета назначить на

3. Ответственным за выполнение назначить 4. Утвердить постановление совета стоматологического факультета от

91-mashg'ulot TAVSIFNOMA (Характеристика)

Характеристика – официальный документ, отражающий трудовую и общественную деятельность, а также личные качества лица.

Основными обязательными частями характеристики являются:

1. Основные сведения о лице:
 - Ф.И.О.;
 - год рождения;
 - национальность;
 - партийность;
 - образование;
 - должность;
 - научная степень и звание.
2. Наименование документа.
3. Текст.
4. Подписи.
5. Дата.
6. Печать.

Текст характеристики можно условно разделить на три части.

В первой части приводятся сведения о трудовой деятельности лица, т.е. с каких пор работает в данном учреждении и в других местах, изменения в должности и др.

Во второй части излагается личная характеристика сотрудника, т.е. отношение к работе, опыт, организаторские способности, участие в общественной жизни, семейное положение, отношение к членам коллектива, премии и т.д. Указываются недостатки и выражаются пожелания.

В третьей части делается вывод из выше изложенного и указывается с какой целью выдана характеристика.

Namuna

Nizomiy nomidagi TDPU
pedagogika va psixologiya
fakulteti 3- kurs talabasi
1988- yilda tugʻilgan, oʻzbek
Yoqubov Nosir Orifovichga

TAVSIFNOMA

Yoqubov Nosir oʻrta maktabni tugatgach, 2003-yilda pedagogika va psixologiya fakulteti 1-kursiga oʻqishga kirdi.

Universitetda oʻqish davrida u oʻzini intizomli, tirishqoq va zukko

talaba sifatida ko'rsatdi. Bilimlarni qunt bilan egallashga harakat qiladi. 2002-yilda universitet talabalari ilmiy anjumanida uning ma'ruzasi eng yaxshi deb topilib, faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

N. Yoqubov universitet jamoat ishlarida faol qatnashadi. U «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati kengashi a'zosi.

N. Yoqubov rostgo'yligi, kamtarligi va talabchanligi bilan talaba va o'qituvchilar e'tiborini qozongan.

Tavsifnoma Yakkasaroy tumani hokimligiga taqdim etish uchun berildi.

Dekan (imzo)

I. M. Azimov

Kasaba uyushmasi raisi (imzo)

R. R. Yunusov

1-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Показал себя с лучшей стороны, требователен к себе и окружающим, является председателем ученического совета, активно участвует в общественной жизни коллектива, пользуется заслуженным авторитетом, стателный, интересуется химией.

2-topshiriq. Biror guruhdoshingizga tavsifnoma yozing.

92-mashg'ulot ISHONCHNOMA (Доверенность)

Доверенность — документ, в котором учреждение или отдельное лицо предоставляет право вести дела от своего имени. Различают официальную (служебные, выданные отдельному лицу организацией или учреждением для ведения дел от своего имени) и личные (выдаваемые отдельным лицом другому) доверенности.

Личная доверенность оформляется произвольно, но в ней должны быть следующие части:

1. Наименование документа.
2. Ф.И.О. (полностью) выдавшего доверенность.
3. Ф.И.О. (полностью) доверенного лица.

4. Содержание доверенности (точно указывается порученная работа).
5. Наименование учреждения, где будет выполнено поручение.
6. Подпись, доверившего лица.
7. Дата выдачи.
8. Должность и подпись лица, подтверждающего подпись доверителя.
9. Дата и печать.

Namunalar

ISHONCHNOMA

Men, Toshkent shahar, 2-Qorasuv dahasi, 214-uy, 5-xonadonda yashovchi Ahad Ismoilovich Bahodirov qo'shnim Fozil Naimovich Qahhorovga shaharning 7-aloqa bo'limidan mening nomimga kelgan pochta jo'natmasini olish uchun ishonch bildiraman.

2005-yil 16-fevral (imzo) A. I. Bahodirov

A. I. Bahodirov imzosini tasdiqlayman.

Xodimlar bo'limi boshlig'i (imzo) I. Tolipova
muhr

2005-yil 16-fevral

ISHONCHNOMA

Men, Ahmad Isroilovich Soipov kursdoshim Abduqahhor Shodiyevga shaharning 77-aloqa bo'limidan mening nomimga kelgan 10000 (o'n ming) so'm miqdoridagi pul jo'natmasini olish uchun ishonch bildiraman.

2005-yil 16-fevral (imzo) A. I. Soipov

A.I. Soipov imzosini tasdiqlayman.

Institut kadrlar bo'limining boshlig'i (imzo) G. Nozimova
muhr

2005-yil 16-fevral

1-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Получить мою стипендию за январь, из кассы университета, почтовое отправление на сумму..., в отделении связи.

2-topshiriq. Namunalar asosida ishonchnoma matnini tuzing.

93-mashg‘ulot

TILXAT

(Расписка)

Расписка – документ, подтверждающий получение денег, документа, драгоценностей и др. Оформляется в одном экземпляре и хранится как драгоценный документ.

Обязательными элементами расписки являются:

1. Наименование документа.

2. Текст:

– Ф.И.О. и должность, дающего расписку;

– Ф.И.О. лица или наименование учреждения выдающего деньги, драгоценности и т.д.

– Наименование и количество денег, драгоценностей (при необходимости их стоимость);

– Техническое состояние получаемого предмета (если это машина, аппараты и т.д.).

3. Дата оформления расписки.

4. Подпись выдавшего расписку.

Иногда в расписке указывается Ф.И.О. свидетелей, в этом случае последние должны заверить документ своей подписью.

Namunalar

TILXAT

Men, Toshkent davlat madaniyat instituti xo‘jalik ishlari bo‘limining mudiri Baxtiyor Olimov, Toshkent milliy cholg‘u asboblari zavodining tayyor mahsulot ombori mudiri Erkin Karimovdan institut buyurtmasi asosida tayyorlangan umumiy bahosi 139 700 (bir yuz o‘ttiz to‘qqiz ming yetti yuz) so‘m bo‘lgan 100 dona rubobni qabul qilib oldim.

2005.15.09.

(imzo)

B. N. Olimov

TILXAT

Men, «Qibray» shirkat xo‘jaligi brigada boshlig‘i Aziza Salimova, xo‘jalik kassiri Dilbar Saidovadan brigada a‘zolarining iyun oyi uchun 187000 (bir yuz sakson yetti ming) so‘m maoshini tarqatish uchun oldim.

2005. 10. 07. (imzo) A.S. Salimova

1-topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Принял для обмена, принял драгоценностей на сумму..., получил от ... 10 (десять) упаковок, принял на хранение.

2-topshiriq. Tilxat namunasini yozing.

94-mashg‘ulot

TUSHUNTIRISH XATI

(Объяснительная записка)

Объяснительная записка – документ письменно поясняющий отдельные вопросы, касающиеся работы (учебы) и направляемый руководителю учреждения (его подразделения) или в вышестоящую инстанцию, т.е. различают внутренние и внешние объяснительные записки.

Внутренние (личные) объяснительные записки пишутся сотрудниками (учащимися) или руководителями подразделений на имя руководителя организации или учреждения. В ней поясняются отдельные действия сотрудника (учащегося) в процессе работы (учебы), обосновываются их причины. Документ оформляется на простой бумаге и подписывается непосредственно автором.

Обязательные элементы объяснительной записки:

1. Полное наименование организации или Ф.И.О. должностного лица, кому адресована объяснительная записка.
2. Полное наименование организации или Ф.И.О. лица оформившего объяснительную записку.
3. Наименование документа.
4. Текст.
5. Приложение (при необходимости).
6. Подпись.
7. Дата.

Nizomiy nomidagi TDPU
O'zbek filologiyasi fakulteti
dekani, dotsent I.Yu. Halilovga
3-06 guruh talabasi
Obid Sobitovning

TUSHUNTIRISH XATI

Men 2005-yilning 21-sentabridan 10-oktabrigacha bo'lgan davrda onamning qattiq betoblighi tufayli 46 soat mashg'ulotga qatnasha olmadim.

Пова: Onamning kasalliga haqidagi shifokor ma'lumotnomasi.

2005. 10. 07. (imzo) O. Sobitov

Иногда объяснительная может быть более сложной формы. В левом верхнем углу листа пишется наименование подразделения и документа, дата и заглавие текста, в правом верхнем углу пишется Ф.И.О., кому направлено объяснительная записка.

Toshkent shahri
Mirzo Ulug'bek sanoat kolleji
direktori A. Mahamatovga

TUSHUNTIRISH XATI

2005-yil 19-noyabr.
12-guruhda mashg'ulot o'tkazilmay
qolishi to'g'risida

2005-yil 19-noyabr soat 8.30 da fuqaro himoyasi mashg'ulotiga 26 o'quvchidan 4 tasigina keldi. Natijada, mashg'ulotni qoldirishga to'g'ri keldi.

O'qituvchi (Imzo) T. Murodov

1-topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

Из-за плохой посещаемости учащихся, из-за отсутствия преподавателя, пропустил по болезни, в связи со свадьбой.

2-topshiriq. Tushuntirish xati namunasini yozing.

MUNDARIJA

O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi	3
So‘zboshi	4
O‘zbek va rus tillari	5
O‘zbekiston - V atanim manim	7
O‘zbekiston Respublikasi	8
Ozod O‘zbekiston	8
Fonetika va orfoepiya	9
Jannatmakon yurt	11
Bo‘g‘in	12
Inson baxt uchun tug‘iladi	13
Urg‘u	14
O‘zbekistonim, senga	15
Mantiqiy urg‘u	16
O‘zbekiston Konstitutsiyasi	17
Orfografiya	18
O‘zbek tili	20
Leksika	21
So‘zning lug‘aviy va grammatik ma’nolari	21
Tosh shahrim - bosh shahrim	22
Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar	23
Vatan	25
So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari	26

O‘zbekistonning tarixiy shaharlari	27
Tanishuv va tarjimai hol	27
Ibora	28
Men akademik litsey o‘quvchisiman	29
So‘z tarkibi	30
Tanishuv	31
Tarjimai hol	33
Mening qiziqishlarim va mashg‘ulotlarim	34
So‘z yasalihi	35
Bizning litsey	36
So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari	37
Sevimli darsim	39
Morfologiya	40
Ot	40
Mening ish kunim	41
Egalik qo‘shimchalari	42
Bizning kollejimiz	44
Otlarda turlanish	45
Bosh kelishik	45
Har kunning samarali bo‘lsin	47
Sevimli gazetam (jurnalim)	47
Qaratqich kelishigi	48
Kitoblar – jonu dilim	49
Sevimli kitobim	51
Tushum kelishigi	51
Jo‘nalish kelishigi	53
Sevimli gazetam	54

Tavsif va ta'rif	55
O'rin-payt kelishigi	55
Yaxshi fazilat - inson ko'rki.....	56
Chiqish kelishigi.....	57
Ismi jismiga monand	59
Otlarda son	60
Bular - tengdoshlarim	60
Men yoqtirgan narsalar.....	61
Ot yasalishi	62
Men yoqtirgan o'yinlar.....	63
Sifat	64
Sevgan mashg'ulotim	65
Taqdir ajoyibotlari va dunyo sirlari.....	66
Sifat darajalari	67
Olamning yetti mo'jizasi	68
Sifat yasalishi	69
Ko'p tilda so'zlashuvchi mayna	71
Sifatning o'tlanishi	72
Son.....	72
Ajoyibotlar	74
O'zbek tilida vaqt hisobi	75
Kasb(hunar) ilmini sharaflayman	76
Olmosh	76
Kishilik olmoshlari	76
Ustoz	77
O'zlik olmoshi	79
Ota kasbim.....	80

Ko`rsatish olmoshlari	81
Bizning mahalla	83
So`roq olmoshlari	83
Vatan mahalladan boshlanadi	84
Belgilash olmoshlari	85
Bizning mahalla	86
Jamoat transporti	87
Bo`lishsizlik olmoshlari	88
Gumon olmoshlari	90
Shahar transporti	91
Fe`l	92
Oilam–tayanchim va faxrim	94
Fe`l yasalishi	94
Qo`shma fe`l	96
O`zbek oshxonasida	98
Ko`makchi fe`l.	98
Fe`lning vazifa uchun xoslangan shakllari.	102
Sifatdosh	102
Ravishdosh	104
Harakat nomi	109
Fe`l zamonlari	111
O`tgan zamon	112
Yaqin o`tgan zamon	112
Savdo muassasalarida	113
Uzoq o`tgan zamon	113
O`tgan zamon davom fe`li	117
O`tgan zamon hikoya fe`li	120
O`tgan zamon maqsad fe`li	122

Hozirgi zamon fe'li	124
Hozirgi zamon davom fe'li	124
Hozirgi - kelasi zamon	127
Dam olish va ta'til	129
Kelasi zamon gumon fe'li	130
Kelasi zamon maqsad fe'li	133
Safar taraddudi va taassurotlari	135
Fe'l mayllari	135
Xabar mayli	135
Buyruq-istak mayli	135
Shart mayli	138
Maqsad mayli	139
Fe'l nisbatlari	142
Ravish	144
Ravishlarning yasalishi	148
Yordamchi so'zlar	149
Bog'lovchilar	149
Ko'makchi	152
Yuklama	155
So'zlarning alohida guruhlari	158
Modal so'zlar	158
Undovlar	158
Taqlidiy so'zlar	159
Milliy bayramlar	159
Sintaksis	160
Gapda so'zlarning bog'lanishi	160
Teng bog'lanish	160

Tobe bogʻlanish	163
Moslashuv	163
Boshqaruv	164
Bitishuv	164
Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari	165
Gap boʻlaklari	168
Bosh boʻlaklar	168
Ikkinchi darajali boʻlaklar	171
Aniqllovchi	171
Toʻldiruvchi	173
Hol	175
Undalma	178
Kirish soʻz va birikmalar	178
Gapning uyushiq boʻlaklari	180
Gapning tuzilishiga koʻra turlari	182
Sodda gap	182
Abu Nasr Forobiy	183
Qoʻshma gap	184
Bogʻlangan qoʻshma gap	185
Ergash gapli qoʻshma gap	188
Ega ergash gapli qoʻshma gap	189
Kesim ergash gapli qoʻshma gap	189
Aniqllovchi ergash gapli qoʻshma gap	191
Toʻldiruvchi ergash gapli qoʻshma gap	191
Payt ergash gapli qoʻshma gap	193
Oʻrin ergash gapli qoʻshma gap	193
Sabab ergash gapli qoʻshma gap	195

Maqsad ergash gapli qo'shma gap	194
Natija ergash gapli qo'shma gap	197
Shart ergash gapli qo'shma gap.....	197
To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap	198
Ravish ergash gapli qo'shma gap	199
Bog'lovchisiz qo'shma gap	201
Ko'chirma va o'zlashtirma gap	202
Nutq uslublari.....	204
So'zlashuv uslubi	204
Rasmiy – idoraviy uslub.....	206
Ilmiy uslub	208
Publitsistik uslub	210
Badiiy uslub	212
Tinish belgilarining ishlatilishi.....	213
O'zbek tilida ish yuritish	217
Ariza	217
Taklifnoma	220
Majlis bayoni.....	222
Majlis bayonidan ko'chirma.....	224
Tavsifnoma.....	227
Ishonchnoma	228
Tilxat	230
Tushuntirish xati.....	231

**RAVSHANXO‘JA RASULOV,
ALISHER MIRAZIZOV**

O‘ZBEK TILI

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2013

«Turon-Iqbol» nashriyoti.
100182. Toshkent, H. Boyqaro ko‘chasi, 51-uy
Telefon: 244-24-58, faks: 244-20-19

Muharrir	Mirzahmad Mirzakomilov
Texnik muharrir	Adham Moydinov
Musahhah	Salima Badalboyeva
Dizayner va kompyuterda sahifalovchi	Fotima Moydinova

Nashryot lits. AI N 223, 16.11.2012.

Bosishga ruxsat etildi 14.02.13. Bichimi 60x84¹/₁₆.

«Times UZ» garniturası. Ofset usulida bosildi.

Shartli b. t. 14,25. Nashr t. 15,0. Adadi 500. 233-sonli buyurtma.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» MCHJda chop etildi.
100200, Toshkent, Radial tor ko‘chasi, 10.